

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KORREKSION PEDAGOGIKA VA LOGOPEDIYA

100000 – ta'lism

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtal maxsus vazirligi tomonidan oliy
o'quv yurtlari 100000-uchun bakalavriyat ta'lism yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan
talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Тошкент

"IQTISOD – MOLIYA"
2007

Taqrizchilar:

Defektologiya kaf.dotsenti, p.f.n.

Pulatova X.M.

RTM Maxsus ta'lim bo'limi boshlig'i p.f.n. dos.

Shomaxmudova R.SH.

Raxmanova V.S.

«Korreksion pedagogika va logopediya» Oliy o'quv yurtlari o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "IQTISOD – MOLIYA" 2007. – 151 b.

«Korreksion pedagogika va logopediya» bakalavriat yo'nalishi: 5141700 – Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti yo'nalishi talabalar uchun darslik sifatida yaratilgan. Ushbu yo'nalishning o'quv rejasida xuddi shu nomli kurs mavjud. Mazkur kitobda jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, turlari ko'rib chiqilgan. Maktabgacha yoshdagи rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limni tashkil etish yo'l, usul xamda tashkiliy formalari bayon etilgan.

Kitob pedagogika oliy o'quv yurti Maktabgacha va oilaviy ta'lim yo'nalishi talabalar uchun mo'ljallangan. Undan kasb-xunarga yo'naltiruchi tashxis markazi xodimlari, pedagogik kasb-xunar koledji talabalar, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari va defektologlar xam foydalana olishlari mumkin.

"IQTISOD – MOLIYA" 2007.

Raxmanova V.S. 2007.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lif standartida «Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar ta'limga qo'yiladigan davlat talablarli» mavjud.

Shu talablar asosida "Uchinchi ming yillikni bolasi" nomidagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi tuzilgan. Ushbu xujjat "Ta'lif to'grisida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" xamda "Soglom avlod" Davlat dasturini xayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan.

Mustaqillikka erishgan xozirgi davrning muxim xususiyatlaridan biri, bozor munosabatlari shakllanayotgan mazkur jarayonga mos keladigan, yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashdan iborat. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bolgan mustaui shaxsni voyaga yetkazishimiz zarur".

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol g'oyalari asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limga tayyorlashdan iboratdir. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar xam uchrab turadi. Turli sabablarga ko'ra ko'zi ojiz, kar yoki zaif eshituvchi bo'lib qolgan va boshqa toifadagi alovida yordamga muxtoj bolalar maktabgacha tarbiya muassasalariga xamma qatori qatnab, ta'lif-tarbiya jarayoniga jalb etilishlari kerak. Maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jixatdan rivojlantirib, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, extiyoji va imkoniyatlarini xisobga olgan xolda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lif olishga (maktabga) tayyorlashi lozim. Buning uchun har bir tarbiyachi bolaning rivojlanishida qanday nuqsonlar bo'lishi mumkin, ularning turlari, kelib chiqish sabablari kabi va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Shuni xisobga olib, 5141700 – Maktabgacha ta'lif va bolalar sporti yo'nalişidagi bakalavriat o'quv rejasiga «Korreksion pedagogika va logopediya fani» kiritilgan.

Mazkur kitobning maqsadi pedagogika oliy o'quv yurtlarida «Korreksion pedagogika va logopediya» kursini talabalarga chuqr o'rganishga yordam berish. Kitob ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismida korreksion pedagogika fanining

maqsad va vazifalari, aloxida yordamga muxtoj bolalar ta'rifি berilgan bo'lsa, ikkinchi qismda logopediya fanidan maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'plab uchraydigan nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

1 bob Korreksion pedagogika va logopediya kursining maqqsadi va vazifalari.

1.1. Korreksion pedagogika - fan sifatida.

Reja

1. Maktabgacha tarbiya muassasining asosiy maqqsadi vazifalari.
2. Bola huquqlari haqidagi konvensiya
3. Korreksion pedagogika fanining maqqsadi va vazifalari. ✓
4. Aloxida yordamga muxtoj bolalar
5. Aloxida yordamga muxtoj bolalar uchun diffrensial va integratsiyalashgan ta'limga tashkil etish.

«Uchinchi ming yillikning bolasi» kitobidagi tayanch dasturida «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limg-tarbiyasiga ko'yiladigan davlat talablari» asosida maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ishlarning vazifasi, mazmuni yoritilgan. Dasturning VI bo'limi “Maktabga tayyorlov davri” deb nomlangan. Ushbu bo'limda 6-7 yoshli bolalarni jismonan rivojlantirish, nutqi va tafakkurini rivojlantirish va ularni ma'nан rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlarning mazmuniga qo'yilgan talablar yoritilgan.

Dasturning «Bolalarni ma'nан rivojlantirish» qismida:

- savollarga javob berish, turli mavzularda fikr bayon qilish xamda atrofdagi odamlarning she'r, ertak va xikoyalarida bayon etilgan, rasm, multfilm, kinofilm larda ifodalangan fikrni anglash, ularning mazmunini qayta so'zlab bera olish;
- nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish. Fikrni grammatik jixatdan aniq bayon qila olish;
- so'zda tovushlarning ketma-ketligini farqlash, bo'g'in va so'zлarni to'g'ri tuzish, eshitgan nutq tovushlarini farqlay olish;
- bosma harflarni o'zaro farqlay olish, nutq tovushi bilan harfni bir biridan farqlay olish;
- ertak, xikoya, maqol va topishmoqlar obrazliliginini xis eta olish;

-ifodalari tarzda she'r ayta olish va boshqa talablar qo'yilgan.

Bolaning maktabga tayyorlash guruxiga o'tishi uni alohida mavqega qo'yadi : u o'zini yangi hayot -mактаб xayoti bo'sag'asida turganligini anglaydi; u endi tarbiyachisini o'qituvchi deb biladi. Bolaning mashg'ulotlardan tashqari vaqtidagi jamoa faoliyatlarida o'zini-o'zi tashkil etish va bir-birini nazorat qilish kuchayib boradi. Bolalarning jamoa fikrlari va umumiy oddiy talablari paydo bo'ladi. Bu yoshdagidan bolalar o'rtasida mashg'ulotlar, shuningdek, didaktik o'yinlar ,qoidalari o'yinlar va harakatli o'yin- musobaqalar tobora ko'proq axamiyat qozonadi. Bola o'yin bilan jiddiy ish o'rtasidagi farqni tushunib oladi, qachon va qayerda o'ynash, jiddiy ish bilan shug'ullanish kerakligini bilib olgan bo'ladi. U oilasida va bolalar bog'chasida o'ziga topshirilgan muayyan vazifalarni bajaradi. Bunda katta yoshdagidan kishilarning bolalar mexnatni natijalariga, bu mexnatning tevarak-atrofdagi kishilar uchun bo'lgan axamiyatiga tegishli baxo berishlari, bolaning o'z tashabbusi bilan biron ishni boshlab yuborish istagini maqullashlari muximdir.

Bolaning bilish faoliyati murakkabroq tus ola boshlaydi, idrok qilishi muayan maqsadga yo'nala boshlaydi. Turli narsalar yoki ularning tasvirlari bilan muttazam ravishda tanishib borish natijasida bolaning muayyan vazifaga bo'ysundirilgan kuzatuvchangligi oshib boradi. Idroknинг o'sishiga raxbarlik qilinsa, maktabgacha tarbiya yoshi oxirida bolada muxim sensor qobiliyatlar: ko'z bilan aniq chandalab bilish, proporsiyalarga ko'rib turib baxo berish, fonematik uquvlari va musiqa tovushlarini to'g'ri idrok etish va ayta bilish qobiliyatları paydo bo'lib boradi. Bola kuyning harakatini, tovushlarning pasayishi va yuqorilanishini, balandligi va uzunligi har xil bo'lgan tovushlarni, ashula aytish va she'r o'qish tempining o'zgarib turishini farq qilish va buni o'zi amalda ifodalab berishi mumkin.

Muayyan maqsadga qaratilgan ta'llim natijasida bolaning ixtiyoriy ravishda esda saqlab qolish va ifodalab berish qobiliyati o'sadi. Bola esda saqlab qolishning har xil usullarini qo'llay boshlaydi: materialni ma'nosiga qarab guruxlarga bo'ladi, esda saqlab qolmoqchi bo'lgan narsasini ko'p martda takrorlaydi va x.k. Bolalar eng oddiy mantiqiy skrashni o'rgana boshlaydilar. Ular nutqning tovush tuzilishini taxlil qila oladigan bo'lib qoladilar: bola so'zdagi tovushlarni aloxida o'zini talaffuz qilishi, so'z qaysi

yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar talim tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan sifatida o‘rganişib kelmoqda. Xozirgi kunda bu fan «korreksion pedagogika» deb ham yuritilmoqda. Inson xuquqlari dekloratsiyasi, bolalar konvensiyasi talabalaridan kelib chiqqan xolda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni kansitmaslik, xaqratlamaslik uchun masalan, Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti “Korreksion pedagogika ilmiy tadqiqot instituti” deb nomlanmoqda. Defektologiya fani ko‘p mamlakatlarda korreksion pedagogika deb yuritilmoqda. Korreksion pedagogika fanining predmeti - anomal bolalar, ya’ani jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar (yunoncha anomalous - odatdan tashqari), noraso degan ma’noni bildiruvchi so‘zi bilan yuritiladi. Xozirgi kunda O‘zbekistonda **Korreksion pedagogika** — aloxida yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fandir. Korreksion pedagogika so‘zi lotincha tuzatish-bartaraf etish, pedagogika- ta’lim-tarbiya, urganish degan suzlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar **anomal bolalar** deyiлади (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma’noni bildiruvchi anomalous suzidan olingan). Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, **aloxida yordamga muxtoj bolalardir**. Korreksion pedagogikaning vazifasi - anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarni urganish, shular, asosida **integratsiyalashgan, inkiyuziv yoki differensial ta’limni** tashkil etish, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishdir. Korreksion pedagogika fanining **maqsadi** - anomal bolalarga integratsiyalashgan-inkiyuziv xamda differensial ta’limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni urganish, ulardagи psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yollarini tarbiyachi hamda o‘qituvchilarga ko‘rsatib berishdan iborat. Anomalyalar har xil bo‘ladi, ularning ba’zilari batamom **bartaraf etiladi**, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, **korreksiyalanadi**, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba’zilari esa **kompensatsiyalanadi**. Bola nutqida qo‘pol kamchiliklar bo‘lsa, to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik choralarни o‘z vaqtida ko‘rish yo‘li bilan ularni to‘liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklarni natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion

pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni **kompensatsiyalash**, o'mini bosipsh mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayt shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Korreksion pedagogika nisbatan yangi fan. U asosan 19 asmining o'rtalarida rivojlanma boshladi. 1925 yilda Moskva shaxrida Eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor Vigotskiy L. S. boshqardi.

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'tganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga dikkatni jaib etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sobiq sovet psixologiyasi va defektologianing nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning tuxtash nazariysi", "chevara" degeneratsiya nazariysi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy va reaksiyon nazariyalarni fosh etdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardag'i mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy ham salbiy tomonlarni aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Sog‘lom va anomal bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishini I. M. Solovyev ham har tomonlama o‘rgandi. “Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi” nomli kitob shu ishning natijasi bo‘ldi. I. M. Solovyev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o‘rganishda chinakam novatorlik ko‘rsatdi.

Eksperimental defektologiya instituti 1943 yilda Rossiya Pedagogika fanlari akademiyasining Defektologiya ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi. Hozirgi zamон korreksion pedagogika fanining rivojlanishida mazkur institut xodimlarining roli nihoyatda katta buldi.

1920 yilda Rusiyada anomal bolalarni tarbiyalash instituti ochilib, 1925 yilda bu institut 2-Moskva davlat universiteti pedagogika fakultetining defektologiya bo‘limiga aylantirildi, 1930 yili V. I. Lenin nomidagi Moskva davlat pedagogika instituti qoshida mustaqil defektologiya fakulteti tashkil etildi. Hozir Rossiya mamlakatining deyarli barcha jumhuriyatlarida korreksion pedagogika qulliyotlari yoki bo‘limlarida oliv ma’lumotli defektologlar tayyorlash ishi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda korreksion pedagogika fanining rivojlanish 1967 yildan boshlab tezlashdi, chunki shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida oligofrenopedagogika bo‘limi tashkil etildi. Bu bo‘limga 1976 yili surdopedagogika bo‘limi qo’shildi. 1984 yili esa mustaqil defektologiya fakultetining bir necha bo‘limida ta’lim berila boshlandi. Hozirgi kunda TDPU BTU va defektologiya fakultetida Defektologiya kafedrasi faoliyat ko‘rsatmoqda, defektolog bakalavr va magistrlar taxsil olmoqdalar. Tallim kunduzgi va sirtqi bo‘limda uzbek va rus tilida tashkil etilgan.

Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fansifatida ajralib chiqdi: **surdopedagogika** (lotincha surdus — kar, gung so‘zidan olingan) — eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan; **tiflopedagogika** (yunoncha tiflos — ko‘r, so‘qir so‘zidan olingan) — ko‘zi ojiz bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan; **oligofrenopedagogika** (yunoncha oligos — kam, fren — aql), so‘zlaridan olingan, — aqliy tomondan zaif bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan; **logopediya** (yunoncha logos — so‘z, padeo —

tarbiya so‘zlaridan olingan) — og‘ir nutq nuqsonlarini o‘rganish, oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, usullarini o‘rganadigan fan.

1.2. O‘zbekistonda «Ta’lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari.

1994 yillarda YUNESKO “Maxsus talim zaruriyati” nomli xujjatni tayyorlab, unda maxsus talimga muxtoj bolalar va yoshlar uchun talimni tashkil etish va takomillashtirish masalalari kurib chiqilgan .Ushbu talim turida asosiy o‘rin **reabilitatsiya** masalalariga ajratilgan. Xujjatda: «Maxsus talimni aloxida yordamga muxtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad - jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va usmirlarni mustaqil, xamma qatori yashash sharoitida **jamiyatga tiklash**. <-, deb ta’kidlangan. Bolada nuqson bulishiga qaramay uning qridan keladigan ish turini unga o‘rgatib, uqitiib, tarbiyalab, jamiyatda o‘z urnini topib ketishga yordam berish - **ijtimoiy reabilitatsiya**.

Rivojlangan mamlakatlarda “Maxsus talim zaruriyati” nomli xujjatga javoban SVR-Reabilitatsiya tashkiloti (Sommin.Vased Reabilitatlop) tashkil etildi. Tashkilot nogironlar jamiyatni, nogironlar oilalari, sog‘liqni saqlash, mexnat va axolini ijtimoiy muhofaza etish xamda kasaba uyushmalari vakillarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Bunday nufuzli tashkilotning asosiy maqsadi - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolalarni himoyalash, xuquqlarini tiklash, vakolat berish, talim-tarbiya tizimini shakllantirish, jamiyat va raxbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.

Aloxida yordamga muxtoj bulgan bolalar uchun tashkil etilgan talim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o‘rganiladi, ijobjiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari urganiladi, Ushbu talim tizimida ma‘lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya ,reabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta’minalash; yura olmasa - nogironlar aravachasidan foydalanish, qulida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta’minalash va boshqalar.

Inklyuziv ta’lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashgan va sharoitga qarab o‘zgaruvchan, g‘amxurlik bilan yondasha oladigan ta’lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me’yorda rivojlangan bolalar ukuv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv-jalb etish (vklyucheniye)degan ma’noni anglatadi, ya’ni jismoniy yoki

ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan uzarо bog'lanib birgalikda ta'lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish, nuqsonidan kelib chiqqan xolda ma'lum u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bulsa, dastur va rejani qisman uzgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki mакtabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Xar bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki mакtabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bulib, u gurux tarbiyachisiga maslahatlar beradi va kumaklashadi; maxsus uqitish uskunalar, aparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar,o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari utkazadi; dars jadvali, dasturga, kerak bulsa ,uzgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim maxoratini boyitadi; sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muxitni yaratadi. Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolani oddiy bog'cha yoki mакtabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovvut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bulim tashkil etilishi mumkin. Funksional integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funksional tafovvut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun aloxida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik tugarak va sportga jaib etish foydalidir.

Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va me'yorda rivojlangan bolalarni uзaro dustlashishga, bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi, me'yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bulishga o'rgatadi. Jamiatog'li nogiron kishilarga tug'ri munosabatda bulishi kerak. Konstitutsiyamizdagи barcha bandlar ular uchun ham ta'alluqli. Har qanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amhurlik kursatiladi.

Integratsiyalashgan - mujassam, ajratib brimaydigan qism degan maunoni bildiradi. Xar bir bola ta'limga jaib etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barchalar teng xuquqga ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi.

2001 yilda YUNESKO "Ta'lim xarmma uchun" dasturini qabul qiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston

Respublikasi xam, ushbu dasturga imzo chekgan. Dastur global, keng miqyosida “Ta’lim xamma uchun”(Obuchenije dlya vsej) joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi. O‘zbekistonda «Ta’lim xamma uchun» milliy dasturi 2005 yili dekabr oyida qabul etildi. Shu davrdan beri uni joriy qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xozirgi kunda davlat tomonidan inklyuziv ta’lim haqidagi xujjalalar rasmiylashtirilmoqda, hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan holda turli nodavlat tashkilotlar chet ellarda bu ishlarning ahvolini o‘rganib chiqib, inklyuziv ta’limning ayrim turlarini joriy etmoqdalar. O‘zbekistonda YUNESKONING ta’lim buyicha maslahatchisi yordamida Respublika ta’lim markazining maxsus ta’lim bulimi a’zolari, ”Oila” Ilmiy pedagogik markazi, Nogiron farzandli ayyollar jamiyatlari, ”Umr” markazi, ”Ulubki detyam”halqaro jamiyatning O‘zbekistondagi guruxi (Lorans Mirelett-direktori), ”Umid”markazi, (Maxmudova N.M-direktor), xalqaro” Opereyshin Mersi” tashkiloti (direktor-Andreyev Vogt), ”Kenes-” sentr reabilitatsii i trudovoy adaptatsii (direktor-Suleyeva M.M.), ”Beguborlik”-ijtimoiy birlashma (raisi-AbdubekovaD.N), ”PEGAS-AL-FALAK” markazi (direktor-AminovaV.YU.) ”KRIDI”, ”Feniks”markazi (direktor-Yusupova G.S.Navoi viloyatida), Respublika Ijtimoiy adaptatsiya markazi va boshqalar talaygina muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

O‘zbekistonda defektologlaming olib borayotgan ishlari xam diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta’lim elementlari talaygina. Kup yillardan beri umumta’lim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o‘z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir rayondagi yordamchi mexnat ta’limi maktabi, me’yorda rivojlangan bolalar ta’lim oluvchi muassasalarda ulgurmochi o‘quvchilar bilan yil davomida ma’lum ishlarni olib borishmoqda, ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta’lim shakllaridan biri bo‘lib xisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Salamanskaya deklaratsiya. – Ispaniya, 1994
2. Inklyuziv ta’lim. - Tuve Djonson Mejregionalnaya programma po obucheniyu invalidov (Opereyshin Mersi) Vsemirnyy forum po obrozovaniyu Zaklyuchitelniy doklad Nyu York, 1990

- 3.Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. - O'zbekiston bolalar jamg'armasi.
4. K.K.Mamedov, G.B Shoumarov, V.P.Podobed Ruhiy rivojlanishi sustalashgan bolalar haqida T., 1993
- 5.Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika.-T.,2006
6. V.S.Raxmanova Maxsus pedagogika. T., 2005
7. B.B.Shoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., "Mehnat" 2000.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Korreksion pedagogika fanini ta'riflab bering.
2. Bu fanning vazifalari nimadan iborat?
3. Korreksiya va kompensatsiya nima?
4. Korreksion pedagogika faning rivojlanishi haqida gapirib bering.
5. Korreksion pedagogika fanining qaysi sohalarini bilasiz?
- 6.Integratsion ta'lif deganda nimani tushunasiz?

2 bob Aloxida yordamga muhtoj bolalar toifalari

Rejal .

1. Yosh go'daklar rivojlanishining xususiyatlari
2. Aloxida yordamga muxtoj, anomal bolalar.
3. Anomal bolalarning toifalarilar
4. Anomal bolalarga yordamni tashkil etish
5. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni xis etadi.

Tevarak atrofdagi borliqni bilish — sezish va idrok qilishdan, ya'ni vogelikdagи narsa va hodisalarining bola ongida aks etishidan boshlanadi.

Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan

kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, kuzi kurayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi — buyumlarni ko‘rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarining uz vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining uz vaqtida va tug‘ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruxiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta’sir kursatadi. Bolalar nutqi rivojlanishga boshlashi bilan kattalar suzlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko‘rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga uz munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo‘layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo‘lgan munosabati — bularning hammasi bola ma’naviy qiyofasining shakllanishiga ta’sir etadi.

Bolaning xoh ona qornida, hoh tug‘ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo‘lgan ma’lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya’ni jismoniy yoki ruxiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Korreksion pedagogika fanida aloxida yordamga muxtoj - anomal bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi. Ular quyidagilardir:

- 1) eshitish kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar’, kech kar bo‘lib qolgan bolalar);
- 2) ko‘rish qobiliyati zaif (kur, zaif ko‘rvuchi bolalar);
- 3) oligofren (debil, imbetsil, idiot bolalar);
- 4) og‘ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 5) harakat-tayanch a’zolarida kamchiliklari bulgan bolalar;
- 6) ruxiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar.
- 7) kompleks nuqsonli kur-kar-soqov bolalar;

Anomal bolalar soglom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limga yoki maxsus ta'limga tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlarga uni anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsa-yu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u umumiy mакtab sog'лом tengdoshlari katori uzlashtiradigan bulsa, u anomal bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagи kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas.

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'limga berish uchun maxsus sharoit yaratish kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida xamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular aloxida yordamga muhtoj.

Har qanday anomal rivojlanish markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, notug'ri tarbiya, ta'limga natijasida ham paydo bulishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa kupgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatib, uning dastur materiallarini yaxshi uzlashtira olmasligiga, ulgurmovchi uquvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab buladi. Shunday bulsada, biz bunday bolani anomal bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bulmasin biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan.

Tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni anomal bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar ko'p jihatdan xomilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qomidagi xomilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va

boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning xomiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi, bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar genetik, ya'ni irlsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaifliklarning nasidan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktorming mos kelmasligi va boshqalar).

Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan anomaliyalar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. To'g'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakuum-ekstraktor yoki ombur solinishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sisternasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan .ko'pgina choralar ko'rilmoxda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalr soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakilanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

SAVOL VA TOPSHIRIKLAR

1. Yosh go'daklar rivojlanishining xususiyatlarini ta'riflab bering.
2. Anomal bolalar deb kimlarni aytamiz?
3. Anomal bolalarning qanday toifalarilari mavjud?

4. Anomal bolalar qayerda ta'lim olishlari kerak va nima uchun?
5. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari nima?
6. Maxsus yordamga muxtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?

3- BOB Ko'ruv va eshituv idrokida muammosi bo'lgan bolalar

3.1. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar

Reja

- 1.Bolaning eshitish idrokida kuzatiladigan muammolar.
- 2.Bolaning eshitish darajasini aniqlash usullari.
3. Karlikning kelib chiqish sabablari, kar bolalar ta'rifi
- 4.Zaif eshituvchi bolalar, ulardagi nuqsonning kelib chiqish sabablari.
- 5.Kech kar yoki keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar.
- 6.Maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi.

Nutq — murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtiroy etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fizicologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina harakterlanib qolmay, balki eng muhim — o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham harakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega

Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Defektologlarning (T.A.Vlasova, R.M.Boskis, D.V.Neyman va boshqalarning) berган ма'lumotlariga ko'ra, eshitishida nuqsonlari bor bola'arning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligiga va og'ir-yengilligiga bog'liq. Surdopedagogikada eshitishida nuqsonlari bor bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif

shituvchi bo'lib qolgan bolalar guruhiga bo'lib o'rganiladi. Tug'ma hali tili chiqmagan
daklik davrida ikkala qo'loqning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi.
Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar
zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng
yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolganlar
guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so'ng vujudga kelsa ham, qulodagi
nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo'laveradi.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan
bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25—30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga
sabab: onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallinishi, ota-
onalarning ichkilik ichib turishi, onaning xomiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni
iste'mol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xinin, singari dorilarni), xomilaning shikastlanishi;
irsiyat, genetik faktorlar (qulog tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish
yo'li atreziyası — bituvi).

Eshitishdagı orttirilgan nuqsonlar qulog yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi
kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliv nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki
qulogning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki),
meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallinishi ba'zi
hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi
kunda ekologiya masalalarning keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham
katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir
etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi nevrlarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi
eshita olmaydigan bo'lib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi,
chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallari ni
o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va
tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qat o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdag'i bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnnini to'ldirib boshkaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nuggiy rivojlanishini, ham umumiyl, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'llim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga karsoqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'liq buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6—8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3—6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4—6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1—3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Qulog'i og'irlilik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'ating kambag'al bo'lishi, grammatic komponent rivojlanmagan — gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatalish, ularni o'zarob bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish boshqalar shular jumlasidandir.

Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjaxl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta'lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Uzliksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muasasalari, maktab va kasb-xunar kolejlarida maxsus guruxlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi xamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Ushbu muassasalarda ta'lim umumta'lim 9 yillik ta'limning davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishslashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash, mumkin. Tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifasi — sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning "maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etilishini ta'minlashdan iborat.

Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg'ulotlarda muayyan tizimdag'i mashqlar asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqiy jarayonga moslay olish talab etiladi. Nutqiy materiallarning amaliy egallanishini ta'minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapisish, yozib

tushuntirishga) ehtiyojni tug'diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi. Bunda materiallar fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida, rejalashtirishlarda oldindan belgilangan bo'ladi, ya'ni korreksion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

Har bir dars uchun nutqiy materiallar korreksion-kommunativ tizim tamoyillari qat'iy rioya qilgan holda (o'quvchilarining eshitish, talaffuz qilish imkoniyatilariga mo'talaffuzi yaqqol va eshitilish diapazoni yengil, oddiydan murakkab noo'xhashlikdan-o'xhashlikka boruvchi tartibda) tanlanadi va tayyorlanadi. So'zlashuv nutqiga ehtiyojni tarbiyalash oiladan boshlanishi, ya'ni maktabda egallangan nutqiy ko'nikma va malakalar oilada tabiiy vaziyatlarda mustahkamlanishi va o'quvchilar amalda (erkin, qo'rmasdan, uylamasdan) qo'llashlariga erishish uchun keng sharoit yaratilmoqda. Ushbu sharoit oila a'zolari ishtirokida yaratiladi. Ularning kar bola bilan keng muloqoti va iliq munosabati bolaning keyingi bosqich ta'limgarbiyasiga va umuman taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyati eshitish (har qanday daraja karlikda u ma'lum miqdorda bo'ladi) qoldig'idan optimal ravishda foydalanishga bog'liq bo'lganligi tufayli maxsus muassasalarda ta'limgi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar asosida olib borish talab etiladi. Sinflar maxsus jihozlanadi. Ya'ni maktab-internat moddiy texnika negizining yo'naliishiga mos shakllanishi ta'limgazmunining samaradorligini oshiradi.

Kar va zaif eshituvchi bola o'z ona tilini shu til qonuniyatlarini, xususiyatlaridan kelib chiqqan, mazkur bolaning ruhiy, nutqiy imkoniyatlariga moslashtirilgan, korreksion-kommunikativ tamoyillarga asoslangan va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan maxsus yondoshuv asosida egallaydi. Maxsus maktab-internatlarda ta'limgarbiya jarayonini, xususan ona tili ta'limgini amalga oshirishda o'quvchilarining fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatishda daktil belgilardan tegishli bosqichlarda o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarida so'zlashuv (oo'zaki, yozma) nutqni shakllantirishga ijtimoiy ehtiyoj sifatida yondoshish dolzarb masaladir. Buni amalga oshirish mazkur bolalarning jamiyatga moslashuvi, ularning borliqni anglashlari hamda ularni atrofdagilar qanchalik tushunib qabul qilishlari bilan belgilanadi. Kat'ya

zaif eshituvchi bola jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me'yorda rivojlangan, sog'lom tengqurlari qatorida o'z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun (nafaqat o'zi kabi taqdirdoshlari) tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta'minlash mumkinligi amalda o'z isbotini topmoqda.

O'quvchilarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyatini rivojlantirish, o'z ona tilida sog'lom tengqurlari kabi so'zlashish, fikr almashishini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-korreksion jarayonni yagona tizim asosida amalga oshirish orqali takomillashtirilmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga «Labdan o'qish» ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash mashg'ulotlari kiritilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus mакtab-internatlarining barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta'minlangan, xonalari maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamalar bilan jihozlanadi, sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan.

Xozirgi kunda surdopedagogikada kar va zaif eshituvchi bolalarning maxsus ta'lim bilan erta qamrab olinishi, rivojlanishi, korreksiya-kompensatsiya qilinishi masalalari dolzarbdir. Respublika ijtimoiy adaptatsiya markazi, Avloniy nomidagi XTXMO instituti xamda RTM xodimlari buning uchun uslubiy ko'rsatmalar yaratish ustida faol mexnat qilib kelmoqdalar.

Savol va topshiriqlar

1. Bolaning eshitish idrokida qanday muammolar kuzatilishi mumkin?
2. Bolaning eshitish darajasini aniqlash usullari.
3. Kar bolalar ta'rifi
4. Zaif eshituvchi bolalar.
5. Kech kar yoki keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar.
6. Maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi nimada?

3.2. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar.

Reja

1. Ko‘rish analizatorining ahamiyati
2. Ko‘rish nuqsoni guruxlari
3. Ko‘rishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari
4. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar bilan maktabgacha tarbiya muassasalari xamda maktabalarda olib boriladigan ishlar ta’rifi
5. Sensor nuqsonli bolalar bilan inqlyuziv integratsion ta’limni tashkil etish
6. Ko‘rish qobiliyatida kuzatiladigan nuqsonlarning oldini olish va bartaraf etish.
7. Ko‘zi ojiz bolalar uchun O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan muassalar .

Ko‘rish bolaning xayotiy faoliyatida va rivojlanishida muxim axamiyatga ega. Ko‘rishdagi nuqsonlar bolaning ruxiy, jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi. Tiflopedagogika fanida ko‘rish nuqsoni darajasiga xamda o‘quv materialni idrok qilishga ko‘ra kuyidagi guruxlar farqlanadi:

A. Ko‘r va deyarli ko‘r(qisman ko‘rvuchi) bolalar. Ko‘rish o‘tkirligi O dan O,OO4gacha. Bu bolalar umuman ko‘rmaydilar, ko‘rish imkoniyati kam saqlangan. Mashg‘ulotlarda ular asosan o‘quv materialini sezish, eshitish idroki asosida o‘zlashtiradilar. Brayl tizimi bo‘yicha o‘qiydi va yozadilar. Ba‘zi bir bolalar saqlangan ko‘rish imkoniyatidan o‘qish va yozishda foydalanishlari mumkin.

B. Zaif ko‘rvuchi bolalar. Zaif ko‘rvuchi bolalarning ko‘rish o‘tkirligi tuzatish(korreksiya) ko‘zoynaklari bilan O,O6 dan O,O9 gacha. Bu bolalarda odatda ko‘rishda murakkab nuqsonlar kuzatiladi. Ko‘rish o‘tkirligi pastligi bilan bir qatorda ayrim bolalarda ko‘rish maydoni toraygan, fazoviy idrok buzilgan bo‘lishi xam mumkin. Bularning barchasi o‘quv materialini idrok etish, o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu toifadagi boalar maxsus sharoitda, maxsus usul, uskunalar, texik va optik vositalar yordamida o‘qitilishi maqsadga muvofiqdir.

V.Zaif ko‘rvuchi bolalar. Ko‘rish o‘tkirligi tuzatish ko‘zoynaklari bilan O,1dan O,3- O,4gacha. Ma’lum sharoitlarda ular ko‘rish orqali erkin o‘qib, yozishlari mumkin, buyumlami ko‘rib idrok etadilar, katta fazoviy doirada ko‘rib mo‘ljal oladilar.

Ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatiga ega. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan idrok etiladi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'mi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism-ko'z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko'zga tushgan tasvirni avval po'stloq osti markazlariga, keyin esa oliv ko'rav markazlari joylashgan katta miya po'stlog'iga (ensa bo'laklariga) yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r (so'qir), yaxshi ko'ra olmaydigan, ko'zi xira, zaif ko'ravchi bolalar guruhiga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganida (ko'zoynak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Zaif ko'ravchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruxdagagi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar (masalan, tug'ma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), xomilador ayolning toksoplazmоз, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, xomila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'yinaydi.

Orttirilgan ko'rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilangani tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ravchi bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko'r yoki zaif ko'ravchi bo'lib qolish hodisalariga deyarli tamomila barham berildi.

Ko'z ojizligi, ya'ni ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va bir xil turadigan (muqim) bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin og'irlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan zaifligi, ko'ksuv, ya'ni glaukoma kasalligi (ko'z

ichki bosimining ko'tarilib ketishi) ko'ruv nervi atrofiyasi, to'r parda (ko'zning yoruq qabul qiladigan qismi) distrofiyasi (aynishi) ga bog'liq bo'lib, bolaning har rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin. Gigiyenik talablarga riosa qilmaslik refraksiya anomaliyalar bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklari zo'rayib borishiga ham olib keladi (faqt yaqindan yoki uzoqdan ko'rishga).

Yosh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar xam uchraydi: kriptoftalm ko'z olmasi, qovoqlarining tug'ilishdan rivojlanmay qolgani; mikroblefaron -ko'z qovoqlar kaltaligi tufayli ko'zning yumilmay turishi, koloboma — ko'z qovoqlarining nuqsoni va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday kamchiliklarning ko'pchiligini jarrohlik yo'lli bilan davolab, ularni bartaraf etsa bo'ladi.

Ko'zi ojiz, so'qir bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tug'ilishdan ko'zi ojiz va tug'ilganidan so'ng to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ko'r bo'lib qolgan bolalar kiritiladi, bunday bolalar xotirasida ko'rish tasavvurlari qolgan bo'ladi. Ko'rish qobiliyatining og'ir shakildagi buzilishlari bolaning harakterida, psixikasida ikkilamchi asoratlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'rish nuqsonlarining eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri-refraksiya anomaliyalaridir. Ularga yaqin ko'rish (miopiya)ning turli darajasi, gipermetropiya, uzoqni ko'rish yoki yaqin ko'rish astigmatizmi kiradi.

Refraksiya anomaliyalari, ya'ni nurlarni sindiruvchi fokus ko'z turi oldida bo'ladi. Yaqin ko'rishda (blizorukost) bola uzoqdagi buyumlarni noaniq ko'radi. Yaqin ko'rishda harita, jadvallar, sayr vaqtida uzoqdagi buyumlarni kuzatish, o'qish, yozish, mexnat darslarida bajariladigan ishlar, rasmlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yaqin ko'rish ko'zoynaklar yordamida to'g'rilanadi. Yaqin ko'ruvchi bollarga boshni uzoq egib turishi, tez engashish, og'ir ko'tarish, tana silkinishlari, mayda obyektlar bilan uzoq ishlash taqiqilanadi. Uzlusiz ish 15 daqqaq. Xira yorug'lik man etiladi.

Uzoqdan ko'rishda — ko'zdan yiroqda ko'radi, ko'zga yaqin buyumlarni idrok etishda qynaladi. Bunday bolalar mayda obyektlarni ko'rib o'rganishga mo'ljallangan darslarda juda qynaladilar va o'qish, yozish xamda tarqatma material bilan ishlashda qiyinchilikka uchraydilar.

Uzoqdan ko'rish maxsus korreksiya ko'zoynaklari bilan to'g'rilanishi mumkin. Ularga jismoniy vazifalarni bajarish taqiqlanmaydi. Yaqin obqektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi.

Ba'zi bolalarda amблиопия kuzatiladi. Ushbu nuqson ko'rishdan foydalananmaslik ntijasida rivojlanadi. Bunda ikki tomonlama g'ilayilik xamroq bo'lishi mumkin. Ambliopiyada ko'zning ~~ko'rish~~ va kuzatish qobiliyati buziladi. Bu esa o'qish va yozish, rasm chizish, rasmilarni kuzatish, ko'rish, geografik va tarixiy haritalami o'rganishda qiyinchilik tug'diradi.

Nistagm-ko'zning beixtiyor, ritmik takrorlanuvchi harakatlari. Ko'zning ortiqcha harakatlari ntijasida ko'rileyotgan tasvir yoyilib ko'rindi. Nistagmda bola ko'rayotgan obyektga ko'rish diqqatini jamlashda qiyinaladi. Bu qiyinchiliklar, ayniqsa harakatdagi dinamik idrokni qiyinlashtiradi.

Astigmatizmda, ko'pincha uzoq va yaqindan ko'rishning buzilishi qo'shilib keladi. Shox pardanering shakli buzilishi ntijasida nurlar noto'g'ri sindiriladi.

Astigmatizmi bor bolalar setchatkasida vertikal, gorizontal va boshqa yo'nalishdagi qiyshik idrok kuzatiladi va ntijadanoto'g'ri tasvir paydo bo'ladi.

Ko'rish nuqsonlarining yana boshqa shakllariga katarakta, ko'rish nervi atrofiyasi, albinizm, mikroftalm va boshqalarni kiritish mumkin.

Ko'rish nuqsonlarining qay darajadaligi ko'zning sindiruvchi soxalarining xolatiga bog'liq(shox parda, gavhar)

Katarakta -- ko'z gavarining loyqalanishi(pomutneniye). Bunda gavharni jarroxlilik yo'li bilan olib tashlash va yangisini qo'yish mumkin.

Afaksiya-gavharning yo'qligi.

Shox pardanering vazifasi-nurlarni sindirish. Afaksiya kasalligida va gavhar siljib ketgan bolalar jismoniy vazifalardan cheklanishi, tez harakatlar, og'ir ko'tarish, tana silkinishlaridan ximoya qilinishi zarur.

Shox parda(rogovitsa)ning tiniqligini buzilishi xam ko'rish nuqsoniga olib kelishi mumkin. Uning sindiruvchi faoliyati me'yordan past darajada bo'lganligi tufayli, bola buyumlarni aniq ko'ra olmaydi.

Zaif ko'ruchchi bolalarda ko'rish nervining qisman atrofiyasi, ko'z to'r qobig'ining turli tug'un o'zgarishlari tez-tez uchrab turadi. Bunga turli miya kasalliklari:meningit, meningoensefalit va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Ko'rish

atrofiyasi esa bosh miya jaroxatlari, ko'z to'r pardasi kasalliklari, miya shishlari, ko'rish nevriti natijasida xam kuzatilishi mumkin. Bunda ko'z markaz bilan bog'lanmaydi Ko'rish atrofiyasi davolanmaydi. Biroq undan kelib chiqadigan ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish, davolash muxim. Ko'z atrofiyasi bor bolalar doimiy ravishda izchillik bilan davolanishi lozim. Ularni charchatib qo'ymaslik uchun mashg'ulotlarda uzluksiz ko'z bilan ishslash 5-10 minutdan oshmasligi lozim.

To'r pardaning eng ko'p tarqalgan tug'ma kasalliklariga pigmentli retinit, albinizm, tur pardaning ko'chishi kiradi.

Pigmentli retinit -to'r pardadagi tayoqchalar faoliyatini buzilishi. Natijada kolbachalar faoliyati xam buziladi. Bu esa ko'rish maydonining torayishiga yoki ko'rishning butunlay yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Kasallik davolanmaydi.

Albinizm - to'r pardada pigment yetishmasligi. Natijada kishining ko'zi qizil, sochi va tanasi oq bo'lishi mumkin. Ularga yorug'lik to'suvchi ko'zoynak taqish, quyosh nurlaridan saqlanish tavsiya etiladi.

To'r pardaning ko'chishi-to'r parda tashqi qobig'inining oqib tushishi. To'r parda tarang tortilib turgan yuqori miopiyali kishilarda to'r pardaning ko'chishiga moyillilik bor. Ular og'ir ko'tarish, jismoniy mashqlardan saqlanishi lozim. Uzluksiz ishslash ular bilan 5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Glaukoma-ko'z ichki bosimining ko'tarilishi.

Mikroftalm-ko'z olmasining kichrayishi.

Ko'zi ojiz bolalar bilan barcha ishlar ularning ko'rish tasavvurlarini tiklash asosida olib boriladi va bunda ma'lum natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Har holda bola rang, shakl va boshqalarni bir qadar eslab qoladiki, bu tegishli tushunchalar hosil qilishni osonlashtiradi. Ko'z ojizligi qancha kech paydo bo'lgan bo'lsa, bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari shuncha boy va ularni mustahkamlash, takomillashtirish, kenggaytirish shunchalik oson bo'ladi.

Ko'rish qobiliyati keskin kamaygan ko'zi ojiz bolalar maxsus tashkil etilgan maktablarda yoki sog'lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Bu maktablarda sog'lom analizatorlarning aktiv faoliyati asosida (tuyg'u va eshitish, boshqa sezgi analizatori) ko'rish analizatori faoliyatini qoplash ishlari olib boriladi. Maxsus ta'lim-

tarbiya ishlari ko'rish qobiliyatining zaifligi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi psixik asoratlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, korreksiyalashga qaratiladi. Bolada mustaqil hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilim ko'nikma, hamda malakalar shaklantirib boriladi.

Zaif ko'ruchchi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadilar. Ular ham ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktabda yoki ko'rilar maktabi qoshidagi maxsus sinflarda sog'lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Biroq bunday bolalar aksari ommaviy maktablarda o'qishni boshlashi ma'lum. Bir necha yil muvaffaqiyatsiz ravishda, qiynalib o'qigach, ular maxsus maktabga yuboriladi. Bunday bolalarni tarbiyachi va o'qituvchilar sog'lom tengdoshlaridan ajratib olib, iloji boricha vaqtli maxsus maktablarga jo'natishlari yoki inklyuziv ta'limni tashkil etishlari kerak. Ko'rish qobiliyati zaiflashgan bolalar satrlarni yaxshi ajrata olmaydilar, shakli o'xhash narsa, harflarni bir-biri bilan adashtirib yuboradilar, natijada o'qish va yozishda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Raqamlarni bir-biridan yaxshi ajrata olmaslik oqibatida hisoblashda va matematika masalalarini yechishda qiynaladilar. Ular doskaga yozilganlarni, jadval, sxema va boshqa tasvirlarni yaxshi ko'rmaydilar, ko'rish bilan bog'liq ishni bajarish vaqtida tez charchab qoladilar.

Noto'g'ri muhit, noqulay sharoit bolaning ko'rish qibiliyati keskin pasayib borishiga olib kelishi mumkin.

Tarbiyachi va o'qituvchilar ko'rish qobliliyati zaif bolalarni o'z vaqtida oftalmolog huzuriga maslahatga yuborishlari kerak.

Oftalmolog bolani tekshirib, kerak bo'lsa unga korreksiya qiladigan ko'zoynak taqib yurishni tavsiya etadi va bola qayerda ta'lim olishi kerakligini aniqlaydi. Ko'zoynak taqib yurishi kerak bo'lgan bolalarga bog'cha va maktab sharoitiida to'g'ri sanitariya-gigiyena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o'rni to'g'ri va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o'quv materiallarni qanchalik aniq ko'rayotganiga e'tibor beriladi. Anomal refraksiyali bolalarning ko'zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o'zgartirib turish, ko'z qardash bilan bog'liq bo'lgan ishlarni, topshiriqlar hajmini g'oyat jiddiy nazorat qilib borish zarur.

Ko'z o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lgan zaif ko'ruvchi bolalar maxsus bog'cha maktablarda ta'llim-tarbiya olishadi. Bu joylarda o'quv ishlari ko'rish asosida olib boriladi ammo turli texnik va kattalashtiruvchi optik vositalardan, yirikroq harflar bilan bosib chiqarilgan darsliklardan, maxsus yoritgichlardan va hokazolardan foydalaniladi. Maxsus maktabning asosiy vazifalaridan biri — bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va bulami rivojlantirish, ko'rish qobiliyati pasayib ketmasligi uchun shart-sharoit yaratish, oliv ruhiy jarayonlarni tarbiyalab, bolaning bilim faoliyatini rivojlantirish, kengaytirish, bolada ko'rish qobiliyati zaifligi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi ruhiy asoratlarni bartaraf etish va boshqalardir.

Maxsus maktablarni bitirgach, ko'rish qobiliyati zaif bolalar jumhuriyat ko'rlar jamiyat qoshidagi muassasalarda ishlaydilar, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadilar (yozuvchi, shoir, oliv va o'rta maktab o'qituvchilar, muzikachi, va boshqalar bo'lib).

Shunday qilib, ko'rish qobiliyati zaif bolalarni ta'llim-tarbiya yo'li bilan rivojlantirib borish imkoniyatlari juda katta, to'g'ri tashkil etilgan kompensator, korreksion, choratadbirlar natijasida ular hayotida o'z o'mmini topib ketishlari mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ko'rish analizatorining ahamiyati nimada?
2. Ko'rishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari nimada?
3. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar bilan ommaviy maktab va bog'chalarda olib boriladigan ishlarni ta'riflab bering?
- 4 Sensor nuqsonli bolalar bilan inklyuziv integratsion ta'llim qanday tashkil etiladi ?
5. Ko'rish qobiliyatida kuzatiladigan nuqsonlarning oldini olish va bartaraf etish uchun nimalarni bilish kerak ?
6. Ko'zi ojiz bolalar uchun O'zbekistonda qanday muassalar tashkil etilgan?

ADABIYOT

- 1.O'zbekiston Respublikasi «Ta'llim qonuni»
2. Grigoryans N.A., Saidakbarova T., Fayziyeva Z.SH. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'llimi. O'XTV, A.Avloniy nomidagi XTRXMOI, Yunisev, T. 2005

3. Litvak. A.G Tiflopsixologiya-M. 1985.
4. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari .-T..1991
5. Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika T., G'ofur G'ulom, 2004
6. »Ta'lif xamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari O'RXTV, Yunisef, RTM, T., 2005
- 7.Ture Yonson. Inklyuziv ta'lif.- BMT Rivojlantirish dasturi. T.,2003

4bob Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar.

4.1. Oligofren bolalar.

Reja

- 1.Oligofreniya nuqsonining ta'rifi
- 2.Oligofreniyaning darajalari
- 3.Debil bolalarning rivojlanishi xususiyatlari
- 4.Imbetsil bolalar rivojlanishi xususiyatlari
- 5.Oligofren bolalar ta'lif-tarbiyası

Oligofreniya yunoncha oligos — kam, oz fren — aql so‘zlaridan olingen bo‘lib, esi past, aqli past demakdir. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi va bu nuqsonlar umrbod saqlanib qolish bilan boshqa anomal bolalardan farq qildilar.

Amaliyotda "aqlan zaif", "oligofren", "demensiya" degan atamalar ko‘p ishlataladi. "Aqlan zaiflik" — bu yig‘ma tushuncha bo‘lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo‘lgan vaqt, boshidan kechirilgan kasallikning harakteri, patologik o‘zgarishlarning o‘tishi, darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutadi.

Aqliy qoloqlikni belgilashda klinik, psixologik va pedagogik mezonlarni tafovut qilmoq kerak. Klinik mezon — aqliy qoloqlik va bu markaziy nerv sistemasining qanday organik kasalliklariga aloqadorligini, psixologik mezon-bilish faoliyatining turg‘un buziqliganligini; pedagogik mezon — o‘zlashtirish qobiliyati past bo‘lib, bolaning dastur materiallarini o‘zlashtira olmasligini ifodalaydi.

Oligofreniya bola markaziy nerv sistemasining ona qormidaligi davrida, tug‘ilish vaqtida va tug‘ilgandan to uch yoshgacha bo‘lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi

natijasida kelib chiqadi. Agarda, turli sabablarga ko'ra, aqlan zaiflik bolaning uch yoshidan keyingi davrida paydo bo'lsa, buni endi orttirilgan aqliy zaiflik - demensiya deb yuritiladi. Demensiya progressiv, ya'ni tabiatan kuchayib boradigan bo'ladi. Oligofreniyada esa nuqsonning kuchayib borishi kuzatilmaydi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra oligofreniya tug'ma, hamda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Rezus faktorning to'g'ri kelmasligi, xromosom kasalliklari, fenilketonuriya va shu kabilar tug'ma oligofreniyaga olib kelishi mumkin.

Masalan, oligofreniyaning, Daun kasalligi deb ataladigan bir turli xromosomalar nisbatining buzilishi natijasida 46 ta yoki 23 juft xromosoma o'miga bitta ortiqcha xromosomaning vujudga kelish natijasida paydo bo'ladi. Shunisi qiziqliki, irlsiy hujayralardagi patologik o'zgarishlar Daun kasalligi bilan kasallangan barcha oligofren bolalarning tashqi ko'rinishini bir xil qilib qo'yadi. Ular kam harakat, beso'naqay, ko'zlar qisiq, burni puchuq, tili katta, lablari qalin, shalrang quloiq, barmoqlari kalta bo'ladi va hokazo. Millatidan qat'i nazar, ular bir ota-onaning bolasiga o'xshab ketishadi.

Onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar — og'ir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizmidagi turli parazitlarning

homilaga yuqishi, xomilaning shikastlanishi, ota-onalarning alkogolizmi, ham oligofreniyaga sabab bo'lishi mumkin.

Fransuz olimlari alkogolizmga giriftor oilalarda tug'ilgan 57 nafar bolani uzoq muddat kuzatib borib, ularning 25 nafari 1 yoshga to'imasdan nobud bo'lganini, 5 nafari tutqanoq — 5 — nafari gidrotsefaliya (bosh miyada istisnosi) kasalligi bilan og'riganini, 12 nafari aqlan zaif bo'lgani va faqat 10 nafar bola sog'lom chiqqanini aniqlagan.

Tug'ruq vaqtida bolaning ombur yoki vakuum ekstraktor bilan olinishi, bola boshining siqilishi, bolaning tug'ilish yo'lidan uzoq o'tishi, cho'zilib ketgan yoki, aksincha, haddan tashqari tez o'tgan tug'ruq natijasida ham markaziy nerv sistemasi shikastlanib, oligofreniya paydo bo'lishi mumkin.

Oligofreniya bola uch yoshgacha bo'lgan davr ichida turli xil og'ir kasalliklar bilan kasallanishi (meningit, meningoensefalist, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi) natijasida ham vujudga keladi.

Aqliy (intellektual) rivojlanishiga ko'ra oligofreniya uch darajada namoyon bo'ladi: 1) debillik; 2) imbetsillik; 3) idiota. Debillik — aql pastlik oligofrenianing eng yengil darajasi bo'lib, bunday bolalarni tashqi ko'rinishiga qarab sog'lom tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Ular ko'pincha o'qishni ommaviy maktabning birinchi sinfigan boshlaydilar-u, lekin qisqa muddat ichida ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qoladilar. Umuman, zehn va fahm-farosatga bog'liq ishlarda debil bolalar ancha qiymaladi, biroq ular yordamchi maktabga o'tib, dasturini o'zlashtirib chiqishsa, sanoat va hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, maishiy hizmat sohasida oddiy turdag'i mehnat bilan shug'ullana oladi. Tarbiyachi va o'qituvchilar debil bolalarni boshqa bolalardan ajratib olib, ularning maxsus bog'cha va maktablarda tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlashlari yoki integratsiyalashgan ta'limga jaib etishlari lozim. Imbetsil va idiot bolalar xattoki yordamchi mактаб dasturi bo'yicha ham ta'lim olish qurbiga qodir emaslar. Ular ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi bolalar internatlarida tarbiyalanadilar. Ammo umumiyy rivojlanishida kamroq orqada qolgan imbetsil bolalar, afsuski, yordamchi mактablarda goho uchrab turishadi. Ular yordamchi mактab dasturini o'zlashtira olmaydilar. Idiot bolalar hattoki o'z ota-onalarini ham tanimaydi. Ular o'zini-o'zi uddalay olmaydi. O'ziga-o'zi xizmat ham qila olmaydi. Imbetsil bolalar idiot bolalarga qaraganda nisbatan tuzukroq rivojlangan bo'lsa ham, mustaqil hayot kechirolmaydi. Mexnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qoshidagi muassasalarda ularga sodda bilimlar, mehnatning ayrim sodda turlari (o'z-o'ziga xizmat qilish, ekinlarni parvarish etish, kartondan qutichalar yasash va h. k.) o'rgatiladi.

Oligofrenianing uchala darajasida ham tarbiyachi va o'qituvchilar oligofren o'quvchilarni sog'lom tengdoshlarini hamda o'xshash tarzdagi boshqa kamchiliklari bor bolalardan ajrata olishlari lozim. Lekin oligofrenianing eng yengil darajasini — debillikni boshqa o'xshash anomaliyalardan va sog'lom bolalardan ajratib olish amalda ancha kiyin bo'ladi.

Debil bolalar o'z sog'lom tengdoshlaridan yoshligidanoq farq qiladi. Ularda, odatda, ixtiyoriy shakldagi murakkab harakatlar uncha rivojlanmagan bo'ladi. Ular boshini tutish, o'tirish, yurishga kechroq o'rganadi, nutqi kechikib rivojlanadi. Debil bolalar atrofdagilarning sodda nutqini tushunadi-yu, lekin murakkab so'z va gaplarni, iboralarini fahmlay olmaydilar. Debil bola nutqida qo'pol, uni tushunib bo'lmaydigan nuqsonlar kuzatilmasa

ham, ko'p tovushlar noto'g'ri talaffuz etiladi, bunday bola lug'ati kambag'al, chegaral bo'ladi. Debil bolalar o'yin faoliyatida ham tengdoshlaridan ajralib turadi. Ular vaziyatini yetarli darajada tushunmaydi, o'yin vaqtida sog'lom tengdoshlariga to'liq bo'ysunib, ikkinchi darajali rollarni bajaradi, xolos. Debil bolalar uchun bir qator farosat yetishmasligi harakterlidir. Ularning kuzatish, taqqoslash, idrok qilayoqgan narsalarning, voqeа-hodisalarining muhim tomonlarini ajratib ko'rsatish, bular o'rtasidagi eng oddiy sabab-natija bog'lanishlarini fahmlab olish qobiliyatları rivojlanmay qoladi. Debil bolalning tafakkuri, dikkati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatları ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Savod o'rgatishning dastlabki davridayoq bu bola tovush va harflar o'rtasidagi bog'lanishlarining farqiga yaxshi bormay harflarni eslab qolish, bo'g'inlab o'qish, tez ravon o'qish malakalarini o'zlashtirishda qiynaladilar, juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar.

Debil bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklar matematika darslarda ayniqsa yakqol namoyon bo'ladi, negaki, eng oddiy hisoblash amallari ham abstrakt hisoblashni talab etadi. Debil bolalar tartib sonlarni o'zlashtira oladilar, lekin qo'shish va ayrish, teskari sanash, eng oddiy masalalarni, misollarni yechishda juda qiynaladilar. Ular misolni mohiyatini, masalaning mazmunini va raqamli ma'lumotlarni tushunolmaydilar.

Nerv jarayonlari muvozanati, bilish faoliyatining buzilganligi natijasida oligofren hulq-atvorida ham bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Qo'zg' alish va tormozlanish o'rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim oligofren bolalar haddan tashqari jonsarak, serharakat, shox bo'ladilar va tormozlanish jarayoni ustun turgan bolalarda esa, aksincha, passivlik, bo'shanglik, beparvolik, hech narsaga qiziqmaslik kuzatiladi va hokazo.

Oligofren bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilaro, hatti-harakatlarni vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lif-tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi mehnat mакtabalarida ta'lif-tarbiya olib chiqqan debil bolalar hayotda o'z o'mini topib, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida, maishiy hizmat sohasida faol mehnat qilib

yashanloqdalar Tarbiyachi va o'qituvchilarning muhim vazifasi oligofren bolalarni boshqa anomal bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lif-tarbiya olishlarini ta'minlab berishadi.

ADABIYOT

- 1 Aytmetova S.SH Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari-T. O'qituvchi 1984
2. Aytmetova S.SH Oligofrenopedagogika-T. 1994
3. Gavrilushkina O.P, Sokolova N.D Vospitaniye i obucheniye umstvenno otstalix doshkolnikov. -M, 1985
4. Vayzman N.P Psixologiya umstvenno otstalix detey-M 1997.
5. Po'latova F. Oligofrenopedagogika. - T. 2006
6. Petrova V.G.,Belyakova I.YU. Psixologiya umstvenno otstalix detey.-M.,2000
7. Zabramnaya S.D Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika umstvenno otstalogo. Razvitiya detey M , 1995
8. Zamskiy X.S. Umstvenno otstaliye deti. Istorya ix izucheniya, vospitaniya i obucheniya s drevnih vremen do seredini XX v. M , 1995.
9. Katayeva A.A. Strebleva YE.A Didakticheskiye igri i uprajneniya v obucheni umstvenno otstalix doshkolnikov. Kniga dlya uchitelya M. 1993
10. Raxmonova V.S Maxsus pedagogika. - T.,2004

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Oligofren bolalar deb qanday bolalarni aytamiz?
2. Oligofrenianing kelib chiqish sabablari nimada?
3. Oligofrenianing darajalarini aytib uting?
4. Debil bolalarning rivojlanish xususiyatlarini ta'riflab bering.
5. Aqlan zaif bolalarga qanday bolalar kiradi?
6. Aqlan zaif , oligofren bolalar qayerda ta'lif-tarbiya olishlari kerak?

4.2.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar

Reja

- 1.R.R.S.bolalarning boshqa aloxida yordamga muxtoj bolalardan farqi.
- 2.Kliniko-psixologik belgilariga ko'ra R.R.S.bolalar xillari

3.Ruxiy rivojlanishdagi sustlikning kelib chiqish sabablari.

4.R.R.S.bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limning tashqisi etilishi.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati- intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi,ixtiyoriy diqqati ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Yegorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, B.B.Shoumarov, N.A.Sipina, R.D.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruhga bo'linadi:

1. Yengil nuqsoni bor bolalar – bular maxsus sharoitda 1- 3 yil ta'lim- tarbiya o'lganlaridan keyin o'qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.

2. Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'rtacha o'quvchining saviyasini orqaga tortadi, yaxshi va a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yetarli darajada o'stirishga to'sqinlik qiladi.

Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmaganligi tufayli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar doim muvaffaqiyatsizliklarga uchrayveradi, bu narsa ularning hulq-atvorida aksariyat turli salbiy xislatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi hillarga bo'lishni tavsiya etadilar: 1) konstitutsional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4)serebral shakli.

Ruhan sust rivojlanganlikning konstitutsional shaklini harakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarinikiga nisbatan 1- 2 yosh

uchik ko'rinadi U o'zini bog'cha yoshidagilarga o'xshab tutadi va ta'lif olish uchun halil "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi konstitutsion shakldagi bunday bolada ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytildi. Bolada surunkali infeksiyalar, allergik holat tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turadi. Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sib-unmagan, go'dak taxlit bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari ruhan rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan bo'ladi. Shu xildagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini 3 guruhta bo'lish mumkin:

1. Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish, bunda bojalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda yetishmasligi ustiga o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo'shiladi.

2. Bolani har tomonlama erkalatish, yetarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, tashabbuskorlik, mas'uliyat xissini shakllantirmaslik bolani «oila erkasi» qilib o'stirish, haddan tashqari uning ko'ngliga qarab ish tutish natijasida ham bola ruhiy rivojlanishida bir qadar orqada qolishi mumkin.

3. Bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, jismoniy jazolash, qattiq qilish, ota-onalarning alkogolizmga aloqador tajovvuzkorona munosabatlari mudom asabiylashtirib, ruhan rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi. Bunday bolalarda qropollik, jur'atsizlik, tashabbussizlik, mustaqilsizlik, qo'rkoqlik va hislatlar shakllanadi. Bularning hammasi aql-idrokiga, bilish faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aqil-idrok bilish faoliyatini aloqador-kamchiliklarga aksati noto'g'ri tarbiya natijasida paydo bo'lgan hislatlar ham qo'shilib pirovard natijasida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik hislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalarni pedagogik qarovsiz bolalardan ajratish olib lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar. Xolbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning har tomonlama noto'g'ri rivojlanishi markaziy nerv sistemasidagi yengil darajadagi organik jarohatlanish bilan bogliq.

Ruhan sust rivojlanganlikning eng murakkab va keng tarqalgan psixogen shaklida bosh miyaning kasalligiga, yaxshi yetilmaganiga aloqador o'zgarishlar kuzatiladi. Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga kura bunday bolalarning 50 foizida nerv sistemasida organik nuqsonlar bo'ladi. Bu narsa ularning his-tuyg'u, irodaviy holatlari taraqqiy etmaganligiga, asosan organik infantilizm tarzida namoyon bo'ladi. Miyaga aloqador organik infantilizmni ikkiga bo'lishi mumkin:

1. Kayfi-ruxiyati o'zgarib, aksari, ko'tarinki ruhda bolalar, ularda o'zlaridan yosh bolalarga xos hislatlar saqlangan bo'ladi.
2. Kuproq kayfiyati past bo'lib mayus tortib yuradigan bolalar, ularda vazifani mustaqil hal qila olmaslik, tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari ko'rildi.

Miyaga aloqador organik harakterdagi yana shu ikki xil infantilizm holatlarda qator qo'shimcha hodisalar bilan birga davom etadi. Bularga quyidagilarni kiradi:

1. Serebral-endokrin infantilizm. Bunda asosan ichki sekretsiya bezlari faoliyat buzilgan bo'ladi. Natijada bolalarda his-tuyg'ular yaxshi rivojlanmay nevropatiy

~~holatlari~~ yuzaga keladi. Bolaning uyqusi, ishtahasi yaxshi bo'lmaydi, dispespsiya holatlariga moyillik paydo bo'ladi.

2. Serebrastenik holatlar, bular ham tez-tez uchrab turadi. Markaziy nerv stemasi tez charchaydi, neyrodinamik o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada aqliy qobiliyati susayib, xotira pasayadi, diqqati tarqoq bo'lib qoladi, tez ta'sirlanish, qiz bolalarda yig'loqilik, o'g'il bolalarda xaddan tashqari qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi, bola ish qibiliyati past, arzimagan narsaga tez charchaydigan bo'lib qoladi.

3. Tabiatan nevrozga yaqin holatlar, bular qorong'udan, yakkalikdan qo'rqish, o'zi va atrofdagilar sog'lig'i uchun xavfsirash, giperkinezlar, duduqjanish, enurez, kabi hodisalar bilan birga ifodalanadi.

4. Psixomotor qo'zg'aluvchanlik – asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Serharakatlik, diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish bunga harakterlidir.

5. Affektiv o'zgarishlar – kayfu-ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lish bilan harakterlanadi.

6. Psixopatik o'zgarishlar – aqliy faoliyatga rag'bat pastligi, o'qishga salbiy munosabatda bo'lish, o'g'rilik qilish(kleptomaniya), ko'proq yolg'on gapirish kabi salbiy xislatlarni o'z ichiga oladi.

7. Epileptik buzilishlar – har xil ko'rinishlarda tutqanoq tutib turishi bilan namoyon bo'ladi.

8. Apatik-adinamik buzilishlar – tashabbuskorlik pasayishi, aqliy faoliyat sustligi, xaddan tashqari emotsiyonal bo'shanglik bilan harakterlanadi.

Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensefalist, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar. Ruhan rivojlanish kamchiliklarining ba'zi bir shakllarida bolalarni vaqt-vaqt bilan maxsus psixonevrologik sanatoriylarda davolash foydalidir. Sanatoriyada bola kollektiv ishiga asta-sekinlik bilan jaib etiladi. Unda charchash alomatlari paydo bo'lganda, u o'quv mashg'ulotlaridan vaqtincha ozod etiladi yoki unga soddarоq boshqa vazifalar beriladi. Sanatoriyada davolaniб kelgандан

so'ng bola o'qishni o'z mактабида давом ettiraveradi. Ruhiy rivojlanishi sustlash bolalar uchun mamlakatimizda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari internat, kuni uzaytirilgan maktablarda tenglashtirish sinflari tashkil etilgan. Ushbu masala ta'lif umumta'lif oddiy bog'cha yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan muloyim davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolaga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o'smirlar gigiyenasi instituti xodimlari, jumladan N.P.Vayzman va boshqa olimlarning o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish jihatidan olganda sog'lom va debil bolalar o'rtasida oraliq o'rinda turadi. Bu olimlar tekshirish vaqtida debil va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlarni berib ko'radilar, shunda normal sog'lom bolalar berilgan vazifani to'g'ri tushunib, uni kerakli tartibda bajargan bo'lsalar, debil bolalar vazifani tushunmay, bajara olmaydilar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani qisman tushunib, qisman bajarishadi. Demak, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqli zaif, debil bolalarga nisbatan ancha yaxshi tushunadi va bularni bajarish uchun ularda kerakli imkoniyatlar mayjud bo'ladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o'zlashtirish qobiliyati sog'lom tengqurlariga nisbatan past bo'lsa-da, debil bolalarnikidan ancha durust bo'lganligi uchun bunday bolalarni yordamchi maktabga yuborish noto'g'ri, chunki ushbu maktab dasturi ular uchun soddalik qiladi. Ommaviy maktab esa bola uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratib (maxsus sinf-tenglashtiruvchi sinf olib) o'z dasturini o'lashtirishini ta'minlash uchun maxsus yordam ko'rsatishi lozim.

Bog'cha tarbiyachilar va boshlang'ich maktab o'qituvchilar ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning maxsus sharoitda ta'lif-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak, ularni o'z vaqtida aniqlab, boshqa bolalardan ajratib olib, ota-onalarga mutaxassis psixonevrologlarga murojaat qilishga maslahat berishlari lozim. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan inklyuziv me'yorda rivojlangan, sog'lom

tengdoshlari orasida yoki maxsus muassasa larda davolab, himoya etish va ruhiy olyatni rostlashni ko'zlab alohida ta'lif-tarbiya ishlari olib boriladi.

O'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan yordam tufayli ushbu toifadagi aloxida yordamga muxtoj bolalar keyinchalik yaxshi rivojlanib ketib, maktabni bitirgach olyi o'quv yurtlarida xam muvaffaqiyatlari ta'lif oladilar.

ADABIYOT

1. Deti s zaderjkoy psicheskogo razvitiya. T.A.Vlasova, N.A.Sipina tahriri ostida. M., 1984
2. Maorif vazirligining «Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlar ochish» to'g'risidagi 1981 yil 3 iyul qarori.
3. K.S.Lebedinskaya, G.P.Bartzin, M.T.Dunayeva. Aktualniye problemi diagnostiki zaderjki psicheskogo razvitiya detey. M., Pedagogika, 1982
4. S.D.Zabramnaya. Otbor umtvenno otstalix detey v spetsialniye uchrejdeniya. M., Prosvesheniye, 1988
5. G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, 1987
6. K.K.Mamedov, G.B.Shoumarov, V.P.Podobed. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T., 1999

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. R.R.S.bolalar boshqa anomal bolalardan nima bilan farq qiladi?
2. R.R.S.bolalar qaysi guruxlari mavjud?
3. Ruxiy rivojlanishdagi sustlik nimadan kelib chiqadi?
4. R.R.S.bolalar qayerda ta'lif olishlari kerak va nima uchun?

5 bob. HARAkat – TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN VA

MUJASSAM NUQSONLI BOLALAR.

5.1. HARAkat-TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN

5.2. BOLALAR

Reja

1. Harakat-tayanch a'zolari buzilgan bolalarning boshqa toifadagi anomal bolalardan farq.
2. Ushbu bolalardagi nuqsonning kelib chiqish sabablari.
3. Bolalar cerebral falaji
4. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondoshgan holda olib boriladigan korreksion ishlar
5. Xarakat – tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari.

Har qanday ota-onada o'z oilasida sog'lom farzandni, jismonan baquvvat, ruhan tetik, fikrlash qobiliyati sog'lom, iymon-e'tiqoldi butun, bilimli, ma'nviyati yuksak, mard va jasur, har tomonlama kamol topishini istaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillardanoq respublikamizda sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. «Barkamol» avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu masalaga ustivor vazifa deb qaralmoqda. Mustaqil Vatanimizning birinchi ordeni «Sog'lom avlod uchun» deb atalgan, «Sog'lom avlod uchun» halqaro xayriya jamg'rmasining tuzilganligi. 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni «Ona va bola yili» deb e'lo qilinganligi fikrimizning dalilidir. Prezidentimiz tomonidan «Sog'lom avlod» ruknidagi, maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish, ularni sog'lom kishilar qatoriga qo'shish, ijtimoiy, moddiy jihatdan himoyalash, mehnatga, ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalariga doir qator qarorlar, xujjatlar chiqarilmoqda, qabul qilinmoqda.

Respublikamizda so'nggi paytlarda bolalarmining sog'lom tug'ilishini ta'minlash, anomaliyalarning oldini olish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari ustida talaygina ishlr olib borilmoqda. Bu masalani tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida onaning xomiladorlik davridan boshlab to bola voyaga yetgunga qadar uning rivojlanishi tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilar, psixolog, defektologlar tomonidan nazorat qilinib, »Sog'lom avlod» dasturini to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda, tashkil etilmoqda. Natijada, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar ham aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatilmoqda. Harakat-

tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchilingga nogironlar aravachalari olib berilganligi sababli, ular bog'cha va maktablarga qatnay boshladilar.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar cerebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), harakat-tayanch a'zolarining turli to'g'ma va orttirilgan deformatsiyasi – artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruxligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya – tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklri o'sishining orqada qolishi, miopatiya – mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaydi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligidagi miya falaji kuzatiladi. Bolalar cerebral falaj kasalligi hali yetilmagan, shakllanib bo'lmanan miyaning kasalligidir. Onaning xomiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolani kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit yetilishi kechikadi va buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi. Kishi organizmining asosiy funksiyalari – nafas olish, qon aylanish, yutunish, tana harakati, nutqiy harakatlar va boshqalar harakat orqali – mushaklarning qisqarish natijasida sodir etiladi. Harakatlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Aniq maqsadni ko'zlab bajarilgan ixtiyoriy harakatlar inson xatti-harakati, xissiy-irodaviy qobiliyati, bilish faoliyatini, hulqining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Kasallikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan harakat buzulishlari bolalar cerebral falajida har xil namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda bolalar miya falajining quyidagi shakllari qayd qilingan: spastik diplegiya, spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemiplegiya, paraplegiya, monoplegiya, atonik-astatik sindrom. Bolalar miya falajining eng keng tarqalgan shakli spastik diplegiya. Bu shakldagi kasallik qo'l va oyoq harakatlarining buzilishi bilan harakterlanadi. Bunda ayniqsa oyoq qo'lga nisbatan ko'proq jarohatlangan bo'ladi. Qo'l oyoqlarmin erkin harakatini chegaralanishi yoki butunlay harakatsizlanishi mushaklarning kuchsizlanishi bilan birga kechadi. Bola

qo'llarini tepaga ko'tarishga qiynaladi yoki umuman ko'tara olmaydi, oldinga, chetga uzata olmaydi, oyoqlarni bukolmaydi, yozolmaydi. Har qanday harakat sodir bo'lishi uchun mushak tonusi normal bo'lishi shart. Bolalar serebral falajida mushak tonusi juda baland bo'ladi, natijada bola o'ziga xos holatni qabul qiladi: tizzadan bukilgan oyoq barmoqlarga tiraladi, tirsaklar bukilib, qo'llar tanaga yopishganday bo'ladi; qo'l barmoklari bukilib, mushtlar hosil qiladi. Shartsiz majburiy harakat giperkinezlar shartli harakatlarni bajarilishini keskin qiyinlashtiradi yoki mutlaqo bajara olmasligiga olib keladi. Muvozanat harakatning buzilishi o'tirish, turish, yurishni qiyinlashtiradi yoki butunlay bajara olmaydigan holatga olib keladi. Kinesteziya – tana yoki tana qismlari harakatini sezish demakdir. Kinesteziya maxsus sezuvchi to'qimalar – proprioretseptorlar orqali sodir bo'ladi. Bu to'qimalar mushak, pay, bo'g'imlarda joylashgan bo'ladi. Ular oliy nerv sistemasiga tana, qo'l, oyoqlarning xolati haqida, mushaklarning qiskarishi haqida ma'lumot beradi.

Spastik diplegiya shaklidagi bolalar miya falaji bilan kasallangan bolalar intellekti, fikrlash qobiliyat yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ular umumta'lim maktablari dasturini a'lo baholar bilan o'zlashtira olishlari mumkin. Biroq bunday bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari ular uchun maxsus yordamni tashkil etilishini talab etadi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun O'zbekistonda maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun bog'cha va mакtab yoshidagi bolalar uchun maxsus mакtab internatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim bolalar umumta'lim ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va mакtabda integratsiyalashgan inklyuziv ta'limga jalb etilmoqda. Maxsus muassasalarda barcha ta'lim-tarbiya ishlari korreksion yo'nalishda amalga oshiriladi. Ko'proq harakat funksiyalarini korreksiyalashga e'tibor beriladi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan maxsus muassasalarda harakat funksiyasini korreksiyalash ishlari kompleks tarzda, ya'ni bolaga har tomonlhma ta'sir o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunga tibbiy dori-darmonlar bilan davolash, fizioterapevtik, ortopedik, uqalash-massaj, davolovchi gimnastika, jismoniy tarbiya, mehnatga o'rgatish ishlari kiradi.

Tibbiy dori-darmonlar bilan davolash ishlari mushak tonusini pasaytirish, giperkinez-majburiy harakatlarni kamaytirish, asab sistemasidagi kompensator jarayonining faolligini kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Fizioterapevtik muolajalar mushak tonusini pasaytirishga, mushaklardagi qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ortopedik tadbirlar harakat-tayanch a'zolari, bo'yin, gavda harakatini yaxshilash, kerak bo'lsa ortopedik moslamalardan foydalananishni, har bir bola shaxsiy ortopedik rejimiga rioya qilishga o'rgatishga qaratiladi.

Mushakdagi giperkinezlar bolaning nafaqat umumiy, balki nutqiy motorikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq apparatining kam harakatlanishi (til, lab, jag', un psychalari, kichik til harakati buziladi) nutqning fonetik tomondan buzilishiga, ya'ni tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga olib keladi. Mushaklardagi giperkinezlar dizartriya yoki anartriya kabi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Diafragma, qovurg'a orasidagi mushaklar giperkinezi nutqiy nafas olishni, un psychalarining tebranishi, nutq maromini buzilishiga olib keladi. Nisbatan ko'proq uchraydigan dizartrianing psevdobulbar shaklida artikulyatsion tonus baland bo'ladi. Lab, til, kichik til, pastki jag', un psychalari harakatchanligi buziladi va natijada tovushlar talaffuzi, ovoz, nutq sur'ati nuqsonlari kuzatiladi. So'lak bezlari atrofidagi mushaklar qisqarmaganligi tufayli bola so'lagi oqib turadi. Bunday bola yaxshi chaynay olmaydi, yutolmaydi. Dizartrik bolaning nutqi noaniq, chuchmal, xirillagan, monoton bo'ladi. Dizartriya qanchalik barvaqt aniqlansa, uni bartaraf etish, korreksiyalash ham shunchalik oson bo'ladi. Uzoq muddat ichida sabr-toqat bilan olib borilgan logopedik ishiar natijasida yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkin.

Nutq apparatining innervatsiyasiga bevosita bog'liq bo'lgan kalla suyak nervlarining jarohatlari ko'p hollarda ko'z harakati nervlarining jarohatlanishi bilan birga kuzatiladi. Natijada bola g'ilay, ko'zi olaygan, ko'z harakati buziladi. Bolalar o'z qo'z harakatlarini bir maromda bajara olmaydilar, mo'ljalga nigoh tashlay olmaydilar. Bunday kamchiliklar logopedik ishni to'g'ri olib borishga to'sqinlik qiladi. Bola artikulyatsion apparat a'zolari harakatini kuzata olmaydi, rasmga qarab ishlash, o'qish va yozishni o'zlashtirishda qiynaladilar.

Mediko-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar inklyuziv ta'limga olishga yoki maxsus mактабгача yoshdagи bolalar muassasasiga mактаб-internatlarga yuboriladi. Bu muassasalarga o'zлари aravachada yura oladigan, o'zgalarining qaroviga muhtoj bo'limagan bolalar qabul qilinadi. Sog'liqlarini tiklagach tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan o'quvchilarni umumta'limga bog'cha yoki mактабга o'tkaziladi. Maxsus mактаб-internat pedagogik kengashi bitiruvchilariga ishga joylashish uchun tavsiyanoma beradi. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar I – II guruh nogironlari hisoblanib, ularning ishga joylashtirish ijtimoiy ta'minot bo'limlariga topshiriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Harakat-tayanch a'zolari buzilgan bolalar boshqa toifadagi anomal bolalardan nima bilan farq qiladilar?
2. Ushbu bolalardagi nuqson nimadan kelib chiqadi?
3. Bolalar cerebral falaji deganda nimanji tushunasiz?
4. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondoshgan holda qanday korreksion ishlari amalga oshiriladi?
5. Xarakat – tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar qayerda ta'limga olishlari kerak?

5.2. MUJASSAM NUQSONLI BOLALAR, ULARNING TA'RIFI

Reja

1. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar anomal bolalar toifasidan bir sifatida
2. Bolaning harakat-tayanch a'zolari jarohatlanishining sabablari.
3. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan olib boriladigan ta'limga tarbiya ishlaringning o'ziga xosligi
4. Xarakat-tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limga tashkil etish.

Dunyodagi 500 million aholining 10 foizi nogironlardir. Shular jumlasiga mujassam nuqsonli anomal bolalar ham kiradi. Mujassam nuqsonli anomal bolalarda bir necha nuqson birgalikda kuzatiladi., Ular kompleksli nuqsonli bolalar kategoriyasi deb

ham nomlanadi. Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, nogironlikni oldini olish, ekologik muvozanatni yanada barqarorlashtirish yuzasidan mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi kunidanoq muayyan amaliy ishlar olib borilmogda. Respublikada kasal bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi 1000 aholiga nisbatan 1991 yildagi 34,5 dan 2000 yildag 21,4 ga kamaydi. Demak hali ham bu borada ko'pgina ishlar olib borilishi lozim. Ayollar, ayniqsa, qizlar orasida uchraydigan chekish, spirtli ichimliklar ichish, narkotik moddalar is'temol qilish, shifokor maslahatisiz dori-darmon qabul qilinishi, ekologik muammolar va boshqa holatlar nogiron bo'lalar tug'ilishiga sabab bo'layotgani va uning oldini olish borasida ko'proq balog'at yoshidagi yigit-qizlar orasida tushuntirish ishlari keng tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Olimlar tomonidan aniqlangan 400 dan ortiq dori-darmonlar homila rivojlanishiga (dastlabki 1-2 oydar) salbiy ta'sir etar ekan.

Mujassam nuqsonli maxsus yordamga muhtoj toifasiga kar-ko'r-soqov bolalar, kar va aqlan zaif, ko'r va oligofren, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan va ko'r yoki aqlan zaif va h.k. kiradilar. Oxirgi yillarda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar soni ancha kamaydi. Oftalmologik yutuqlar, erta diagnostikaning yangi usullarini ko'llanishi, ko'rish organlari kasalliklarini davolash va korreksiya qilish natijasida maxsus maktab o'quvchilarining kontingenti sezilarli darajada o'zgardi. Ko'r bolalar nisbatan kamaydi, ammo zaif ko'ruvchi bolalar soni ko'paydi. Ularning orasida maktab dasturini o'zlashtira olmaydigan bolalar yaqqol ko'rina boshlandi. Kompleks, ya'ni har tomonlama tekshirish, o'rganish natijasida ularning ko'rish qobiliyatini buzilishi bilan birga oligofreniya tipidagi aqli zaiflik ham mavjudligi aniqlandi. Zaif ko'ruvchi va aqli zaif bo'lgan bolalarни o'qitish va tarbiyalash ancha murakkab va o'ziga xosdir. Odatda zaif ko'ruvchilardan ayrimlari va ko'r bolalar «Bray» sistemasi bo'yicha o'qish va yozishni o'rganadilar. To'g'ri tashkil etilgan ta'lif natijasida ko'r bolalar nuqta-relyefli shriftni tez o'rganib oladilar. Aqli zaif ko'rlarda bu jarayon ancha sekin kechadi, uncha samarali bo'lmaydi. Bunga bir necha sabablar mavjud. Markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida aqli zaif ko'r bolaning kompensator imkoniyatlari sustlashgan bo'ladi. Maxsus tashkil etilgan ishlar tufayligina eshitish analizatorlari kompensator faoliyatni bajara boshlaydilar. Aqli zaif o'quvchilarning tafakkur,

tasavvur, nutqi, fikrlash qobiliyatini o'stirishda yordamchi mакtabda ko'rgazmali quollardan keng foydalaniladi. Ko'rlar maktabida bu borada ko'proq nutq, so'zga, maxsus tiflografik ko'rgazmali kurollarga asoslangan holda ish tashkil etilsa, aqli zaif ko'r bolalar bilan boshqacha ishlarni uyuştirish lozim bo'ladi. Ikkala holatda ham birinchi navbatda bolaning abstrakt tafakkuri yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Aqli zaif bolalarning esa bilish faoliyati turg'un buzilgan bo'ladi. Aqlan va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasiga maxsus yondoshgan holda, maxsus yaratilgan tizim asosida o'qitish va tarbiyalash lozim.

Mujassam nuqsonli bolalardan eshitish qobiliyati va aqli zaif bolalar birinchi bo'lib o'rganiłgan edi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda ikkilamchi hodisa sifatida aqlan zaiflik kuzatilib boriladi. Natijada intellekti sog'iom, eshitish qobiliyati zaif bolalarni aqli zaif eshitish qobiliyati zaif bolalardan amalda ajratish ancha mushkul. Ayniqsa ilk yoshdagi bolalarda. Hozirgi kunda ular uchun differensial-diagnostik mezonlar ishlab chiqilgan. Aqli va eshitish qobiliyati zaif bolalar karlar yoki zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarining yordamchi sinflarida yordamchi maktab dasturi bo'yicha ta'lim oladilar. Yordamchi sinflar ko'riar va zaif ko'rvuchi bolalar maktab-internatlarda ham mavjud. Mujassam nuqsonli bolalar toifasiga ko'r-kar-soqov bolalar xam kiradi. Bu toifadagi bolalar nuqsoni ancha murakkab. Kar-ko'r-soqov bolalar tevarak atrofdan informatsiya olish imkoniyatidan mahrum bo'lganligi tufayli aqlan rivojlanmaydi. Biroq maxsus tashkil etilgan yordam tufayli bu bolalar tuliq intellektual rivojlanish imkoniyatiga egadirlar. Ularga barcha murakkab muloqot turlari yaratiladi, nutqi o'stiriladi va ular barkamol nutqdan tortib to so'z nutqigacha egallay oladilar. Bu esa ularni o'rta maktab dasturini egallab, xatto oliv o'quv yurtlarini muvaffaqiyatli bitirishga imkon beradi. Bunga Olga Ivanovna Skoroxodovaning hayoti va ijodini misol qilib keltirishimiz mumkin. Kar-ko'r-soqov qizchani mashhur defektolog Sekolyanskiy I.A. o'zi rahbarlik qilgan maktab-klinikada o'qitib, tarbiyalagan. Oliy o'quv yurtini tugatib, O.Skoroxodova butun hayotini korreksion pedagogikaga bag'ishladi. U Korreksion pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, ko'pgina ilmiy maqola, she'rlar to'plami muallifi. Ayniqsa u yaratgan noyob kitoblar «Kak ya vosprinimayu okrujayuhiy mir»(1947), «Kak ya vosprinimayu i predstavlyayu

okruijayuhiy mir»(1956), «Kak ya vosprinimayu, predstavlyayu i i ponimayu okruijayuhiy mir»(1972) ko'pgina tillarga tarjima qilindi. Moskva viloyatining Zagors shahrida kar-ko'r-soqov bolalar bilan olib boriladigan ishlar tizimi takomillashtirildi. Ushbu maktab-internat o'z faoliyatini davom ettirmoqda va ko'pgina kar-ko'r-soqov bolalarga mustaqil hayotda o'z o'mini topib ketishga yordam bermoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar nima uchun anomal bolalar kategoriyasidan biri sifatida o'rganiladi?
2. Nima uchun bolaning harakat-tayanch a'zolari jarohatlanadi?
3. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan olib boriladigan ta'limgarbiya ishlarining o'ziga xosligi nimada?
- ✓ 4. Mujassam nuqsonli bolalar kategoriyasi boshqa anomal bolalardan nimasi bilan farq qiladi?

ADABIYOT

1. Defektologicheskiy slovar. M., Pedagogika, 1970
2. Oilada serebral falaj bo'lgan ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. RTM, T., 1998
- R.Shomaxmudova., G.A.Sodiqova , Fayziyeva U.YU
3. Shipissyna L.M.Zashyeujnskaya O.V i dr. Azbuka obshyeniya SPb. 1998..
4. V.A.Lapshin, B.P.Puzanov. Osnovi defektologii. M., Prosvesheniye, 1990
5. A.I.Mesheryakov. Slepogluxonemiye deti. M.,1974
6. K.A.Semyonova, M.M.Maxmudova. Meditsinskaya reabilitatsiya i sotsialnaya adaptatsiya bolnykh detskim serebralnim paralichem. T., 1979
7. L.O.Badalyan, L.T.Jurba, O.V.Timonina. Detskiy serebralniy paralich. Kiyev, Zdorovye, 1988
8. G.V.Dedyuxina, L.D.Moguchaya, T.A.Yanishena. Logopedicheskiy massaj i lichebnaya fizkultura s detmi 3-5 let, stradayushimi detskim serebralnim paralichom. M., Gnom-Press, 1999

6 bob. OG'IR NUTQIY NUQSONLI BOLALAR

6.1.Logopediya fani va uning vazifalari.

Reja

- 1.Logopediya fanining predmeti
- 2.Logopediya fanining vazifalari
- 3.Logopediya fanining maqsadi
- 4.Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Korreksion pedagogika fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos – so z, padeo – tarbiyalash, o'rgatish degan ma'noni anglatadi) – pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o'rganish, shuningdek, bularning oldini olish, borlarini bartaraf etish uchun maxsus ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish masalalari bilan shug'ullanadi.

Logopediya fani mavzu bahsi, nutq kamchiligi bor kishilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni. Nutq kamchiligi bor kishi esa logopediya fanining o'rganish mavzusi hisoblanadi.

Hozirgi zamон logopediyasiga maktabgacha yoshdagи bolalar logopediysi, o'smirlar hamda kattalar logopediysi, mакtab yoshdagи bolalar logopediysi kiradi.

Logopediya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Turli hil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati ontogenezin o'rganish.
2. Nutq kamchiliklarining sabablari va simptomatikasi, ularning turlari, kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish, darajasini aniqlash.
3. Nutq kamchiliklarini kishi faoliyati, shaxsiyati, huq-qatvori, ruhiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.
4. Eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga ega bo'lgan anomal bolalar nutqiy faoliyatining ahvoli, yetishmovchiliklarni o'rganish, aniqlash.
5. Nutq kamchiliklarini aniqlash yo'llari, usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.
6. Nutq kamchiliklarini sistemaga solish, tasniflash, tizimga keltirish.
7. Nutq kamchiliklarining oldini olish, bartaraf etish prinsiplari va usullarini, tashkiliy shakllarini belgilash, ishlab chiqish, takomillashtirish.

8. Logopedik ishni tashkil etish masalalarini chiqishchiqishi.

Logopediya fani анатомия, физиология, нейрофизиология, отолорингология, невропатология, психопатология, педиатрия, лингвистик, психолингвистика, психология и педагогика фанлар bilan bog'liq, shular asosida rivojlanadi.

Logopediya korreksion pedagogika fani kabi, nerv sistemasining tuzilishi, rivojlanishi faoliyati haqidagi nazariyaga asoslangan. Tabiiy fanlarni bilmay turib, nutq kamchiliklarini kelib chiqish sabablari, mexanizmi, bola psixikasiga ta'sirni aniqlab bo'lmaydi. Logoped nutq kamchiliklarining nevrologik asoslarini yaxshi bilishi kerak. Bu bilimlar nutq камчиликларини bartaraf etish, ularni oldini olish, bolani to'g'ri tarbiyalash, unga bilim berish yo'llari va usullarini to'g'ri tanlashda logopedga yordam beradi. Tibbiy fanlar haqidagi bilimlar to'g'ri logopedik xulosa chiqarish, nutq kamchiliklarini ularga o'xshash boshqa anomaliyalardan ajratish, anomal bolalarni tegishli muassasalarga to'g'ri saralash imkonini beradi.

Logoped o'z oldiga qo'ygan maqsad – vazifani hal etishda тилшунослик, лингвистик фанларга, психология и педагогикага suyanib иш ко'radi.

Tilshunoslik fani kishilarning eng muhim aloqa quroli bo'lgan nutqni ijtimoiy hodisa deb biladi. Nutqning asosiy tarkibiy qismlari: tovush, so'z, so'z birikmasi va gap bir butun tizimni tashkil etib, fikrni og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash uchun hizmat qiladi. Har bir logoped tilshunoslikning ilmiy-nazariy asoslarini, fonetika va grammatikani, lug'at va stilistikani, orfografiya va punktuatsiyani mukammal bilish bilan birga, ifodali o'qiy olish va тўғри so'zlay olish qobiliyatiga ham эга ega kerak. Tabiiyki, logopedning o'zi imloni yaxshi bilmay turib, o'quvchilarga hech qachon savod malakasini singdira olmaydi, logoped uchun og'zaki va nutq нутқ qobiliyati amaliy jihatdan juda muhimdir: logoped so'z vositasida fan xulosalarini izohlabgina qolmasdan, ayni vaqtida nutqida kamchiligi bo'lgan bolani tarbiyalaydi, tarbiyalanuvchilar yo'lini yoritadi ham.

Logopediya maxsus pedagogika – korreksion pedagogika fanining bir sohasidir. Logoped ham boshqa fan o'qituvchilari kabikabita'lim ва tarbiya shakllarining mohiyatini, maqsad va mazmunini, usul hamda vositalarini, prinsiplarini yaxshi egallab, ularni amalda qo'llay olishi kerak.

Logoped bolalarning psixologik qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Bolalarni o‘z kuchiga ishontirishi, mashg‘ulotlarga havasini uyg‘ota bilishi, material bayoni vaqtida ularning dikqatini to‘la jalb qila olish, materialni esda saqlab qolish yo‘llarini (mashq, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, mustaqil ish, suhbat, grammatik o‘yin kabi vositalarni) qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi. Inson idrokining mazmuni, fikri, nutqi orqali shakllanadi. Bolalar logoped tushuntirgan materiallarni eshitib, yozganlarini ko‘rib, kuzatib, mushohada yo‘li bilan o‘zları fikr yuritadilar va berilayotgan bilim-malakalarni mustahkamlab o‘zlashtirib boradilar.

Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bularning in’ikosi so‘z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo‘ladi. Inson o‘zi ko‘rgan va ta’sirlangan buyum yoki voqealarni so‘z yordamida nomlab, ularning mazmuni haqidagi taassurotlarni obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko‘rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har qanday hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o‘rnashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblaadi. Modomiki shunday ekan, nutq aloqa bog‘lash jarayonida tafakkur кураги bo‘lib xizmat qiladi. Shu билан birga aloqa jarayonida nutq – ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta’sir кўрсатиш vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutq negizida paydo bo‘ladi. Nutq kishi tafakkurining rivojlanish darajasini ham belgilab beradi. Nutqdagi kamchilik bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Og‘ir nutqiy kamchiligi bo‘lgan bolalarda intellektual kamchiliklar bo‘lishi, yuzaga kelishi mumkin va aksincha, masalan, oligofren bolalar nutqida bir qator nutqiy kamchiliklar kuzatiladi. Logopedik amaliyotda nuqsonlarning birlamchi va ikkilamchi ekanligini aniqlash niroyatda muhim. Logoped har bir bolaning ruhiy rivojlanishini chuqur o‘rganib nutq kamchiligi tufayli ruhiyatida paydo bo‘lgan ikkilamchi asoratlarni ajrata bilishi kerak. Agar aqil idrok rivoji nutqiy kamchilik tufayli orqada qolgan bo‘lsa, bunday bola nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha yoshdagি bolalar bog‘chasiga yuborilishi kerak. Bilish faoliyatining turg‘un buzulishi natijasida bola nutqi rivojlanmagan bo‘lsa, bu bolani oligofren bolalar uchun tashkil etilgan maktabgacha yoshdagи maxsus bolalar bog‘chasiga yuborish talab etiladi.

Ma'lumki, nutq murakkab funksional sistemani ўз ichiga oluvchi жараёндири. Bu sistemaning har bir tarkibiy қисми qismi qismlari bilan mahkam bog'langan. R.YE.Levina va shogirdlari L.S.Vigotskiyning nutq va tafakkur haqidagi ma'lumotiga asoslanib turib, nutqni uch tarkibiy qismiga bo'lib: fonetiko-fonematik, leksik va grammatic nutqqa ajratib o'rghanishni tavsiya etadi. Ana shu uchchaia qism kishining yaxlit nutq sistemasini tashkil. Nutqida kamchiligi bo'luman va kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq sistemasi har xil darajada rivojlanadi. Nutq sistemasining fonetiko-fonematik qismi tovushlar talaffuzi, ovoz, nutq ma'romi, sur'ati, rovonglidan, shuningdek idrok qobiliyatidan tashkil topadi. Leksik va grammatic qismlari tilning lug'at boyligi va grammatic qurilishini o'z ichiga oladi. Nutq sistemasida leksik qism yetakchi o'rinni egallaydi. Bola nutqida so'zlar soni ham, ya'ni nutqning leksik qismi rivojlanmagan bo'lsa, fonetiko-fonematik, grammatic qismlarida ham, ma'lum kamchiliklar yuzaga keladi, butun nutq sistemasida yetishmovchiliklar kuzatiladi. Fonetiko-fonematik qismdagi kamchiliklar, masalan tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish tufayli so'zlar leksikaning o'zgarishi, nutqning grammatic tuzumiga ta'sir etadi. Sistemalilik prinsipi nutq kamchiliklarini aniqlash, bartaraf etish, oldini olish yo'llari, usullarni to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Logopediya fani barcha ishlarni kompleks yondoshish asosida tashkil etishni tavsiya qiladi. Kompleks yondoshish - bolaga har tomonlama ta'sir ko'rsatishini ko'zlab ta'lim-tarbiya jarayonida ham pedagogik, ham psixologik, ham meditsina metodlarini ishlatishdir.

Rivojlanish prinsipi nutq kamchiligining kelib chiqish yo'lini, uning rivojlanishini tahlil qilishni ko'zda tutadi. Bunda kamchilikning kelib chiqish sababalarini rivojlanish jarayonida qanday o'zgarishlar natijasi ekanligini ko'rsatish – asosiy vazifadir.

Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, og'ir ruhiy kechinmalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, ayrim so'zlarning noto'g'ri talaffuz etilishi kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga, uni atrofdagilar bilan muomala qilishida qiyinab qo'yadi, u gapirganda o'z fikrini to'la anglata olmaydi. Nutq kamchiliklarining og'ir turlari

(alaliya, rinolaliya, tutilib gapishtirish va boshqalar) maktab dasturini o'zlashtirishga, keyinchalik, kasb tanlashga, ba'zan, umuman o'qishga to'sqinlik qiladi, bilish faoliyatini rivojlanishini susaytiradi, ba'zilarida intellektual yetishmovchiliklari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazarda, nutqdagi kamchiliklarni boshqa ruhiy jarayonlar bilan bog'langan holda o'rganish prinsipiiga amal qilish nihoyatda zarur.

Nutq kamchiliklari ko'p hollarda biologik va ijtimoiy omillarning birlashtirishiga ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'ladi. Logopedik ishning samarodorligi nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, turlarini to'g'ri aniqlashga bog'liqdir. Bu o'rinda ontogenetik, etiopatogenetik prinsiplarni ahamiyati katta.

Nutq kamchiliklarini o'rganish, aniqlash, ularni bartaraf etishda logoped barcha didaktik prinsiplarga tayangan holda ish tutadi. Logopedik ishni tashkil etishda, har qaysi bolaga xos xususiyatlarni hisobga olish, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish, ta'limning o'quvchilarga xos bo'lishi, ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipiiga amal qilish, onglilik, aktivlik va mustaqillik kabi prinsiplarning ahamiyati ayniqsa katta.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Logopediya fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Logopediya fanining vazifalariga nimalar kiradi?
3. Logopediya fanining maqsadi nimalardan iborat?
4. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

6.2. Nutq nuqsonlari haqida tushuncha

Reja

1. Nutq nuqsonining ta'rifi
2. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish
3. Logopediya fanining metodologik asosi

Nutq nuqsoni logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqish deb ta'riflanadi. O.V.Prvdina o'zining «Logopediya» kitobida logopedik nutq nuqsonlarini quyidagicha harakterlagan:

1. Nutq nuqsoni o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi.
2. Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi.
3. Nutqiy nuqsonlari bo'lган kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi.
4. Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan nutq nuqsonlari o'z xususiyatlari jihatidan bolalarda va katta yoshdag'i kishilarda ba'zan vaqtincha uchrab turadigan nutqiy kamchiliklardan farq qiladi. Yosh bolalarda, keyinchalik o'zidan-o'zi to'g'rilanib, barham topib ketadi. Kattalarda esa bunday hodisalar asosan charchash, hayajonlanish, asabiylashish natijasida uchrab turadi. Ular ko'pincha o'z xatolarini sezib, bularni tuzatishga harakat qiladilar. Goho esa sezmasliklari ham mumkin. Lekin vaqt bilan bunday xatolar ham o'z-o'zidan to'g'rilanib ketadi. Nutqiy nuqsonlar aznabiylarda, boshqa millatli kishilarda ham kuzatilishi mumkin. Ular tilni o'rganib borganlari sari, nutqdagi kamchiliklar barham topib boraveradi.

Nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablariga ko'ra logopediya fanida organik va funksional xillarga bo'linadi. Organik nutq nuqsonlari nutqiy analizatorning tuzilishidagi kamchiliklarga aloqador bo'lib, bu analizatorning qaysi bo'limida shikastlanganiga qarab markaziy yoki periferik turlarga bo'linadi. Funksional nutq nuqsonlarida analizator tuzilishida o'zgarishlar kuzatilmaydi. Noto'g'ri tarbiya ota-onai, tarbiyachi yoki o'qituvchi nutqidagi kamchiliklarga taqlid etish natijasida yoki noo'rin reflekslarning mustahkamlanib qolishi funksional nutq nuqsonlariga sabab buo'lishi mumkin. Funksional nuqsonlar nerv jarayonlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, analizator faoliyatidagi boshqa kamchiliklardan kelib chiqishi ham mumkin.

Nutq analizatori qaysi bo'limining o'zgarib qolganiga qarab funksional nutq nuqsonlari ham markaziy yoki periferik harakterda bo'ladi.

Logopediya fani surdopedagogika va tiflopedagogikalar ichidan ajralib, XIX asrning ikkinchi yarmida tibbiy fanlarning alohida bir oqimi bo'lib vujudga keldi. Nutq nuqsonlarini asosan shifokorlar tuzatishar edi, biroq «davolash» ishlari yaxshi natija bermas edi.

Nutqiy kamchiliklarning ayrim belgilari nuqson sifatida o'rganilar edi. Nutq komponentlari, nutqning sistemali tuzilishi haqidagi ma'lumotlar o'sha davrlarda hali bo'lmaganligi tufayli, nutq kamchiliklarini o'rganish, aniqlash, bartaraf etish usullari ham noto'g'ri belgilangan. Asosan mexanik mashqlardan foydalanilar edi.

Hozirgi kunda logopediya fani pedagogik va psixologik, tibbiy, lingvistik fanlar asosida, shularga tayangan holda rivojlanib bormoqda. Bir qator tibbiy fanlarni chuqur o'rgangan maxsus mutaxassis pedagog (logoped) to'g'ri nutqni tarbiyalaydi.

Shifokor esa logoped bolaga anamnez tuzadi, uning diagnozini aniqlaydi, kerak bo'lsa dorilar bilan davolashni tavsiya etadi.

Logopedik amaliyatda, eshitish organlaridagi kamchiliklar psixikasiga ta'sir etgan bolalar ko'p uchrab turadi. Bunday bolalarni eng avvalo otoloringolog tekshirib, ularga tibbiy xulosa chiqarmog'i lozim. Shundagina logoped bunday logopadlar bilan ishni to'g'ri olib borishi mumkin.

ADABIYOT

1. Ayupova M.YU., Muminova L.R. Logopediya. T.,1993
2. Logopediya. I.S.Volkova tahriri ostida. M., Prosvesheniye 1989
3. O.V.Pravdina. Logopediya. M., Prosvesheniye, 1973
4. L.R.Muminova, M.T.Qahramonova. Logopedyadan terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T.,O'qituvchi, 1988
- 5.V.S.Raxmanova Maxsus pedagogika ,T. 2004

6.3.Me'yorda rivojlangan bolalar nutqining rivojlanishi.

Reja

- 1.Nutqni rivojlanish bosqichlari
2. Nutjning fonetik jihatdan o'sishi

3.Bolalar nutqi grammatik tuzilishining o'sishi

4. Maktabdagi ta'lim jarayonida nutqning o'sishi

Ma'lumki, chaqaloq tug'ilgan zahoti chinqirib yig'lashga tushadi.Chaqaloqning yig'lashi ochlikka, og'riqqa, sovuqqa, o'zini bezovta qilayotgan boshqa ta'sirotlarga bo'lgan aks ta'sirdir. Lekin buning chaqaloq o'sishi uchun ijobjiy ahamiyati ham bor: chinqirib yig'lash tufayli chaqaloqning nafas va nutq apparati o'sadi, mustahkamlanadi.Umuman, yosh bolaning chinqirib yig'lashi keyinchalik nutqning o'sishi uchun zarur sharoitlarning biridir. Chaqaloq ikki yo uch oylik bo'lganida chinqirib yig'lashdan tashqari "agu", "a", "u" kabi tovush birikmalarini chiqara boshlaydi, ayrim tovushlar chiqarishi uning nutq apparatini o'stiradi, mustahkamlaydi, shuningdek unda bir qancha yangi tovushlar hosil bo'lishiga yordam beradi.

Bola 3 –4 oylik bo'lganda tili chiqqa boshlaydi. Unda ayrim tovushlar paydo bo'ladi. Go'dakning til chiqarishida boshqa odamlar nutqining ta'siri sezila boshlaydi. Go'dak tevarak-atrofdagi kishilarning nutqini eshitib, nutq brikimlariga o'zi anglamagan holda taqlid qila boshlaydi. Kar-soqov (gung) bolalarda qichqirish va guvrash bo'ladi, lekin nutq saqat sog'lom bolalardagina odatdagicha rivojlanib boradi. Bolalarning til chiqara boshlashi nutqning o'sish jarayonida tayyorgarlik rolini o'ynaydi: til chiqarayotgan davrda turli tovushlar va bularning birikmalarini hosil bo'ladi, nutq apparati rivojlanib, mustahkamlanib boradi.

Bolalar 7-8 oylik bo'lganida ularning boshqalardan eshitgan so'zлари bilan shu so'zlarda ifodalangan ma'no o'rtasida dastlabki bog'lanishlar ham hosil bo'ladi. Bolalar o'zlariga aytigelan so'zga javoban harakat qiladigan bo'lib qoladi. Masalan: "aya" so'zini aytganimizda bola boshini onasi tomonga buradi. Bu passiv nutqni egallashning boshlanishidir. Keyinroq bola 9-10 oylik bo'lganida, tovushlar birikmasini taqlid yo'li bilan talaffuz etadi, lekin shu tovush birikmalarining talaffuzda bo'lishi aktiv nutq boshlang'ichi borligini ko'rish mumkin. Xullas, bolalarning tug'ilish paytidan to bir yoshga to'lguncha tovushlar chiqarib, tovush birikmalarini talaffuz qilib turishi, nutq apparatining faoliyatiga tayyorgarlik davri bo'lib hisoblanadi. Bola tovushlarini birga qo'shib, narsalarning nomini va o'z fikrlarini ifodalashga kirishgan paytidan boshlab, u nutqni egallay boshlaydi.

Tarbiyaning belgilovchi ta'siri ostida tafakkur o'sib borib, u bilan chambarchas bog'langan holda ongli nutq hamda umumlashtirib fikrlash, abstraksiyalash qobiliyat paydo bo'lib boradi.

Nutjning fonetik jiratdan O'sishi

Bola tilga kira boshlagan dastlabki paytlarda nutq tovushlarini mukammal ayta olmaydi. Bolalar ba'zi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar. Masalan, tovushlarni buzib, birining o'rniga boshqasini qo'yib talaffuz qiladilar (parta-payta, qand-and, oyoq-oloq)

Ko'pincha so'zlardagi ayrim tovushlarni va xatto butun-butun bo'g'lnlarni tushirib qoldiradilar, tovushlarning ўрнини almashtirib yuboradilar. Masalan, ber deyish o'mniga be, olib kel o'mniga abe, holva o'rniga havla, sariyog' o'rniga sayrog' deydilar. Endi tishi chiqib kelayotgan bolalar nutqining fonetik jihatdan to'liq bo'imasligini sababi shuki, bunday bolalarda nutq (artikulatsiya) apparati yetarli o'smagan, yetilmagan bo'ladi. Ayni vaqtida oliy nerv faoliyatining nomukammalligi ham bunga sabab bo'ladi. Bundan tashqari ayrim so'zlardagi tovushlarni bir-biridan ajratib yetarlicha farq qila olmaydi, umumlashtirish va so'z tarkibiga kiritishni bilmaydi. Lekin bola o'sib-unib borgan sayin lug'atidagi so'zlar soni tez ko'payta boshlaydi. Masalan, ikki yashar bolalarning lug'atidagi so'z boyligi 250-400 ga yetadi. 7 yoshga to'lgan bolalar lug'atida so'zlar soni 3000-3500 ga boradi. Shu bilan birga tengdosh bolalarda so'z boyligining oz yoki ko'p bo'lishi asosan shu bola tarbiyalanadigan muhitga, shuningdek, bolaning voyaga yetib borishidagi o'ziga xos xususiyatlariiga bog'liqdir.

Bolalar lug'atidagi so'z soni ko'payib borgan sari bir tomondan, ular nutqning leksik jihatni ham o'sib borsada, ikkinchi tomondan, bolalarning so'zlar ma'nosini tushunish layoqati, umumlashtirilgan holda idrok eta olish qobiliyati kengayib boradi.

Bolalar nutqi grammatic tuzilishining O'sishi

Tilga kira boshlagan bola o'z nutqida dastlab bosh kelishikda keladigan ba'zi fe'llarni ishlataladi. Bolalarning dastlabki gaplari bir so'zdan iborat bo'ladi. Bu gap ularda bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bola "koptok" der ekan, bunda "koptokni menga ber", "ana koptok" degan va boshqa ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Lekin bola bir yarim yoshga to‘lgandan keyin, ayniqsa 3 yoshga qadam qo‘yganda ona tilisining grammatik tuzilishini tezda egallay boshlaydi.

Bola “oz” va “ko‘p” tushunchasini juda erta farq qila boshlaydi, 2 yoshga yaqinlashganda “katta” va “kichik” tushunchasini ham farq qila boshlaydi. Ammo qaratqich kelishigi o‘rniga tushum kelishigi qo‘shimchasini ishlataadi (bizani uyimiz). Bolalar bu yoshda fe’llarni shaxs va zamon e’tibori bilan ham birmuncha to‘g‘ri ishlatadigan bo‘lib qoladilar. Bolalar buyruq fe’lini ancha tez va barvaqt o‘zlashtirib oladilar.

Bola ikki yoshga to‘lganida sodda gaplarni to‘g‘ri tuzib gapirishni o‘rganadi. Endi bola o‘zi turgan vaziyatdan tashqaridagi narsalar, shu paytdagi biron ish harakat bilan bilvosita bog‘langan narsalar haqida ham gapira boshlaydi, ya’ni o‘zi bevosita ko‘rib turmagan narsalar to‘g‘risida gapira boshlaydiki, bu xildagi nutq tasavvurlarga asoslanib fikr qilishning ifodasidir.

Ikki yarim yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan bolalarda aksari o‘zicha so‘z yasash hodisasi ko‘riladi, masalan, bu yoshdagи болалар o‘zлari bilgan so‘zлarning shakllariga o‘xshatib so‘z tuza boshlaydilar: non-nanna, osh- ashsha va hokazo. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning kattalardan eshitgan so‘zлarnigina takrorlab qolmasdan, balki shu tariqa o‘zlaricha so‘z yasash grammatik shakllarini ham egallay boshlaganini ko‘rsatuvchi belgidir.

Bola yetti yoshga to‘lganida og‘zaki nutqning grammatikasini amaliy yo‘l bilan egallab oladi deyish mumkin. Bu esa keyinchalik savod chiqarish va til grammatikasini o‘rganishga imkon beradi.

Maktabdagi ta’lim jarayonida nutjning O‘sishi

Maktabda o‘qiyotgan bola o‘z nutqini grammatika qoidalariga muvofiq suratda, ongli ravishda tuzishni o‘rganadi. Grammatikani o‘qib o‘rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihatni qaror topib, nutqning morfologik jihatni to‘g‘rilanib boradi, sintaksis tuzilishi ancha takomillashadi.

Maktabda o‘qitilayotgan hamma fanlarni o‘rganish va shu fanlar bilan shug‘ullanish jarayonida o‘quvchi nutqining lug‘at boyligi ko‘payadi, so‘zлarning

mazmuni chuqurlashadi va kengayadi, har qaysi so‘zning, har qaysi atamaning ma’nosini aniq, ravshan bo‘lib boradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi yozma nutqini to‘g‘ri tushunishni o‘rganib oladi; fikrlarini yozma nutq bilan ham bayon qilish va boshqalarga tushuntirishni o‘rganadi.

Yozma nutqni egallash og‘zaki nutqni va ayniqsa monolog nutqni to‘g‘ri va kengroq qilib tuzishga yordam beradi.

O‘quvchi ovoz chiqarib o‘qish, matnni aynan yoki o‘z so‘zlari bilan takrorlash yo‘li bilan o‘zining artikulatsiya apparatini mashq qildiradi, o‘z nutqini qay darajada to‘g‘riligini, shu bilan birga o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarini to‘g‘ri va mustahkamligini ham nazorat qilib boradi.

Savol va topshiriqlar

1. Nutqni rivojlanish bosqichlarini ta’riflab bering
2. Nutqning fonetik jihatdan o‘sishi deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalar nutqi grammatik tuzilishining o‘sishi
4. Maktabdagagi ta’lim jarayonida nutqning o‘sishi

6.4. Nutqning anatomo-fiziologik va psixolingvistik ta’rifi

Reja

1. Nutqning yuzaga kelishi va idrok qilinishi
2. Nutq faoliyatining fiziologik asosi
3. Eshituv analizatori tuzilishi va faoliyati
4. Artikulyatsion apparat va uning faoliyati
5. Nutq apparatining tuzilishi va faoliyatida kuzatilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lib, nutq vositasida o‘zaro aloqa bog‘lay olishi, fikrlay bilishidir. Turli tovushlarning ma’lum tartibda birlashtirish, payvasta bo‘lib qo‘shilishidan yuzaga keladigan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi.

Nutq hosil bo'lishida ishtirok etadigan organlarning jami nutq apparati deyiladi. Nutq apparati markaziy va periferik bo'limlardan iborat. Nutq apparatining markaziy bo'limiga bosh miya po'stlog'i, po'stloqdag'i markazlar osti va o'tkazuvchi nervlar kiradi.

Odam miya po'stlog'inining ma'lum qismi (miya chap yarim peshona qismining pastki tomondag'i pushtlarning orqa qismi) shikastlansa, bemorda nutq artikulatsiyasi, ya'ni nutq talaffuzi buzilib qolishini bundan yuz yil avval 1861 yilda Broka kashf etgan. Broka bunday miyaning ana shu qismi "so'z obrazlarining motor, ya'ni harakatlantiruvchi markazidir", deb xulosa chiqargan edi. So'zlar talaffuzining markazlari miyaning xuddi shu qismida joylashgandir. Birmuncha vaqt o'tgandan keyin (1874 yilda) K.Vernike miya chap yarim shari tepa qismidagi pushtlarning orqa qismi shikastlanganda nutqni tushunish qobiliyati yo'qolib qolishini aniqladi va miya po'stlog'inining ana shu qismida "so'zlarning sensor obrazlari" joylashgan degan xulosaga keldi. Bunday tadqiqotlar odamning nutq bilan bog'langan hamma funksiyalarini psixologik va fiziologik jihatdan o'rganishga aloqador bir qancha tekshirish ishlarini boshlab berdi. Shu ishlar natijasida nutq bilan bog'liq bo'lgan barcha psixofunksiyalar miya po'stlog'inining ma'lum qismlari ishtirokida yuzaga chiqishi aniqlandi.

Ma'lumki, organizm atrofidagi muhit bilan doimo va mustahkam o'zaro aloqada bo'lmay turib yashay olmaydi. Organizmning shunday tashqi ta'sirlarga moslanishi, atrofdagi muhit bilan muvozanatda bo'lishi asab sistemasi tufayli yuzaga chiqadi. Oliy darajadagi organizm bo'lmish odamda tashqi muhit bilan bog'lanish, aloqada bo'lishning yangi shakllari vujudga kelib, qaror topib borgan. "Rivojlanib borayotgan hayvonot dunyosida, - deb yozadi I.P.Pavlov, - odam darajasiga kelganda nerv faoliyati mexanizmlariga juda ham katta qo'shimcha qo'shiladi".

Bu qo'shimcha odamda nutq paydo bo'lib, ikkinchi signal sistemasi yuzaga kelishi va rivojlanib borishidan iborat bo'ladi.

Nutqning yuzaga kelishi va idrok qilinishida biz "signallarning signallari" (I.P.Pavlov) tarzidagi so'zlardan foydalanamiz, ya'ni so'zlarni tanlaymiz va ularning ma'nosiga qarab tahlil qilamiz, ajratamiz. Bu murakkab jarayon katta miya yarim

sharlarining po'stlog'ida amalga oshiriladi. Bolada ayrim toyush va fonemalar hayotining dastlabki oyalarida paydo bo'lsada, lekin ular hali tegishli signallar rolini o'ynamaydi, ma'lum bir tushunchani, ma'noni ifoda qilmaydi. So'zni, gapni talaffu etish, narsalarning nomini, gaplardan iborat nutqni tushunish uchun miyada shartli aloqalar qaror topishi fiziologik korrelantlar paydo bo'lishi, ya'ni miya faoliyatining tegishli mexanizmlari yuzaga kelishi lozim..

So'nggi 40 yil mobaynida fiziologlar (P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn) hamda psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontyev, E.o'oziyev, D.N.Uznadze, AQSHda Dj.Miller va boshqalar) olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlardan ma'lum bo'lishicha, nutq faoliyatining fiziologik asosini bunday tushunish uni butunlay ochib berib, talqin qilish uchun yetarli emas.

P.K.Anoxin tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlar nuqtai nazaridan qaraganda, nutq faoliyatining fiziologik asosini ixtisoslashgan funksional sistema yoki, aniqroq aytganda, bir necha funksional sistemalardan iborat murakkab uyushma tashkil etadi, bu funksional sistemalardan ayrimlari nutq uchun ixtisoslashgan sistema bo'lsa, boshqalari o'zga faoliyatları uchun ham xizmat qilaveradi. Funksional sistemalarning bunday uyushmalari ko'p tomonlama va ko'p darajalidir. Nutq jarayonini ta'minlashda "stimulus-reaksiya" tipidagi juda sodda fiziologik mexanizmlar ham, nutq faoliyatining yuksak shakllari, masalan, ichdan programmalashtirib, nutq vositasi bilan fikr bayon qilishning har xil darajasidagi maxsus mexanizmlari ham qatnashadi.

Ma'lumki nutq har xil darajadagi sistemalar bilan avvalo eshituv analizatorining funksiyasi bilan mahkam bog'langan. Bola so'zlarni, o'ziga qaratilgan nutqni eshitadigan bo'lgani uchun ham, garchi ularning ma'nosini tushunmasa-da, unda eslab qolish qobiliyati – asta-sekin rivojlanib borib, keyinchalik ayrim so'zlarni oson takrorlay oladigan va hatto oddiy jumlalarni tuza oladigan bo'lib qoladi. Modomiki, shunday ekan, nutq funksiyasining rivojlanishida eshituv analizatorining ahamiyati katta.

I.P.Pavlov. To'la asarlar to'plami, III tom, 2-kitob, M.L, 1951 yil, 335 bet.

Eshituv analizatori haqida qisqacha ma'lumot.

Eshituv analizatori tashqi, o'rta, ichki qulqoq, ichki qulqoqdan boshlanadigan va nerv quzg'alishlarini miyaga o'tkazib beruvchi eshituv nervi va bosh miyadagi eshituv

~~markaz~~larini o'z ichiga oladi. Tashqi quloq-quloq suprasi va tashqi eshituv yo'lidan iborat. Quloq suprasi tovushni tutib olish va yo'naliishini aniqlashga xizmat qiladi, tashqi eshituv yo'li ingichka tuklar bilan qoplangan kana ~~saldan~~ iborat bo'lib, uzunligi kattalarda 2,5 sm ga boradi va quloqning tashqi chegarasi bo'lmish quloq pardasi – nog'ora parda bilan tutashib turadi. Quloq pardasi egiluvchan, elastik bo'ladi, shunga ko'ra tovush to'lqinlari ta'sirida tebranib, shu tebranishlarni b'ouzmasdan takrorlaydi. Quloq pardasi kalla suyagining chekka qismida joylashgan o'rta quloq bo'shlig'ining tashqi devorini hosil qiladi. Bu bo'shliqda eshituv suyakchalarini va shu bo'shliqni burun – halqum bilan tutashtirib turadigan kanal – Yevstaxic nayi bor. O'rta quloqning ichki devorchasi ikkita darcha – oval darcha va yurnaloq darcha bilan ichki quloqdan ajralib turadi. O'rta quloqdagi eshituv suyakchalarini bolg'acha, sandon va uzangi deb ataladigan uchta suyakchadan iborat. Bolg'achaning dastasi qurulqo pardasiga yopishgan, boshchasi harakatchan bo'lib, sandonga taqalib turadi. Sandon esa uzangi bilan tutashgan. Uzangining keng tarafi oval darchadagi parodaga yopishgan. Quloq pardasining tebranishlari eshituv suyakchalariga o'tib, ularni ham harakatlantiradi, buning natijasida quloq pardasining hamma tebranishlari oval pardasiga ham tarqaladi.

Oval darcha yurnaloq darcha bilan birga ~~likda~~ ichki quloqqa tutashadi. Ichki quloq (labirint) chekka suyagining piramida degan qismida joylashgan bo'lib, suyak labirint va uning ichidagi parda labirintdan iborat. Suyak labirint bilan parda labirint devorchalari o'rtaida kichik bir kamchak bo'lib, u perelimfa degan suyuqlik bilan to'la turadi. Parda labirint ichida ham suyuq bor, buni enfolimfa deyiladi.

Labirint dahliz, chig'anoq va yarim doira kanallari degan qismlardan iborat. Labirintning yarim doira kanallari muvozanatni saqlash organi bo'lib hisoblanadi. Asl eshituv organi chig'anoqdir. U gajakka o'xshab, 2,5 marta o'ralgan suyak kanaldir. Uning ichida korti organi joylashgan. Korti organi tovushni sezuvchi moslama bo'lib, miyadan keladigan eshituv nervining oxirlari shu organda tugaydi.

Eshituv sezishlari quyidagicha kelib chiqadi. Tovush to'lqinlari havo orqali tashqi eshituv yo'liga kirib, quloq pardasiga urilgan ida uni tebratadi. Bu tebranish eshituv suyakchalariga o'tib, ularni ham tebrantiradi. Eshituv suyakchalaridan uzangi oval darcha pardasiga taqalib turadigan bo'lganidan shu parda ham tebranadi. Bu tebranish

perelimfaga undan endolimfaga o'tadi, endolimfa tebranganda chig'anoqdagi organi tuklarni ham tebrantirib, shu yerdagi eshituv nervi oxirlarini qo'zg'atadi. Bu nervlarda paydo bo'lgan qo'zg'alish bosh miya po'stlog'iga – eshituv analizatori oliv markaziga yetib boradi va u yerda tahlil etilib, bizda tovush sezgisini keltirib chiqaradi.

Bolada nutq rivojlanib borishi, yuqorida aytigandek, eshituv analizatori funksiyasiga, miyada bo'lib o'tadigan tahlil jarayonlarining takomillashib borishiga bevosita bog'liqidir. Bola hayoti birinchi yilining oxirlari va butun ikkinchi yili nutq shakllanib qaror topib boradigan davridir. Bu davrda asl nutq apparati rivojlanib, takomillashib boradi va bosh miya po'stlog'idagi tegishli markazlar bilan o'zaro aloqalar hosil qiladi.

Asl nutq apparati : 1) nafas a'zolari; 2) hiqildoq; 3) artikulyatsion apparatlardan tashkil topgan. Nutqiy tovushlarni hosil qiluvchi vosita o'pkadan nafas yo'llari orqali chiqib, hiqildoqqa va undan og'iz bo'shlig'i, ba'zan burun bo'shlig'iga o'tadigan havo oqimidir. Demak, o'pka nutq tovushlarini talaffuz etish uchun zarur bo'lgan havo oqimining manbaidir.

Ovoz hiqildoqda hosil bo'ladi. Hiqildoqda ko'ndalang joylashgan elastik, yupqa tovush boyamlari mavjud bo'lib, bular so'zlash paytida, o'pkadan chiqadigan havo oqimining kuchi bilan tebranadi, shularning tebranishida ovoz hosil bo'ladi. Unli, sonor va jarangli undosh tovushlari ovozi ana shu tovush boyamlarining hiqildoq bo'shlig'ida tebranishi natijasidir. Jarangsiz undoshlar hosil bo'lishida bu boyamlar tebranmaydi, ularning orqasi ochiq turadi: orasi yopiq bo'lsa havo oqimi ularning orasidan o'tadi va ovozdor: unli, sonor, jarangli undosh tovushlar hosil bo'ladi.

Tovush boyamlarining tebranishi natijasida hosil bo'lgan ovoz kuchsiz, past, noaniq bo'ladi. Og'iz va burun bo'shlig'i – nutq rezonatori, ya'ni ovozni kuchaytirib beradigan joydir. Og'iz bo'shlig'ida joylashgan a'zolarning turlicha harakati va holati tufayli xilma-xil tovushlar hosil bo'ladi. Nutq organlarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati artikulatsiya degan atama bilan belgilanadi. Og'iz bo'shlig'idagi eng aktiv organ tildir. Til o'zining harakatchanligi bilan tovush hosil qilishda boshqa nutq organlariga nisbatan kattaroq vazifani bajaradi. Til, lablar,

yumshoq tanglay, kichik til (lak-luk), tovush boyamlari aktiv organlar deb; tish, qattiq tanglay burun bo'shlig'i – passiv organlar deb sanaladi. Hiqildoq orqali o'tgan havo oqimi til, tanglay yoki ikki labning to'siqligiga duch kelib, shovqin hosil bo'ladi. Og'iz bo'shlig'i pastki harakati bilan keng va tor holatga o'tib turadi. Til bilan tanglayning nutq tovushi hosil qilishidagi harakatini aniq belgilash maqsadida bularning har biri bir necha qismga bo'linadi: til oldi, til o'rtasi va til orqasi; tanglay oldi yoki qattiq tanglay va tanglay orqasi yoki yumshoq tanglay. Til og'iz bo'shlig'ida gorizontal va vertikal yo'nalishlarda harakat qiladi: tilning oldinga – milkka va orqaga qarab siljib turishi gorizontal yo'nalishdagi, tanglayga tomon yuqori ko'tarilishi va undan past tushishi vertikal yo'nalishdagi harakatdir. So'zlash paytida lablar turlicha harakat qiladi: cho'chchayadi, pastki lab ustki labga yo tishlarga tegadi va hokazo. U yoki bu nutq organining tovush hosil qilishida aktiv qatnashgan qismi artikulatsiya o'rni bo'ladi. Masalan, tilning old qismi oldingi tish milkka tegishi yoki yaqinlashishi bilan "D", "T", "Z", "J", "SH" kabi tovushlar paydo bo'ladi, demak, bunday tovushlamning artikulatsiya o'mi til oldidir. Pastki labning ustki tishlarga sal tegishi bilan "F" tovushi hosil bo'ladi, "F" undoshning artikulatsiya o'rni lab va tishlardir.

Artikulatsiya o'rni va usuli nutq tovushlarini tasvirlash, tasniflash, logopedik kamchiliklarni aniqlash, bartaraf etish muhimdir.

Nutq apparatinining tuzilishi va faoliyatida turli xil kamchiliklar kuzatilishi mumkin. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

TIL NUQSONLARI

1. Tilning nihoyatda katta bo'lishi natijasida "s", "r", "l" va boshqa tovushlar no lo'g'ri talaffuz etiladi, masalan sirg'aluvchi tovushlar talaffuzida tish aro sigmatizm kabi nuqson kuzatilishi mumkin.

2. Uzun, tor til yon sigmatizmiga, ya'ni havo oqimi o'rtadan o'tishi o'rniga tilning yon tomonlaridan o'tishi natijasida paydo bo'ladigan talaffuz kamchiliklariga

olib kelishi mumkin. Tilning tor, uzun bo'lishi "R", "T", "D", "N" kabi tovushlarning noto'g'ri talaffuz etilishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

3. Til xaddan tashqari kalta bo'lsa, uni tanglay bilan birikishi natijasida paydo bo'ladigan tovushlar (r, s, sh, l)ni noto'g'ri talaffuz etilishiga olib kelishi mumkin.

4. Tilning tug'ilishdan bo'lmasligi. Bunday hollarda kishi gapira olmaydi, so'zlarini mutlaqo tushunib bo'lmaydi.

LABDAGI NUQSONLAR

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishda lablar xam faol ishtirok etadi.

1. Labning tug'ma ikkiga bo'linganligi lablangan barcha tovushlar (m, p, b, v, f) noto'g'ri talaffuz etilishiga olib keladi.

2. Lablarning yupqa, kaltaligi natijasida, og'iz to'liq yopilmaydigan bo'lsa, bunda lablangan tovushlar noto'g'ri talaffuz etiladi.

3. Lablarning haddan tashqari qalin bo'lishi ularning kam harakat bo'lishiga olib keladiki, bunda ham barcha lablangan tovushlar noto'g'ri talaffuz etiladi.

Yuqori labning kalta va pastki labning qalinligi ham talaffuzga ba'zan ma'lum darajada ta'sir etadi.

TANGLAYDAGI NUQSONLAR

Tanglay yuqorida aytigandek, qattiq va yumshoq tanglaydan iborat. Qattiq tanglay tanglayning oldingi, harakatlanmaydigan, passiv qismi. Yumshoq tanglay, ya'ni tanglay pardasi tanglayning orqa harakatchan, aktiv qismidir. Tanglay tuzilishida quyidagi kamchiliklar kuzatiladi:

1. Tanglay yoriq – bunda og'iz va burun bo'shliqlari orasi ochiq qoladi, natijada barcha tovushlar manqalanib, burun bilan talaffuz etiladi, tovushlar talaffuzidagi bunday nuqson, jumladan rinolaliya deb ataladi.

2. Yumshoq tanglay kalta, kamharakat – bunda havo oqimi burun bo'shligiga o'tib ketadi va barcha tovushlar burunli "M", "N" tovushlari kabi talaffuz etiladi.

3. Tanglay xaddan tashqari baland turadi, tor bo'ladi – bunda til va tanglay birikishi natijasida hosil bo'ladigan tovushlar, masalan, "R", "L" kabi tovushlar noto'g'ri talaffuz etiladi.

4. Tanglay haddan tashqari past turadi, yassi bo'ladi, bunda ogiz bo'shilig'ining rezonatorlik funksiyasini, ya'ni ovoz kuchaytirib berish vazifasini to'liq bajera olmaydi.

BURUN BO'SHLIG'I VA HALQUM NUQSONLARI

Og'iz hamda burun bo'shliqlari nutqni kuchaytirib beradigan rezonatorlik funksiyasini bajaradi. Yumshoq tanglay pastga tushganda havo oqimi burun bo'shlig'iga o'tadi. Havo oqimi burun bo'shlig'idan o'tishi natijasida ovoz kuchayadi va ma'lum tusga, tembrga kiradi. Burun va halqumda turli xil shishlar bo'lishi, burun to'sig'inining xaddan tashqari qiyshayib qolishi, bodomcha bezlarining shishi, allergik holat, xronik tumov va boshqalar ham manqalanib gapirishiga (yopiq rinolaliya) olib kelishi mumkin.

JAG' VA TISHLARDAGI NUQSONLAR

Og'iz bo'shlig'inining kengayishi va torayishi pastki jag'ning harakatiga bog'liq. Uni' tovushlar talaffuzida pastki jag' tushiriladi, undosh tovushlar talaffuzida esa ko'tariladi.

Jag' nuqsonlariga progeniya, prognatiya, yuqori va pastki jag'lar jipslashganida ularagi oldingi, yon tishlarning noto'g'ri holatda, orasi ochiq bo'lib turib qolishi, ya'ni noto'g'ri prikus kiradi. Progeniya (grekcha pro - oldinda, genpon - iyak) pastki jag'ning bir-biriga tegmasligi, jipslashmay qolishi, prognatiya (grekcha pro - oldinga, gnatos - jag') yuqori jag'ning oldinga keskin chiqib turishi natijasida tishlar qatorlarining bir-biriga tegmay oldinma-keyin turishidir. Bu turdag'i nuqsonlar tufayli talaffuz vaqtida tovush, masalan, tishlar orasidan sirg'alib chikish o'rniغا, to'siqqa uchramay chiqadi. Tishlarning siyrak, qiyshiqli shishi ham ta'laffuzga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday xollarda havo oqimi tishlar orasidan chiqib tovush xushtak aralash talaffuz etiladi.

ADABIYOT

1. Osnovi teorii i praktiki logopedii. Pod red. R.YE.Levinoy. M., 1968
2. Logopediya. O.V.Pravdina. M., 1973
3. M.F.Fomicheva. Vospitaniye u detey pravilnogo proiznosheniya. M., 1981

4. M.F.Fomicheva, K.Shodiyeva. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish. O'qituvchi, 1984
5. L.R.Mo'minova, M.YU.Ayupova. Logopediya. T., 1993
6. R.Shomaxmudova, L.R.Mo'minova. Bog'cha va kichik mакtab yoshidagi bolalar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish. T., 1981

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nutq qanday paydo bo'ladi?
2. Nutq jarayonida qaysi organlar, analizatorlar qatnashadi?
3. Eshituv analizatorini ta'riflab bering.
4. Nutq apparatining tuzilishini so'zlab bering.
5. Nutq organlarida qanday nuqsonlar kuzatiladi?

7 bob. TALAFFUDAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.

7.1. O'ZBEK TILI FONEMALARI

Reja

1. Ayrim unli tovushlar harakteristikasi
2. Tilning gorizontal harakatiga aloqador tovushlar;
3. Tilning vertikal harakatiga aloqador tovushlar;
4. Lablar ishtirokiga aloqador tovushlar
5. O'zbek adabiy tilining undosh fonemalari ularning hosil bo'lish o'miga; hosil bo'lish usuliga; ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra tasniflanadi

Nutq tovushlari – talaffuz etiladigan so'zning kichik, ayrim bir qismidir. Tovushni fonemadan farq qilmoq kerak. Fonema so'z ma'nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushidir. Fonemalar soni yagona umumhalq tili va uning shevalariga ko'ra har xil bo'lishi ham mumkin. Masalan, o'zbek tilida 6 ta unli tovush bo'lishiga qaramay, shu tilning ba'zi shevalarida unli fonemalar soni 6-7 dan tortib, 18 gacha bo'ladi. Shuningdek, har bir tilning fonemalar sistemasi sifat va miqdor jihatidan

bir xil emas: bir tilda fonemalar soni ko'proq, boshqasida esa ozroq bo'lishi mumkin.
Masalan, rus tilida 42, o'zbek tilida 29 fonema bor.

Mustaqil fonema bilan uning variantlari orasida mohiyat e'tibori bilan olganda farq bor. Fonema variantlari unga yondosh tovushlar ta'sirida paydo bo'ladi. Masalan, "J" fonemasi (bildi, ichdi) turli variantlarda bo'ladi. Tovushlarning ana shunday turlicha talaffuz etilishida hosil bo'ladigan variantlar – kombinator variantlar deyiladi. Biror fonemaning variantlari uning o'ziga qaraganda boshqacharoq eshitiladi. Ba'zan esa bu variantlar tinglovchiga yaqqol sezilmasligi yoki aniq eshitilmasligi ham mumkin.

Fonemalarning akustik (tovushga oid) xususiyatlari ularning artikulyatsion xislatlari bilan belgilanadi.

Hosil bo'lish mexanizmlariga ko'ra fonemalar unli va undoshlarga bo'linadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida unli fonemalar soni oltita(i, e, a, o, u, o'). Undosh fonemalar 23 ta.

Unlilar talaffuzida asosiy vazifani tovush boyamlari, til va lablar bajaradi. Unli tovushlar talaffuzida lab har xil shaklda bo'ladi, ya'ni u yoyiladi yoki burishib, cho'chhayadi. Unli tovushlarni talaffuz etishda til og'iz bo'shlig'ida turlicha harakat qiladi, o'zini gorizontal harakatidan oldinga cho'ziladi yoki orqaga tortiladi, vertikal harakatdan esa tanglay tomon ko'tariladi yoki pastki jag' bilan birgalikda quyi tushadi. Unlilar bo'g'izda hosil bo'ladigan, og'iz bo'shlig'ida turli tusga kiradigan sof ovozdangina iborat bo'lgan tovush yoki fonemalardir.

Unli tovushlar til harakatiga nisbatan olinganda uch toifaga bo'linadi:

1. Tilning gorizontal harakatiga aloqador tovushlar;
2. Tilning vertikal harakatiga aloqador tovushlar;
3. Lablar ishtirokiga aloqador tovushlar.

Tilning gorizontal harakatiga aloqador unlilar 2 guruhga bo'linadi: til oldi yoki old qator unlilar – i, e, a; til orqa yoki orqa qator unlilar – a, u, o'.

Tilning vertikal harakatiga va og'iz ochilish darajasiga aloqador unlilar 3 guruhga bo'linadi: a) yuqori(tor) unlilar – i, u; b) o'rta (keng) unlilar – e,o'; v) quyi (keng) unlilar – o, a.

Lablar ishtirokiga aloqador unlilar 2 guruhga bo'linadi: lablangan – о‘; у, о va lablanmagan – і, е, а unlilar.

AYRIM UNLILAR XARAKTERISTIKASI

“I” va “U” tovushlarni talaffuz qilganimizda, til tanglayga tomon ~~baland~~ ko‘tariladi va tanglay bilan til orasida torgina bo‘shliq qoladi, shuning uchun ham “I” va “U” tovushlari tor unlilar deyiladi. “I” va “U” unlilar so‘z ichida, ko‘pincha ~~qisqa~~ talaffuz etiladi: ikki jarangsiz undosh orasida esa nihoyatda qisqaradi. Masalan, bir yigit, tish, qish. “I” unlisi til oldi, tor va lablanmagan tovush bo‘lib, so‘zning turli undoshlarida turlicha talaffuz etiladi. Masalan, biz, siz, ildiz, idish kabi so‘zlarda “I” unlisi old qator tovushidir, chuqur til orqa undosh tovushlari “Q”, “X”, “¢” lardan keyin keladigan “I” orqa qator unliga moyildir. Masalan qiz, og‘ir, oxir. “U” unlisi til orqa, tor va lablangan tovushdir. “U” unlisi talaffuz qilganda tilning gorizontal harakati tanglay orqasiga qaratilgan bo‘ladi, vertikal harakati esa tanglayga qarab ancha ko‘tariladi, lablar cho‘chchayadi va tyo‘garak shaklini oladi. “O” unlisi o‘rtacha keng (tor bilan keng unli orasidagi) tovush; til oldi, lablanmagan tovush “E” unlisi yarim tor unli tovush bo‘lganidan, jonli tilda ko‘pincha “I” bilan almashib turadi. Masalan, mehmon- mihmon, dehqon- dihqon kabilar. “A” unlisi til oldi keng, lablanmagan tovushdir. Bu unli ham so‘zdagi o‘rmiga qarab ikki xil talaffuz etiladi, aka, dala kabi so‘zlarda old qator ochiq “E” tovushini bildirsa, qand, qars kabi so‘zlarda chuqur til orqa undoshlari – “Q”, “о‘B”, “X” dan keyin til orqa unlisiday talaffuz qilinadi.

“O” unlisi keng, til orqa, lablangan tovushdir. Bu unli o‘g‘il, bo‘ri, to‘g‘ri kabi sodda so‘zlarining birinchi bo‘g‘inida keladi. “U” unlisi “Q”, “о‘B”, “X” undoshlardan keyin kelganda qattiq, aksincha “K”, “G”, “S” undoshlardan keyingi holatda esa nisbatan yumshoqroq talaffuz etiladi. Masalan, qo‘l-ko‘l, xo‘p-cho‘p.

O‘ZBEK ADABIY TILINING UNDOSH FONEMALARI

Unlilar nutq organlarida to‘sinqqa uchramay, cho‘zilib chiqishi, undoshlar esa nutq organlarining biror yerda to‘sinqqa uchrab chiqishi bilan harakterlanadi. Undosh fonemalar tovush boyqlamlarining harakati holatiga va og‘iz bo‘shlig‘ining qayerda to‘sinqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat bo‘lishiga yoki aksincha ovozning

~~shovqin~~ ustun bo'lishiga hamda talaffuz etilish yo'llariga qarab bir-biridan farqlanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh fonemalar 23 ta: b, v, g,d, y, j, z, k, l, m, n, p, r, s, t, f, ~~v~~, ch, sh, q, g', h. Undosh fonemalar: 1) hosil bo'lish o'rniغا; 2) hosil bo'lish usuliga; 3) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra tasniflanadi.

Hosil bo'lish o'rniغا ko'ra undoshlar uch asosiy guruxga bo'linadi: a) lab undoshlari, b) til undoshlari; v) bo'g'iz undoshi.

Lab undoshlari 2 ko'rinishda bo'ladi: 1) lab – lab undoshlari (b, p, v, m) ikki lab orasida paydo bo'ladi; 2) lab – tish undoshi (f va v) pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil bo'ladi. Masalan, fan, sinf, vistavka va boshqalar.

Til undoshlari uchga bo'linadi: 1) til oldi undoshlari (t, d, n, r, l, s, j, sh, ch); 2) til o'rta undoshi (y); 3) til orqa.(k,ch) chuqur til orqa undoshlari (q, g', ng).

Til oldi undoshlari tilining old qismi bilan tish va milk orasida; "y" undoshi til va tanglayning o'rta qismida; "k", "g", "ng" undoshlari tanglay o'rta qismidan orqaroqda; "q", "g'", "x" undoshlari esa "k" va "g" paydo bo'ladigan joydan ham orqaroqda (til ildizi bilan yumshoq tanglay orasida) hosil bo'ladi. Shuning uchun ham "q", "g'", "x" undoshlari chuqur til orqa undoshlari deb yuritiladi. Bo'g'iz undoshi bitta – "h". Bu undosh bo'g'iz, ya'ni hiqildaq bo'shlig'ida hosil bo'ladi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh fonemalar uchga bo'linadi: a) portlovchi; b) sirg'aluvchi; v) portlovchi-sirg'aluvchi.

Portlovchi undoshlar ikki artikulatsiya organining o'zaro jipslashuvi va o'pkadan chiqadigan havoning ma'lum zarb bilan portlab o'tishdan hosil bo'ladi. Bular b, p, d, t, k, ch, q tovushlaridir. Undoshlardan ch, j tovushlari ham portlovchilar gruppasiga kiradi, ammo bular qorishiq (affrikativ) portlovchilar deyiladi.

O'zbekcha qorishiq ch va j undosh fonemalari mana bunday xosil bo'ladi: tilning oldingi qismi milkka taqaladi, lekin odatdag'i portlash yuz bermay, og'iz bo'shlig'iga kelgan havo asosan sirg'alish natijasida qorishiq (ya'ni ikki xil usul ishtirokida) t-sh-ch, d-j-(dj) tovushlari hosil bo'ladi.

Sirg'aluvcilar ikki artikulatsiya organining o'zaro jipslashmay, faqat ~~bir qadar~~ yaqinlashishi va havo oqimining ikki organ orasida ishqalanib – sirg'alib ~~chiqishi~~ natijsida hosil bo'ladi. Bular: v, f, s, z, sh, j, x, h, g' tovushlaridir.

Portlovchi-sirg'aluvcilarni talaffuz qilishda ham portlovchilarga xos bo'lgan ochiqlik (burun yo'li ochiqligi) ishtirok etadi. M, n, ng, l, r undoshlarining talaffuzi ~~ana~~ shunday bo'ladi: "M" ni aytganimizda ikki lab jipslashsada, qisman og'izdan yarim portlab chiqadi; "N" undoshini aytish vaqtida til uchi yuqori tishlar bilan milkka tegadi; "NG" undoshining talaffuzida tilning orqa qismi tanglayga tegadi, ammo havo to'la ravishda portlab chiqmaydi, chunki butun yo'li ochiq bo'ladi. Yuqoridagi m, n, ng undoshlari burun tovushlari deyiladi, l undoshini aytish paytida til uchi yuqoriga burilib, milkka tegadi, havo tilning ikki yonidan sirg'alib o'tadi, shuning uchun xam "l" tovushi yon undoshi deyiladi, "r" undoshining talaffuzida tilning oldingi qismi o'pkadan chiqqan havo to'lqini ta'sirida tiraydi, shuning uchun "r" titroq undosh deyiladi.

O'zbek tili undoshlari ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) sonor va 2) shovqinli undoshlar. Sonor undoshlar "m", "n", "l", "r", "ng" ni talaffuz qilganimizda, tovush boyamlari aktiv ishtirok etadi, ya'ni psychalar titrab, ovoz hosil qiladi. Shuning uchun ham sonorlarda ovoz miqdori shovqinli undoshlardagidan ko'proqdir. "Sonor" so'zi lotincha bo'lib, ovozdor degan ma'noni bildiradi.

Demak sonorlar unli tovushlarga yaqin turadi, lekin og'iz bo'shilg'ida qisman shovqin ishtirokida paydo bo'lgandan sonorlar undosh hisoblanadi.

Shovqinli undoshlar tovush boyamlarining qanchalik ishtiroki bilan hosil bo'lishiga ko'ra jarangli va jarangsiz undoshlarga bo'linadi.

Jarangli undoshlarni hosil qilishda tovush boyamlari taranglashadi va ular o'rtaqidagi tor oraliqdan chiqayotgan havo oqimi psychalarni bir oz titratib o'tadi. Masalan: b, v, z, d, j, g, g', y.

Jarangsiz undosh tovushlarni hosil qilishda esa tovush boyamlari taranglashmaydi va ular o'rtaqidagi keng oraliqdan chiqayotgan havo oqimi hech qanday to'siqqa uchramay, psychalarni titratmay o'tadi. Masalan: p, f, s, t, sh, ch, k, q, x, h. Bu tovushlar faqat shovqindan iborat.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ayrim unli tovushlarni ta'riflab bering
 2. Tilning gorizontal harakatiga aloqador tovushlar;
 3. Tilning vertikal harakatiga aloqador tovushlar;
 4. Lablar ishtirokiga aloqador tovushlar
- 5 O'zbek adabiy tilining undosh fonemalarini ularning hosil bo'lish o'rniga; hosil bo'lish usuliga; ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra tasniflab bering.

7.2. DISLALIYA

Reja

1. Kelib chiqish sabablariga ko'ra dislaliyaning xillari
2. Dislaliyaning ko'rinishlari
3. Sigmatizm va parasigmatizm
4. Rotatsizm va pararotatsizm
5. Yotaqizm, xitizm, lambdatsizm va boa tovushlarning noto'g'ri talaffuz etilishi.

Dislaliya (dis – izdan chiqish, aynish, buzilish; laliya - nutq) tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish bilan ifodalanadigan nutq nuqsonidir. Dislaliyada bolalar bir fonetik guruhdagi tovushlarni (monomorf dislaliya)yoki har xil fonetik guruhdagi tovushlarni (polimorf dislaliya) noto'g'ri talaffuz etishadi. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nutq sistemasining boshqa tarkibiy qismlariga har xil darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi bolalarda talaffuz kamchiligi shunchaki bir nuqson bo'lib, bola nutqining leksik, grammatik qismlarida, idrok etish layoqatida hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Biroq ko'p hollarda xattoki bittagina tovushning noto'g'ri talaffuzi ham nutq sistemasidagi leksik hamda grammatik tomonlarga ta'sir ko'rsatadi, natijada bola tovushni noto'g'ri idrok etadi, o'xshash tovushlar bilan adashtiradi, yozish va o'qish paytida ham xatolarga yo'l qo'yadi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra dislaliya mexanik, funksional xillarga bo'linadi. Nutq apparatining tuzilishidagi o'zgarishlariga aloqador talaffuz kamchiliklari mexanik dislaliyaga olib keladi, masalan, artikulyatsion apparat tuzilishdagi o'zgarishlar: ~~tang~~layning yoriq, til tagidagi yuganchaning kalta bo'lishi, kichik (lak-luk) tilning ~~lik~~ga bo'slinganligi manqalanib gapirish, sirg'aluvchi tovushlar, til oldi r-l sanor

tovushlarning noto'g'ri talaffuz etilishiga sabab bo'ladi. Noto'g'ri malakalar, masalan, kattalar nutqidagi talaffuz nuqsonlariga taqlid etish, til, lablarni noto'g'ri harakatlantirish odatlari va boshqalar mustahkamlanib, funksional dislaliyada nutq apparatining faoliyatida funksional o'zgarishlar paydo qilgan bo'ladi. Fiziologik dislaliya bola fiziologiyasiga bog'liq. Kichik yoshdagi bolalarning nutq apparati yaxshi rivojlanmaganligi tufayli tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish hollari juda ko'p uchraydi. Yoshi ulg'ayib artikulyatsion apparat rivojlanib borgan sayin bu nuqsonlar yo'qolib boradi.

Dislalik bolalarning qulog'i yaxshi eshitadigan bo'ladi, unda hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Nutqni fonematik jihatdan eshitish, ya'ni tovushlarni bir-biridan ajrata bilih layoqati esa rivojlanmagan bo'lishi mumkin.

Amaliyotda eng ko'p noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushlar sosan quyidagilardir:

1. sirg'aluvchilar – 46 foiz (sh, j, ch – 24 foiz)
2. «R» va «L» tovushlari
3. til orqa tovushlari (k, g, ng), chuqur til orqa tovushlari (q, g', h ham ko'pincha buzib talaffuz etiladi).

Unli tovushlarning deyarli hammasi to'g'ri talaffuz etiladi.

Talaffuzdagi kamchiliklar o'z harakteriga ko'ra logopediyada fonetik va fonematik (antropofonik va fonologik) kamchiliklarga bo'linadi.

Tovushlarni tushirib ketish, noto'g'ri talaffuz etish – bu fonetik harakterdagи kamchiliklar. Bir tovushni ikkinchi boshqa bir tovush bilan almashtirish, aralashtirish – fonematik harakterdagи kamchilik bo'shib hisoblanadi.

Fonematik talaffuz kamchiliklarini paraialiya deyish ham mumkin.

Sigmatizm – sh, j, s, ch – kabi sirg'aluvchi tovushlarni talaffuz eta olmaslik, nutqda (og'zaki nutqda bularni yo'qligi) yoki noto'g'ri talaffuz etilishi – antropofonik sigmatizm deyilsa, shu tovushlarni boshqa tovushlar bilan almashtirish – fonologik almashtirish, parasigmatizm deyiladi. Bunda bola masalan, Salim zinadan tushdi deyish o'rniga, alim jinadan tusdi deydi.

«R» tovushining yo'qligi yoki noto'g'ri talaffuz etilishi – rotatsizm, boshqa tovushlar bilan almashtirilishi- pararotatsizm, «l» tovushning yo'qligi yoki noto'g'ri

talaffuz etilishi – lambdatsizm, boshqa tovushlar bilan almashtirilishi – paralambdaatsizm deyiladi. «K» tovushining yo‘qligi kappatsizm, tovushining boshqa tovushlar bilan almashtirilishi – parakappatsizm, «g» tovushini yo‘qligi yoki noto‘g‘ri talaffuz etilishi – gammatsizm, boshqa tovushlar bilan almashtirilishi – paragammatsizm, «x» tovushining yo‘qligi yoki noto‘g‘ri talaffuz etilishi- xitizm, boshqa tovushlar bilan almashtirilishi parxitizm, «y» tovushining yo‘qligi yoki noto‘g‘ri talaffuz etilishi – yotsizm, boshqa tovushlar bilan almashtirilishi – parayotatsizm deyiladi va hokazo.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar logopediyada ikki guruhga bo‘linadi: 1) monomorf; 2) polimorf kamchiliklar.

Agar bola qandaydir bitta tovushni yoki fonetik jihatdan bir guruhli tovushlarni (masalan, til orqa tovushlari «k», «g», ni) noto‘g‘ri talaffuz etsa, biz unda sodda monomorflı talaffuz kamchiligi bor deymiz (mono- bir, morf – shakl degan so‘zlardan olingan bo‘lib, bir shaklli degan ma’noni bildiradi).

Agar bola bir necha fonetik jihatdan turli guruhli tovushlarni (masalan, r, sh, y) noto‘g‘ri talaffuz etadigan bo‘lsa, bunday kamchiliklar murakkab diffuz polimorf kamchiliklar deyiladi (poli ko‘p, ko‘p shaklli demakdir).

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1.Kelib chiqish sabablariga ko‘ra dislaliyaning qaysi xillari mavjud 2.Dislaliyaning ko‘rinishlar

3.Sigmatizm va parasigmatizm

4.Rotatsizm va pararotatsizm

5.Yotaqiizm, xitizm, lambdatsizm va boshqa tovushlarning noto‘g‘ri talaffuz etilishi.

7.3.Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni

bartaraf etish yo‘llari

Reja

1.Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish bosqichlari

2.Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish usullari

3.Nafas olish mashqlari.

4.Artikulyatsion mashqlar

Ma'lumki, logopediyaning asosiy maqsadi turli xil nutq faoliyati: og'zaki, yozma nutqdagi kamchiliklarni, mustaqil gapirish jarayonida, o'yinlarda, o'qishda, jamiyat ishlarida va hokazolardagi talaffuz nuqsonlarini bartaraf etish, to'g'rilash, yo'qotishdir.

Logopedik ta'sir o'tkazish mohiyat e'tibori bilan olganda maxsus pedagogik sistemalar yordamida yangi ko'nikmalarni tarbiyalash, notrg'ri krikimalarni oldiniga bo'g'ib, keyin yo'qotib yuborishdan iboratdir.

Logopedik ta'sirning asosiy vositasi – talaffuz kamchiliklarini bartaraf etishning maxsus usullarini qo'llash, ya'ni to'g'ri tuzilgan nutq mashqlari kompleksi va artikulyatsion gimnastikadan foydalanishdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish ishi 4 bosqichda olib boriladi: 1) tayyorlov davri, 2) tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish (tovushlar postanovkasi), 3) tovushlarning oson, ya'ni o'z-o'zidan talaffuz etiladigan bo'lishiga erishish - avtomatizatsiyasi, 4) almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farq qilish, tovushlar differensiyasi.Tayyorlov davri har doim o'tkazilishi shart emas. Ba'zi hollarda birligina oddiy mashq bilan tovushning o'z-o'zidan talaffuz etiladigan bo'lishiga erishish mumkin. Biroq ko'p hollarda tovushni qo'yish uchun bir qator tayyorlov ishlarini o'tkazish zarur. Masalan til tagidagi yuganchaning kalta bo'lishi tufayli bola "r" tovushini to'g'ri talaffuz etmasa, til uchini tepaga ko'tara olmasa, yuganchani bir qator artikulyatsion mashqlar yordamida o'z holiga keltirish, cho'zish mumkin.Tayyorlov bosqichida artikulyatsion apparatning harakatchanligini yaxshilash, nafasni mashq qilish, taqlidchanlikni rivojlantirish va keyingi bosqichlarda zarur bo'ladigan boshqa ko'nikmalarni tarbiyalash zarur.

Agar kishi talaffuzida kamchiliklar bo'lsa, eng avval noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish, ya'ni tovush talaffuzini yo'lga qo'yish, uning postanovkasi ustida ish olib boriladi.

O'rGANILGAN yangi tovushni bo'g'in, so'z, gaplarda, she'rlarda va umuman nutq faoliyatida to'g'ri qo'llashga o'rgatish – tovushning avtomatizatsiyasidir.

Yangi o'rGANILGAN tovushni boshqa o'xshash tovushlardan ajrata bilishga o'rgatish – differensiatsiya to'rtinchi bosqich sifatida o'tkaziladi.

Tovushlarni turli xil usullar yordamida to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish mumkin.

1. Taqlid usuli. Bunda logoped oynaga qarab kerakli bo‘lgan tovush artikulatsiyasini aniq qilib ko‘rsatadi, tovushni talaffuz etadi. Logopat esa uning harakatlariga taqlid qilish yo‘li bilan tovush talaffuzini o‘rganib boradi.

2. O‘xshash tovushni talaffuz ettirib turib, mexanik usuldan ham foydalinish.

Logopat bola to‘g‘ri talaffuz qila oladigan o‘xshash tovushni nutq apparati organlarining holatini tegishli asbob (shpatel, logopedik zondlar) yordamida o‘zgartiradi. Agar bolaga masalan, “k” tovushini to‘g‘ri talaffuz etishini o‘rgatmoqchi bo‘lsak biz unga ta – ta – ta kabi bo‘g‘inlarni takrorlash vazifasini beramiz. Bunda til uchi pastki tishlarga tegib turishi kerak. Bola shu bo‘g‘inlarni talaffuz etayotgan vaqtida logoped shpatel yoki zond yordamida til uchini asta bosib, tilni og‘iz ichkarirog‘iga itaradi. Bunda asta sekin ta – tya – kya – ka – ka kabi tovushlar chiqadi. Shuningdek “d” tovushining talaffuzidan foydalaniб “g” tovushini, “s” tovushidan foydalaniб “x” tovushi talaffuzini yo‘lga qo‘yish mumkin.

3. Aralash usul. Bu usul taqlid mexanik usulni va tushuntirish ishlarini o‘z ichiga oidi. Masalan, “s” tovush tajaffuzi o‘rgatilayotganda logoped til, tish, lablar qanday holatda bo‘lishi kerakligini bolaga tushuntiradi. Bola bunga tushunsa ham, lekin ixtiyoriy harakat malakasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli tilni kerakli holatga keltira olmaydi, “tili kelishmaydi”. Bunda biz shpatel bilan yordam beramiz.

Tovushlar avtomatizatsiyasini o‘tkazishda dastlabki bosqichlarda sodda yopiq bo‘g‘inlar, so‘ng ochiq, keyin esa murakkabroq brg‘in bo‘lishi mumkin. Lekin bolaning yoshiga, talaffuzidagi kamchiligining harakteriga qarab, mashq muddati har xil bo‘lishi mumkin.

Logopedik mashg‘ulotlar bir haftada kamida uch marta o‘tkazilishi kerak. Logopedik mashg‘ulotlar uchun material tanlashda oddiydan murakkabga o‘tish prinsipiiga asoslanish zarur. Bunda logoped fonetik talablarni doimo hisobga olib borishi kerak. Eng oldin talaffuz fonetik jihatdan oson tovush o‘rganiladi. Differensiatsiya bosqichida eng avval artikulatsiya jihatidan bir-biridan uzoq tovushlar, so‘ngra yaqin, o‘xshash tovushlar ustida ish olib boriladi.

Tovushlar avtomatizatsiyasi o‘tkazishda dastlabki bosqichlarda sodda yopiq bo‘g‘inlar, so‘ng ochiq, keyin esa murakkabroq bo‘g‘inlar beriladi. Ularning talaffuzi

o'zlashtirilgandan so'ng sodda so'zlar, gaplar talaffuziga o'tiladi va hokazo. Masalan, lo – la, oj – ma, gi – los, ix – los va hokazo. Agar bolada polimorf talaffuz defekti bo'lsa, bunday bolalar bilan bir nechta tovush talaffuzini bir vaqtning o'zida bartaraf etish ustida ish olib borish mumkin. Eng avval o'zining artikulatsiyasi bilan bir-biridan uzoq turadigan keskin farq qiladigan tovushlar ustida ish olib boriladi. Masalan, "r", "s", "y" tovushlar bir-biridan jihatdan жиҳатдан keskin farq qiladi. Shuning uchun bu uch tovushni bir vaqtda o'rgatish mumkin.

Lekin bola "s", "sh", "l", "r" tovushlarini noto'g'ri talaffuz qiladigan bo'lsa, "s" va "sh" yoki "l" va "r" tovushlari talaffuzini bir vaqtda tuzatish mumkin emas, chunki o'xshash tovushlarni bola bir-biri bilan almashtirib yuboradi.

SIRG'ALUVCHI TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLAR

Sirg'aluvchi (s, z, sh, j, ch,s) tovushlarning noto'g'ri talaffuzi sigmatizm, boshqa tovushlar bilan almashtirilishi parasigmatizm deb ataladi.

Logopediyada sigmatizmlarning 6 ta turi o'rganiladi:

1. Lab – tish sigmatizmi.
2. Tishlararo sigmatizm.
3. Tish oldi sigmatizmi.
4. Shipillovchi sigmatizm.
5. Yon sigmatizmi.
6. Burun sigmatizmi.

"S" tovushning hosil bo'lishi mexanizmi quyidagichadir.

1. Lablar yoyilgan, "kulib turadi".
2. Tishlarning orasida 1- 2 mm oraliq hosil bo'ladi.
3. Til uchi old qator pastki tish milkiga tiralib, tilning o'rta qismi bo'rtib turadi; uning yonlari esa yuqori jag' tishlariga tegadi.
4. Tovush boyamlari ochiq bo'ladi.
5. Havo oqimi til o'rtaosida hosil bo'lgan ariqchadan sirg'alib o'tadi.
6. Yumshoq tanglay ko'tarilgan bo'ladi.

"Z" tovushining hosil bo'lish mexanizmi ham xuddi "s" nikiga o'xshaydi. Faqat bu yerda un paychalari birikkan bo'lib, ovoz ishtiroy etadi. "S" tovushining fonetik

xususiyatlari: hosil bo'lish o'miga ko'ra – til oldi; usuliga ko'ra – sirg'aluvchi; ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra - jarangsiz undosh. "Z" esa jarangli tovushdir.

LAB – TISH SIGMATIZMI

Sigmatizmning bu xilida sirg'aluvchi "s", "z" tovushlar "f", "v", ga o'xshab talaffuz etiladi, chunki tovushlarning hosil bo'lishida pastki lab ishtirok etadi. Havo oqimi pastki lab va ustki tishlar o'rtasidagi oraliqdan o'tadi, shunga ko'ra talaffuzda "f" va "v" ga o'xhash tovush chiqadi. Lab – tish parasigmatizmida z – v, s – v yoki "f" ga almashtiriladi.

Lab – tish sigmatizmlarni bartaraf etish uchun eng avval bolaning pastki labini pastga tushirishga o'rgatmoq zarur. Logoped bolaga "s" tovushining to'g'ri artikulatsiyasini tushuntirishi lozim. Agar logopad tushunmasa, oynaga qarab,to'g'ri artikulatsiyani bajara olmasa, u bilan lablar gimnastikasini o'tkazish tavsiya etiladi. Gimnastika : lablarni yumib, orasini ochish, ya'ni og'zini yushmanish, pastki tishlarni ko'rsatish. Agar kerak bo'lsa, pastki labni mexanik ravishda shpatel yoki logopedik zond bilan tushirish mumkin.

Shu bilan bir vaqtida "s" fonemasini sodda bo'g'in va so'zlarda cho'zib talaffuz etishga o'rgatish mashqlari ham o'tkaziladi. Bunday mashqlarni bola shpatelsiz labini tushira olmasa ham o'tkazaverish kerak.

Bundan tashqari lab – tish sigmatizmini "f" tovushni talaffuz ettrish yo'li bilan to'g'rilash mumkin.. Logopad "f" tovushini talaffuz etayotganida, logoped uning pastki labini asta-sekin shpatel yordamida tushiradi. Natijada "s" tovushi hosil bo'ladi.

Shpatel bilan o'tkaziladigan mashq bir necha marta logopad harakatlarini o'zlashtirib olguniga qadar davom ettiriladi. So'ngra yangi o'rganilgan tovush mustaqil ravishda sodda bo'g'in va suzlarida so'zlarda talaffuz etiladi. Keyinchalik tovush talaffuzining avtomatizatsiyasi va differensiatsiyasi ustida ish olib boriladi.

TISHLAR ARO SIGMATIZM

Til yuqori va pastki tishlarning orasida bo'lganligi uchun "s" tovushining hosil bo'lishida ishtirok etadigan hushtaknamo tovush o'rniغا kuchsiz shovqin eshitiladi. Bu patologiyada "z" va "s" tovushlari talaffuzi ham buzilishi mumkin.

Tishlararo sigmatizmlarning kelib chiqishiga tish qatorlarining rosa jipslashmay, jag'lar yumilganida ochiq qolishi (oldingi ochiq prikus), tilning uzun, kam harakat bo'lishi, burun bo'shilig'idagi adenoidlar sabab bo'lishi mumkin. Shuni ham ayтиб о'tish kerakki, tishlararo artikulatsiya faqatgina sirg'aluvchi tovushlardaғina emas, balki boshqa til oldi tovushlarda, masalan "t", "d", "n", "r", "l" tovushlarida ham bo'lishi mumkin.

Tishlararo sigmatizmni bartaraf etish uchun avvalo logopadga tilni pastki tish orqasiga qo'yishini o'rgatish kerak. Buning uchun bolaga "s" tovushini tishni jipslashgan holatda cho'zib talaffuz ettiriladi. Logoped oyna orqali to'g'ri artikulatsiyani ko'rsatib turmog'i lozim.

Bola logopeda ,tegishli harakatlarga qarab, taqlid qiladi.

TISH OLDI SIGMATIZMI

Agar normada sirg'aluvchi s, z tovushlarining hosil bo'lishida til uchi pastki tishlarga tiralib tursa, bu turdag'i sigmatizmida til uchi yuqori tishlarga tegib turadi. Natijada s, z, s tovushlari t, d tovushlariga o'xshab talaffuz etiladi. Masalan: soch-toch; sirk-tirk;somon-tomon; zina-tina; soat-toat va hokazo.

Tish oldi sigmatizmni bartaraf etishda 2 ta usuldan foydalanish mumkin.

1. Havo tishlar orasidan chiqadigan bo'lishi uchun til uchi shpatel yoki zond yordamida pastki tishlar orqasiga tushirib, oraliq hosil qilish va I yoki E tovushlari talaffuzidan foydalanish orqali s,z, s tovushlarining talaffuziga o'tiladi.

2. Tilni yoyilgan holda tishlar orasiga qo'yib, uchiga puflash taysiya etiladi. Natijada "s" fonemasi hosil bo'ladi. Shu vaqtida logoped zond yoki shpatel yordamida asta-sekin tilni talab etiladigan holatiga keltiradi, ya'ni pastki tishlar orqasiga tushiradi.

Logopad mustaqil ravishda "s" fonemasini talaffuz etishga o'rganganidan so'ng, uning bo'g'in va so'zlardagi avtomatizatsiyasiga erishish mumkin. Avtomatizatsiyadan so'ng uning differensiatsiyasi ham o'tkaziladi.

Bu usulni shipillovchi yon va burun sigmatizmlarni bartaraf etishda ham qo'llash mumkin.

SHIPILLOVCHI SIGMATIZM

Shipillovchi sigmatizmida s, s va z tovushlarni shipillovchi tovushlar (j, sh, ch)ga o‘xshab talaffuz qilinadi. Shipillovchi sigmatizmning eng og‘ir shakllarida parasigmatizmlar kuzatiladi. Masalan, sirk-chirk, zina-jina, soat-shoat, sovun-shovun. Bu turdagи sigmatizm milkning tishdan uzoq joylashganligi tufayli hosil bo‘ladi. Uning asosiy salbiy tomoni shundaki, bu kamchilik keyinchalik yozuvda ham aks etib, disgrafiya kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

YON SIGMATIZMI

Bunda “s” tovushining talaffuzi tishlar jipslashgan holda hosil qilinadi – sh tovushi talaffuziga o‘xshaydi, chunki til uchi va o‘rtasi (oldingi qismi) yuqori tish va alveolalarga taqalib turadi. Havo oqimi til o‘rtasidagi ariqchadan chiqish o‘rniga yon tomonlardan chiqadi. Ba’zilarda bir yondan, ba’zilarda esa ikki yondan ham havo chiqishi mumkin.

BURUN SIGMATIZMI

Bu kamchilikka xos artikulatsiya quyidagichadir: tilning orqa qismi baland ko‘tarilib, yumshoq tanglayga tegib turadi. Natijada havo oqimi burun bo‘shlig‘idan chiqadi. Sirg‘aluvchi tovushlar burunli h tovushi sifatida hosil bo‘ladi. Masalan, soat-shoat, sigir-higir, zina-hina.

Burun sigmatizmini bartaraf etish uchun bolaga havo oqimini og‘izdan chiqarishni o‘rgatish kerak (til uchiga puflash mashqi qo‘llaniladi). Shu bilan bir vaqtida tilni kerakli shakllarga keltirish lozim. Buning uchun tilning orqa qismini ko‘tarmaslikka o‘rgatish kerak. Burun sigmatizmini tuzatish uchun s, z tovushlarini tishlararo s, z tovushlaridan o‘rgata borish tavsiya etiladi. Shuni ham aytish kerakki, burun sigmatizmi unli tovushlarning burun ishtirokida talaffuz etilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun logoped burun sigmatizmini bartaraf etish ustida ish olib borganida unli tovushlar talaffuziga ham e’tibor bermog‘i lozim.

AFFRIKAT S-TS (QORISHIQ UNDOSH)

S – til oldi tovushi bo‘lib, sirg‘aluvchi tovushlar toifasiga kiradi. Lotin grafikasida u S harfi bilan belgilanadi.

Qorishiq S tovushining hosil bo‘lishi quyidagichadir: tilning oldingi qismi yuqori milkka taqaladi, lekin odatdagicha portlash yuz bermay, og‘iz bo‘shlig‘iga kelgan havo asosan sirg‘alib chiqadi. S tovushini to‘g‘ri talaffuz ettirish uchun eng avval bolani t, s tovushlarini to‘g‘ri talaffuz ettirishga o‘rgatish lozim. Chunki s tovushi ts tovushlarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi.

Normada t tovushi talaffuzida til uchi yuqori tishlarga tegib tursa, sigmatizmida t tovushi bilan yaxshiroq qo‘shilib ketishi uchun tilning pastki tishlarga taqaladigan bo‘lishiga erishish lozim.

«S» tovushining avtomatizatsiyasini yopiq bo‘g‘inlardan boshlash kerak, chunki ochiq bo‘g‘inlarda uning t-s tovushlariga bo‘linishi oson..

J –SH TOVUSHLARI

J, SH tovushlari ham sirg‘aluvchilar toifasiga kiradi. Shuning uchun ularning talaffuzida ham til-tish, tishlararo, til-oldi, yon va burun sigmatizmlari kuzatilishi mumkin. Bu turdagи sigmatizmlar sh va j tovushlarini boshqa sirg‘aluvchi tovushlar bilan adashtirib talaffuz etilishi (parasigmatizm), ularni xuddi s tovushining burun, til-tish, tishlararo talaffuziga o‘xshab ketishi bilan ifodalanadi. Bu esa bolaga o‘qish, yozish jarayonini o‘zlashtirishga halaqit beradi.

Ba’zi bolalarda noto‘g‘ri talaffuz etiladigan sh yoki j tovushi barcha sirg‘aluvchilar o‘rniga ishlataladi. Masalan, sovun-shovun, soat-shoat, zina-jina, Zulfiya-Julfiya va hokazo.

Parasigmatizmlardan sh-s, z-j, ch-s kabilar ayniqlsa ko‘p uchrab turadi: sholq‘om-sog‘lom, mashina-masina, mushuk-musik, Zuhra-Juhra, chełak-selak.

Ba’zi bir bolalarda artikulatsiya apparati yaxshi rivojlanmaganligi natijasida sirg‘aluvchi tovushlar noto‘g‘ri talaffuz etiladi. Bunday bolalarda tovush talaffuzini birdan yo‘lga qo‘yish, o‘rgatish mumkin emas. Avval tayyorlov mashqlari, gimnastika o‘tkazilishi zarur. Tovush talaffuzi to‘la yo‘lga qo‘yilmaguncha bolaga shu tovush haqida gapirish kerak emas. Masalan, hozir tilimizni bunday qilsak, sh tovushi hosil bo‘ladi deyish ham mumkin emas. Agar bolada barcha sirg‘aluvchi tovushlar noto‘g‘ri talaffuz etilsa, ishni S tovushidan boshlamoq zarur.

SH va J fonemalari talaffuzida lablar bilinar-bilinmas yurmaloq shaklga kirib, til oldinga sal bukiladi.Uning o‘rtta qismi ko‘tarilib, yonlari yuqori jag‘ tishlarining ichki tomoniga tegadi. Til uchi alveolalar tomonga yo‘nalgan bo‘lib, shu yerda torayish hosil qiladi. Til o‘rtasida keng ariqcha hosil bo‘ladi.Undan kuchli havo oqimi o‘tadi. Tilning orqa qismi salgina ko‘tariladi. Yurnshoq tanglay ko‘tarilgan bo‘ladi.

SH va J tovushlarini talaffuzini yo‘lga qo‘yish. SH tovushini S tovushini talaffuzidan o‘rgatish mumkin. Buning uchun bola S tovushini cho‘zib talaffuz etayotganida, logoped uning tilini shpatel yordamida alveolalarning yoniga ko‘taradi. Natijada sh tovushi hosil bo‘ladi. Bundan tashqari esa as bo‘g‘inidan ham sh tovushi talaffuzini yo‘lga qo‘yish mumkin. Bunda ham logoped bola as deb turganida uning tilini zond yordamida ko‘taradi. J tovushi SH tovushidan unga ovoz berib, talaffuz ettirish yo‘li bilan hosil qilinadi, ayni vaqtida havo oqimi kuchsizroq bo‘ladi.

CH TOVUSHI

CH tovushi qorishiq fonemadir. U t va sh tovushlaridan hosil bo‘ladi. Normada bu tovushning hosil bo‘lishida lablar cho‘chchayib turadi. Tilning harakatida ikkita payt kuzatiladi.

1. Til uchi yuqori tish va milk o‘rtasiga taqaladi.
2. So‘ngra portlash hosil bo‘lgandan so‘ng orqaroqdagi alveolalarga tayanib suriladi.Tilning orqa qismi shu zahoti ko‘tarilib, qattiq tanglayga yaqinlashadi. Yumshoq tanglay ko‘tariladi. Ovoz boylamlari ochiq, havo oqimi kuchli bo‘ladi.

CH tovushining talaffuzini o‘rgatish maqsadida bolaga at bo‘g‘ini ketma-ket ayttiriladi. Shu zahoti til uchi shpatel bilan yuqori tishlar orqasiga ko‘tariladi, lablar cho‘chchaytiriladi. Bu holda at o‘rniga ach, ot-och, ut-uch tovushlari hosil bo‘ladi va eshitiladi.

CH tovushini talaffuz etish uchun bola t va sh tovushlarini yaxshi talaffuz eta bilishi kerak. Agar logopad, t, sh, ch tovushlarini talaffuz eta olmasa logopedik ishni sh tovushi talaffuzini yo‘lga qo‘yishdan boshlash kerak. So‘ngra t, keyin esa ch tovushiga o‘tish.

Sigmatizm va parasigmatizm turlarini bartaraf etish usullarini ayniqsa ko‘p noto‘g‘ri talaffuz etiladigan, s, z, sh va boshqa tovushlar misolida yoritib berishga

harakat qildik. Xuddi shu usullarni sirg' aluvchi boshqa tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda ham ko'llash mumkin.

ROTATSIZM VA PARAROTATSIZM

Nutqda R tovushini talaffuz etolmaslik yoki noto'g'ri talaffuz etish rotatsizm deyiladi. Uni boshqa tovushlar bilan almashtirilishi pararotatsizmdir.

Normada r tovushining hosil bo'lishida artikulyatsion apparat aktiv ishtirot etadi. Bu tovush talaffuzida lablarning qanday shaklga kelishi r dan keyingi unli tovushga bog'liq. Agarda r dan keyin i tovushi keladigan bo'lsa, lablar «kulib» turadi.

Tishlar o'rtasida ma'lum oraliq bo'lishi lozim. Til qoshiqcha shaklini oladi. Til yonlari yuqori jag' tishlariga tegib turadi. Oldingi qism esa alveolalarga tegib turadi va kuchli havo oqimi ta'sirida tebranadi. Yumshoq tanglay ko'tariladi-da ovoz boyamlari jipslashib, ovoz hosil qiladi.

Logopedik amaliyotda rotatsizmning quyidagi turlari uchrab turadi:

1. R tovushini umuman talaffuz etolmaslik – taroq-taoq, parta-pata, o'rtoq-o'toq.
2. Yumshatib talaffuz etilishi – ruchka-ryuchka, ro'mol-ryomol, karam-karyam
3. R tovushini bo'g'izdan chiqarib tomoqni qirib talaffuz etish – randa-g'anda, ro'mol-g'o'mol.

4. Yon rotatsizmi. Bu tipdag'i rotatsizmda til uchi o'rniga til yonlari tebranadi. Shuning uchun, masalan, taroq-tariyoq, parta-parilta, shaklida talaffuz etiladi, ya'ni r o'rniga «rl» kabi tovush eshitiladi.

5. «Aravakash» rotatsizm. Bunda r tovushi mahkam jipslashgan lablarning tebranish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, prr..

Pararotatsizmlar. Bularning turi ham har xil: chunonchi «r» tovushi o'miga «a», «v», «d» tovushlari va boshqalar talaffuz etilishi mumkin. Masalan archa-adcha, ari-adi, xo'roz-xo'noz,o'rik-o'niq, archa-aycha, anor-anoy, archa-avcha.

Rotatsizm va pararotatsizmlarni bartaraf etishda turli metodlarni qo'llash mumkin.

1. Oynaga qarab taqlid qilish. Bu usul eng oson, yengil rotatsizmlarni bartaraf etishda qo'llaniladi. R tovushining artikulatsiyasini o'rgatishda tayyorlov mashqlarining roli nihoyatda katta. Ular ikki yo'nalishda olib boriladi.

Birinchisi r tovushining asosan vibratsiyasiz artikulatsiyasini o'rgatish, ya'ni frikativ r ni hosil qilish.

Ikkinchisi tilning vibratsiyasini hosil qilish. Shu maqsadda quyidagi tayyorlov mashqlarini o'tkazish mumkin.

A) Keng yoyilgan tilni yuqori labga ko'tarib, tekkazish. Bunda til yonlari ham yuqori labga zich bo'lib turishi kerak. Pastki lab tilga tegmasligi lozim.

B) Tilni shu shaklda tutib turib, tishlar orqasiga tortiladi.

Tilning uchi harakatlarini rivojlantirish maqsadida quyidagi gimnastika o'tkaziladi:

A)til uchini yuqori labga – pastki labga, yuqori tishlar orasiga – pastki tishlar orasiga qo'yish.

B) Chapga-o'ngga (og'iz burchaklariga), so'ngra o'ngga- chapga harakat qildirish

V) Lablarni aylanasiga yalash; lab va jag'lar o'rtasida tilni aylanasiga harakatlanirish (chapdan o'ngga va teskari yo'nalishda). Bunda til uchi lablar tashqarisiga chiqib ketmasligiga e'tibor berish kerak. Gimnastikani bolalar oynaga qarab bajarishi lozim.

Tayyorlov mashqlarini o'tkazishda logoped bolalarga shpatel bilan yordam berishi mumkin yoki bolaning o'zi barmoqchasi bilan tilni kerakli holatga keltiradi. Bolalar bilan til vibratsiyasini hosil qilish, kerakli holatga keltirishga yordam beradigan mashqlar ham o'tkaziladi. Bu mashqlarni har xil ovozlarga taqlid qilish tariqasida o'tkazish va ayni vaqtida bolaga tegishli savollarni berib, uni taqlid qilib ko'rishga undash mumkin, chunonchi, mushuk suvni qanday ichadi? Ot chopganda qanday tovush eshitiladi? va hokazo.

Titrovsiz-Frikativ tovushni sh-j tovushlaridan hosil qilish mumkin. Buning uchun og'izni kattaroq ochib, til uchini alveolalarga tekkazib turib, sh yoki j tovushini ayttirish ravsiya etiladi. Keyinchalik bu usulda hosil bo'lgan tovushni mustahkamlash, avtomatlashtirish maqsadida frikativ tovushni avval bo'g'lnlarda, so'ngra so'z va gaplarda talaffuz etishga o'rgatish mashqlari o'tkaziladi. Logoped bu bosqichda frikativ r tovushining to'g'ri aytishiga ko'proq e'tibor bermog'i lozim.

Agar sh-j tovushlari ham noto'g'ri talaffuz etiladigan bo'lsa, logoped oldin shu tovushlar talaffuzini o'rgatishi kerak.

Tilni tebrantirishni ham bir necha usul bilan ishlab chiqish, o'rgatish mumkin.

1. Oyna qarshisida o'tirgan bolaga og'zini keng ochtirib, til uchini yuqori tishlar orqasiga ko'tarib «z» tovushini cho'zib aytirish tavsiya etiladi. Shu payt logoped shpatel yordamida tilning tagida tebranma harakatlar qiladi. Natijada r tovushining hosil bo'lishida ishtirok etadigan titrash hosil bo'ladi.

2. Til uchini tepaga ko'tarib turib, «t» tovushini bir dam bilan ketma-ket bir necha marta talaffuz etiladi. Ayni vaqtda tovushlar qatorining eng oxirini urg'u bilan talaffuz etmoq kerak –ttt. Xuddi shu ishni «d» tovushi asosida ham amalga oshirish mumkin – dd, ddd, dddd.

LAMBDATSIZM VA PARALAMBDATSIZM

L tovushining noto'g'ri talaffuz etilishi lambdatsizmdir. Uni boshqa tovushlar bilan almashtirib talaffuz etilishi paralambdatsizm deyiladi.

L tovushining hosil bo'lish mexanizmi quyidagicha: bu tovush talaffuzida lablaming qanday holatda bo'lishi shu tovushdan keyin kelayotgan unliga bog'liq. Tishlar orasida ma'lum oraliq bo'lishi kerak. Til uchi yuqori tishlarga yoki milkka tegib turadi. Uning yonlari esa yuqori jag' tishlariga tegmasligi kerak., chunki l tovushi hosil bo'lishida havo oqimi yon tomonlaridan o'tadi. Ba'zilarida havo oqimi bir yondan, ko'proq chap tomonidan chiqadi. Bu normal holatdir. Tilning orqa qismi esa ko'tarilib, til egar shakliga keladi. Yumshoq tanglay ko'tariladi. Ovoz boylamlari jipslashadi.

Lambdatsizmning turlari rotatsizmning turlariga o'xshashdir. Ular qo'yidagicha:

1. L tovushi umuman talaffuz etimasligi, masalan, sholg'om-shog'om, olcha-ocha;
2. L tovushini yumshatibroq talaffuz etilishi, masalan, olcha-olcha, olma-olma, lug'at-lyug'at;
3. Burun lambdatsizmi. Bunda yumshoq tanglay tilning orqa qismi bilan jipslashadi, natijada havo oqimi burun bo'shilig'idan o'tadi.

Paralambdatsizmlarga kelganda bularning turlari ham ko'p, xususan l tovushi, r, v, u tovushlari bilan almashtirilib talaffuz etiladi. Masalan, gilos-givos, olma-ovma; lampa-uampa, olma-ouma, ro'mol-ro'mou. Ba'zan L o'rniiga ruscha «o» tovushiga

o'xshash tovush talaffuz etilishi mumkin. Masalan, olma-oo'ma, olcha-oo'cha, giioso-gio'os. Paralambdaatsizmnning boshqa turlarida L tovushini y, n, d tovushlari bilan almashtirilishi mumkin, masalan lampa-yampa, kalish-kayish, lola-nona, lampa-nampa, bola-boda, olma-odma.

Lambdatsizmn bartaraf etishda taqlid yo'lini qrilash kamdan-kam hollarda natija beradi. Chunki uning artikulatsiyasi murakkabroqdir. Bu tovushni talaffuzini yo'lga qo'yishdan oldin tayyorlov mashqlarini o'tkazish foydalidir. Bularga lablarni cho'chchaytirish, yoyish, cho'zish kabi mashqlar kiradi. Til bilan quyidagi gimnastika o'tkaziladi: tilni keng yoyib ko'rsatish, kurak shakliga keltirish, uni chaynash, tilning eng keng qismida qog'ozchani puflab tashlash, tilni keng qilib ko'rsatish. Shu mashqlar orqali bola havo oqimini tilning yon tomonlaridan chiqarishga o'rganadi, tilni kerakli holatda ushlay oladi.

«L» TOVUSHI TALAFFUZINI YO'LGA QO'YISH

Logopad oynaga qarab turib logopedning ko'rsatganini taqlid yo'lli bilan bajaradi. Bunda logoped tilni keng yoyib tishlar orasiga qo'yadi. Shu holatda bolaga a yoki rus tilidagi o'unlilari ayttiriladi. Bunda logoped harakatlarni yaxshilab tushuntirib beradi.

Shu holatda aytilgan a yoki o'tovushi L tovushiga o'xshab ketadi. Lekin logoped buni bolaga aytishi kerak emas, chunki bola oldin noto'g'ri talaffuz etib yurgan l tovushiga o'tib ketadi.

Agar bola yuqorida aytib o'tilganlarni bajara olmasa shu mashqlarda qiyalsa, havo oqimini tilning yon tomonlaridan chiqara olmasa, og'iz bo'shilig'ini kerakli shaklga keltira olmasa, bola bilan quyidagi tayyorlov mashqlari o'tkaziladi.

Logoped keng yoyilgan tilini tishlab, lunjlarini bo'rttirib turib puflashi kerak. Bola puflashni o'rgangandan so'ng xuddi shu mashqni ovoz chiqarib turib bajaradi. Natijada shovqin aralash L tovushi hosil bo'ladi. So'ngra l tovushi bo'g'in va so'zlardagi talaffuzi avtomatlashtiriladi. Avtomatizatsiyalashtirish davomida shovqinsiz L tovushi hosil bo'lishiga asta-sekin erishiladi. Bu ishnii "al" kabi yopiq bo'g'inlar talaffuzini mashq qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunday bo'g'inlar talaffuzi o'zlashtirilgandan so'ng "al-a" so'ngra "la" bo'g'inlari ustida ish olib boriladi. Keyingi

bosqichlarda (Ali) so‘zidagi «i» tovushi, «o» va «o»lardan tuzilgan bo‘g‘inlar ustida ish olib boriladi. Masalan, ala, ali, alo, la, lu, li vujudga keltiriladi.

L tovushini to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatishda bolani havo oqimini yen tomonlardan chiqara bilishiga o‘rgatish juda qiyin bo‘ladi. Ayniqsa I tovushini N tovushi bilan almashtirilishini yengish qiyin. Logoped maxsus zond yoki shpatel bilan tilning yon qismlarini bosib turib, til uchini yuqori tishlarga tekkaшиб turadi. Bu holda havo oqimi tilning yon qismi bilan yuqori jag‘ tishlari o‘rtasida hosil bo‘ladigan yo‘ldan o‘tadi. Zond o‘rniga qalam yoki plastmassadan tayyorlangan tayoqchani qo‘llash mumkin. Agar «I tovushi «v» bilan almashtirilsa, logoped pastki labni zond, shpatel yoki barmog‘i bilan tushiradi. Shunday usul bilan paralambdaatsizm tuzatiladi. L tovushi o‘zbek tilidagi «v» tovushining tusini qo‘sib turib talaffuz etilishi ham mumkin, masalan; lampa-vampa.

Bu kamchilikni ham lablarning cho‘chayishiga yo‘l qo‘ymasdan, ularni kerakli xolatga keltirishyo‘li bilan tuzatish mumkin.

Burun lambdatsizmida havo oqimini og‘iz bo‘shlig‘idan, tilning yon tomonlaridan chiqarishga o‘rgatish kerak.

TIL ORQA K, G, X TOVUSHLARI TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLAR.

K tovushining noto‘g‘ri talaffuz etilishi – kappatsizm va s ni boshqa tovush bilan almashtirilishi parakappatsizm deyiladi. G tovushi talaffuzidagi kamchilik gammatsizm va paragammatsizm, X tovushi talaffuzidagi kamchilik esa xitizm va paraxitizm deyiladi.

Ularni quyidagi turlari amalda ko‘proq uchraydi.

1. K – T (kino-tino, kitob-titob, kurk-turka, kalit-talit)
2. G – D (gilos-dilos, gilam-dilam, yigirma-yidirma)

3. X – K yoki X – S (xat-kat, xat-sat) Til orqa tovushlarida lablar holati keyin so‘zda qanday unli tovush kelishiga bog‘liq. Til uchi odatda pastki tishlar orqasida bo‘ladi. Tilni o‘ta qismi baland ko‘tarilib, g, k tovushlarida qattiq tanglayga tegib turadi. X tovushida esa tor oraliq hosil qiladi. G, K tovushida kuchli havo oqimi tilning o‘rta qismi va tanglay orasidan portlab, X tovushida esa sirg‘alib chiqadi. Til orqa tovushlari talaffuzida yumshoq tanglay ko‘tarilib turadi. K – X tovushlarida ovoz

boylamlari jipslashmay, tebranmay turadi. G tovushida esa ovoz boylamlari jipslashib tebranadi. K tovushini to‘gri talaffuz etishga o‘rgatish uchun : bolaga ta bo‘g‘inini ketma-ket ayttiriladi (ta-ta-ta). Shu zaxoti til o‘rtasini shpatel bilan bosib, orqa surilsa, kya-ky-a-ky-a kabi tovushlar, til o‘rtasi yanada orqaroqqa surilganida esa ka-ka-ka kabi tovushlar hosil bo‘ladi.Bola k tovushini oldin shpatel yordamida, keyin esa mustaqil ravishda talaffuz etishga asta-sekin o‘rganadi. Shundan keyin k tovushi talaffuzini avval bo‘g‘inlarda, so‘ngra so‘z va gaplarda mustahkamlash mumkin.

G – X tovushlari talaffuzini ham xuddi shu usul bilan o‘rgatish mumkin. Ammo g tovushini d-dan, ya’ni da-da-da, x – tovushini esa s tovushidan, ya’ni sa-sa kabilardan o‘rgatiladi.

YOTATSIZM

Nutqda y tovushi talaffuz etilmasligi, noto‘g‘ri talaffuz etilishi yotatsizrn deyiladi. Uni boshqa tovushlar bilan almashtirib talaffuz etish parayotatsizmdir. Y tovushi kamchiliqi I tovushi bilan almashtirilishi mumkin.. Masalan, ya-lya, suyak-sulyak, yamoq-lyamoq, yangi-lyangi yoki yomg‘ir-lyomg‘ir, quyon-qulyon, ye-l-yelka, yer-ler; y tovushi umuman talaffuz etilmasligi hollari ham uchrab turadi. Shuningdek Y tovushi o‘rniga I tovushi talaffuz etiladigan hollari ham bo‘lishi mumkin. Masalan, loy-lo, boy-boi, boy-bol, loy-loi. Y tovushi to‘g‘ri talaffuz etilganida tilning oldingi qismi odatda pastki tishlarga tegib turadi, tilning o‘rta qismi qattiq egilgan bo‘lib, tanglay bilan havo uchun tor yo‘lak(oraliq) hosil qiladi.

Y tovushi talaffuz etilayotgan paytda ovoz boylamlari jipslashib, tebranib turadi. Yumshoq tanglay havoni og‘iz bo‘shlig‘idan o‘tishga yo‘l ochib, ko‘tariladi.Havo oqimi til va tanglay o‘rtasidagi yo‘lakchadan o‘tib, y tovushini hosil qiladi.

Y tovushini turli xil metodlar yordamida to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish mumkin. Tovush talaffuzini eshitib turib, keyin shunga taqlid qilish yo‘li bilan o‘rganish. Bunda bolaga oyna orkali tovushning to‘g‘ri artikulatsiyasi tushuntiriladi.

Nutq kamchiliklari, ayrim tovushlar talaffuzidagi yetishmovchiliklar yuqorida keltirib o‘tilganlarning o‘zi bilan tugamaydi. Boshqa tovushlar, bo‘g‘inlar, hattoki so‘zlar talaffuzidagi odat bo‘lib qolgan boshqa kamchiliklar ham uchrab turadi.Biz shularning, nazarimizda muhim bo‘lib ko‘ringan xillari ustidagina qisqacha to‘xtalib

o‘tdik. Asosiy vazifa nutq kamchiliklarini vaqtida payqab olib, shunday kamchiliklarni bog‘cha yoki quyi sinflar sharoitlarida bartaraf etish choralarini ko‘rish, ota-onas, tarbiyachilar va boshlang‘ich sind o‘qituvchilari o‘z imkoniyatlari bilan ularni bartaraf etolmaydigan hollarda esa logopad bolalarni tegishli muassasalarga – psixonevrolog va logopedlarga vaqtida yuborib, davolatishdir.

ADABIYOT

- 1.M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov. O‘zbek tili. T., 1966
- 2.T.B.Filichyova i dr. Osnovi logopedii. M., Prosvesheniye, 1989.
- 3.R.Shomaxmudova, L.R.Muminova. Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. T., O‘qituvchi, 1981
- 4.M.Fomichyova, K.Shodiyeva. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish.T.,O‘qituvchi, 1984
- 5.M.F.Fomichyova. Vospitaniye u detey pravilnogo proiznosheniya. M., 1981
6. G.Kashe. Ispravleniye nedostatkov rechi u doshkoñnikov. M., 1972
7. Logopediya . Pod red.L.S.Volkovoy M., Prosvesheniye, 1989
- 8 L.R.Muminova, M.YU.Ayupova va boshqalar. Logopediya.T., O‘qituvchi, 1993

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dislaliya nuqsonini ta’riflab bering.
2. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nimadan kelib chiqadi?
3. Dislaliyaning qaysi turlari, ko‘rinishlari mavjud?
4. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar qaysi yollar bilan bartaraf etiladi?
5. Sirg‘aluvchi tovushlar talaffuzida kuzatiladigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib, aytib bering.
6. Rotatsizm va pararotatsizmni ta’riflab bering.
7. L tovushining noto‘g‘ri talaffuz etilishi va bu nuqsonni bartaraf etish usullari.
8. Til orqa tovushlarini noto‘g‘ri talaffuzi va uni bartaraf etish usullari.
9. Rotatsizm va uni bartaraf etish yo‘llari.
- 10.Jarangli talaffuz etish tariqasidagi nuqsonlarni ta’riflang.
- 11.Fonematiķ eshitish va uni shakllanish yo‘llari.

8bob RINOLALIYA VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

8.1. RINOLALIYA NUQSONINING TA'RIFI

Reja

- 1. Rinolaliya nuqsonini ta'rifi.**
- 2. Rinolaliyaning q turlari**
- 3. Rinolaliyaning kelib chiqish sabablari**
- 4.Rinolaliyani oldini olish**

Rinolaliya, ya'ni dimoqdan, dimoq bilan gapirish, tovushlar talaffuzi va ovoz tembrining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik kamchiliklari, o'zgarishlari natijasida buzilib aytilishidir. Rinolaliya og'iz va burun bo'shliqlari o'rtasida to'siq yo'qligidan yoki shu bo'shliqlar bitib qolganidan kelib chiqadi.

Artikulyatsion apparatning tuzilishidagi kamchiliklarga oid ma'lumotlar dastlab XIX asr shifokorlarining ilmiy asarlarida paydo bo'la boshladи.

V.I.Oltushevskiy nutq kamchiliklarini o'rganib, adabiyotda o'rgatilgan ma'lumotlarni umumlashtirib nutq kamchiliklarini tasniflagan va talaffuz kamchiliklarini tegishli guruhlarga ajratgan. U artikulyatsion apparat tuzilishining buzilishi natijasida kelib chiqqan tug'ma yoki hayot davomida orttirilgan kamchiliklarni mexanik dislaliya deb atagan. Rinolaliyaga esa dislaliyaning bir turi deb qaralgan.

Rinolaliya YE.F.Rau (1933), Z.G.Nelyubova (1939), M.Morli, V.V.Kukol (1941), A.G.Ippolitova (1955, 1963), I.I.Yermakova (1984), G.V.Chirkina (1989) va boshqalar tomonidan ayniqlashtirilgan. Ularning fikricha, rinolaliyaning oldini olish choralarini ko'rish, korreksion-tarbiyaviy logopediya ish sistemasini to'g'ri tashkil etish, ota-onalarning o'z boalalarini vaqtida mutaxassis-shifokor, logopedga ko'rsatib davolatishi muhim ahamiyatga egadir.

Boladagi kamchilikning turini aniqlash va unga tegishli yordam ko'rsatish hozirgi logopediya fanining muhim muammolaridan bo'lib hisoblanadi va bola hayotida muhim rol o'yndaydi.

Ma'lumki nutq jarayonida yumshoq tanglay muhim vazifani bajaradi. Burunli tovushlardan tashqari xamma tovushlarning talaffuzida burun va burun-halqum

bo'shliqlari orasida tirqish hosil bo'ladi. Bu bo'shliqlarni bir-biridan ajratib turuvchi tirqish tanglay halqum tirqishi deb ataladi va u ikkita mushak guruhining bir vaqtida harakatlanishidan yuzaga keladi. Pardaning oldingi qismini yumshoq tanglay va halqumni orqa devorlarning mushaklari tashkil etadi. Yumshoq tanglayning ko'tarilishi yumshoq tanglay va halqum yon devorlari mushagining to'g'ri ishlashiga bog'liqdir.

Yumshoq tanglay ovoz hosil bo'lishida ko'tarilib, bo'rtib chiqadi. Bu bo'rtta, ya'ni do'nglik halqumning orqa devorlari bilan birlashadi. Ayni vaqtida, ovoz hosil bo'lishida yumshoq tanglay harakati bilan halqum orqali devorlari o'z holatini o'zgartiradi.

Mushaklarning qisqarishi natijasida halqum shilliq qavatning yuqori qismi ko'tariladi va burun halqumiga ochilish yo'lida ko'ndalang to'siq yoki do'mboqcha hosil bo'ladi.

Buning anatomik asosini halqumning yuqori mushaklari tashkil etadi. Yuqoridagi mushaklarning harakati natijasida tanglay-halqum tirqishi hosil bo'ladi.

Talaffuzdagi tovushlarning xususiyatiga qarab, yumshoq tanglay turlicha ko'tariladi va tirqish hajmi ham shunga yarasha o'zgaradi.

Tirqishning hajmiga qarab ovoz kuchi har xil buladi. I.I.Yermakova tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, unlilarni talaffuz qilish vaqtida tirqish hajmi katta bo'lar ekan.

Undosh tovushlar talaffuzida bu tirqish tor bo'ladi. Faqat M va N tovushlari talaffuzida esa bu tirqish umuman hosil bo'lmaydi va havo bemalol burunga o'tadi. Agarda shu organlarda kamchilik bo'lsa, u yoriq hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi yoki umuman burun-halqum yo'li to'silib qolishi mumkin. Natijada tovushlar talaffuzi o'zgarib, bu narsa nutq kamchiliklarini hosil qiladi. Rinolaliya deb ana shunday nutq kamchiliklariga aytildi. Bunda burun bo'shlig'inining rezonatorlik faoliyati yo'qolib qolishi natijasida ovoz, tovushlar talaffuzi noaniq,jonsiz harakterda bo'ladi, odam manqalanib gapiradi.

M.D. Dubov (1960) va keyinchalik N.L. Kozina ma'lumoti bo'yicha (1971) har yili Rossiyada besh mingdan ortiq tanglay kemitigi bilan tug'iladi. Tug'ma tanglay kemitigi hodisasini keltirib chiqaruvchi sabablar haligacha to'la aniqlanmagani.

Olimlardan YE.M. Nemchinova (1970), V.M. Messina (1971), G.V. Kruchinskiy (1974) fikrlariga ko'ra, homiladorlikning 7-8 haftaligida onaning og'ir kassaliklar (toksoplazmoz, parotit va boshqalar) bilan, og'ir ruhiy kechinmalarini boshidan kechirishi bolaning tanglay – lab kamchiliklari, kemtiklari bilan tug'ilishi mumkin.

Chet el adabiyotidagi ma'lumotlarga qaraganda, tanglay-lab tuzilishidagi nuqsonlar irsiy sabablarga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rinolaliya nuqsonini ta'riflab bering.
2. Rinolaliyaning qaysi turlari mavjud?
3. Rinolaliyaning kelib chiqish sabablari nimada?
4. Rinołaliya no'qsonining adabiyotlarda yoritilishi

8.2. RINOLALIYA XILLARINI ANIQLASH

Reja

1. Rinolaliya nuqsonining ta'rifi.
2. Rinolaliyaning turlari
3. Rinolaliyaning kelib chiqish sabablari
4. Yopiq rinolaliya
5. Ochiq rinolaliya

Bolada umuman rinolaliya borligini aniqlash qiyin emas. Avvalo, talaffuzning noaniq bo'lib, bolaning manqalanib gapirishi unda rinolaliya borligini ko'rsatadi. Biroq, rinolaliya ochiq yoki yopiq, yo bo'lmasa, ikkalasi birga qo'shilgan aralash holda bo'lishi mumkin. Uning xilini aniqlash uchun og'zini ochib, artikulyatsion nutq apparati ko'zdan kechiriladi. Ochiq rinolaliya tanglayda yoriq borligi darhol ko'zga tashlanadi. Agar bolada yopiq rinolaliya alomatlari birga ko'shilgan bo'lsa, aralash rinolaliyadir.

Rinolaliya xillarini aniq bilib olish uni bartaraf etishning yo'llarini to'g'ri belgilab olishga imkon beradi. Uning xillarini aniq ajratmay turib chora ko'rildigan bo'lsa, bu bolaga foyda berishi o'rniiga zarar keltirishi mumkin.

Rinolaliya qaysi holda bo'lishidan qat'iy nazar, u tabiatdan organik va funksional bo'ladi. Bu holatlarni biz quyida alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Ochiq, yopik va aralash rinolaliya.

Ochiq rinolaliya. Rinolaliyaning bu xili ham boshqa nutq kamchiliklari singari tabiatan organik, ya'ni artikulyatsion apparatning tuzilishidagi nuqsonga bog'liq bo'lgani holda, funksiyasi yetishmasligiga ham bog'liq bo'ladi. Organik ochiq rinolaliya artikulyatsion apparatdagi tug'ma yoki xayotda orttirilgan nuqson, yetishmovchilik tufayli yuzaga keladi. Tug'ma xillarining sababalar har xil, chunonchi yuqori jag' suyakning tish qatorlariga taqalib, yumshoq tanglay, lab kemtikligi, yumshoq tanglay yoki tilcha (laq-luq)ning kattaligi va boshqalar ana shunday nutq kamchiligiga olib keladi.

Yayotda orttirilgan ochiq rinolaliya sabablari ham ko'p. Ularning ko'proq uchraydiganlari tomoq, burun, xalqum bo'shlig'ining o'pkadan chiqayotgan havo burun bo'shlig'iga o'tib ketaverishiga olib boradigan o'zgarishlardir (masalan, bodomcha bezi shishib, yumshoq tanglayning yuqori ko'tarilishiga halal berishi).

Difteriya, gripp, tif kasalliklari munosabati bilan yumshoq tanglay qisman yoki butunlay falajlanib qolishi mumkin. Bunda yumshoq tanglay yaxshi ko'tarila olmasligi yoki butunlay ko'tarilmasligi natijasida burun – xalqum teshigi to'la yopilolmaydigan bo'lib qoladiki, bu ham rinolaliyaga sabab bo'ladi.

Agar falaj barham topib ketsa, manqalik ham o'z-o'zidan yo'qoladi. Ochiq rinolaliya burun-halqum yo'lidagi adenoid va boshqa o'smalar olib tashlangandan keyin ham paydo bo'ladi. Artikulyatsion apparatning turli xil travmalar yoki zahm tufayli shikastlanishi ham ochiq rinolaliyaga olib keladi.

Funksional ochiq rinolaliya. Bu xildagi rinolaliya sog'lig'i yaxshi bo'lmagan, zaif bolalarda muskul nerv apparatinining yaxshi ishlamasligi natijasida yumshoq tanglayning kam harakatchanligi, ya'ni gipokinez hollarda bo'lishiga, nafas olish jarayonining buzilganligiga bogliq bo'ladi. Eshituv funksiyasining buzilishi, qulog'i og'ir bolalarda o'z nutqini nazorat qilolmaslik, duduqlanuvchilarda og'iz brshlig'idagi o'zgarishlar tufayli yumshoq tanglayning ko'tarila olmasligi ham shunday rinolaliyaga olib keladi.

Yopiq rinolaliya. Rinolaliyaning bu turi ham tug'ma va hayotda orttirilgan bo'lishi mumkin. Yopiqrinolaliyaning tashqi belgilaridan biri shuki, bunday kamchiligi bor bola doimo og'zi ochiq yuradi. Yopiq rinolaliyaning ikkita shaklini: organik, funksional xillarini farqlash zarur.

Organik yopiq rinolaliya tomoq, burun-xalqum bo'shlig'i, burun bo'shliqlaridagi turli xil o'simtalar, shishlar, absesslar va boshqa xil kasalliklar natijasida kelib chiqadi.

Funksional yopiq rinolaliya. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra bu xildagi manqalik ayrim tovushlarni o'zlashtirish vaqtida paydo bo'ladi-da bosa o'sha tovushlarni o'zlashtirib, ularning talaffuzini o'rganib olganidan keyin bolaning atrofdagilarga yoki ajnabiy tildagi (masalan, fransuz tilidagi) nutq talaffuziga taqlid qilish ham funksional rinolaliyani keltirib chiqarishi mumkin.

Funksional yopiq rinolaliyaning odat bo'lib qolgan xili ham uchraydi. Bu aksari yumshoq tanglayni doimo ko'tarib turgan adenoidlar operatsiya yo'li bilan olib tashlanganidan so'ng yumshoq tanglayning avvaldagidek ko'tarilib turaverishiga o'rganib, odatlanib qolganiga bog'liq bo'ladi.

Yopiq rinolaliyada burun rezonatorlik vazifasini bajara olmaganligi sababli, ovoz tembri buzilib, odam turmov bo'lgan kasalga o'xshab, dimoq bilan manqalanib gapiradi, bunda unlilar ancha jonsiz chikadi. Burunlik undosh «M», «N» tovushlar esa yopiq Rinolaliyada havo burunga kira olmaydigan bo'lgani uchun boshqacha M-B, N-D bo'lib talaffuz etiladi.

Aralash rinolaliya. Aralash rinolaliyada ham ochiq ham yopiq rinolaliyani belgilari birga qo'shilgan, ya'ni bunda burun yo'li to'silib qolgan, ustiga tanglay-halqum pardasida yetishmovchilik ham bo'ladi. Burun tovushlari yopiq rinolaliya singari, boshqa tovushlar esa ochiq rinolaliya singari talaffuz qilinadi. Aralash rinolaliya ham organik yo funksional bo'lishi mumkin. Organik xiliga yumshoq tanglayning kaltaligi yoki falajligi sabab bo'lsa, funksional xilga tanglay-halqum yorig'inining funksiyasi o'zgarishi natijasida burun yo'lining to'silib qolishiga sabab bo'ladi.

Davolashdan oldin, qaysi bir kamchilik ovoz tembrini ko'proq buzib manqalikka ko'proq sabab bo'layotganini aniqlash zarur. Masalan, bermor burun tovushlari bilan unlilarni boshqa tovushlarga qaraganda yanada ko'proq manqalanib-talaffuz etayotgan bo'lsa, demak, unda yopiq rinolaliya ustun bo'ladi. Va davolash chorasini shunga qarab belgilanadi.

Rinolaliklar nutqini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, birinchi galda sirg'aluvchi tovushlar talaffuzi buziladi, chunki rinolaliyada havo og'izdan emas,balki burundan

chiqadi. Bunda sirg‘aluvchilar o‘rniga kirish, hiringlashga o‘xshagan tovushlar paydo bo‘ladi (V. Verdyu, 1929).

Til orqa undoshlari talaffuz etilmay, nutqda umuman eshitilmaydi yoki portlovchilar bilan almashinadi. Xavo burundan chikadigan bo‘lgani uchun unlilar talaffuzi ham buzilib, bu tovushlar bilan undosh tovushlar bir-biridan farq qilmay qoladi. Og‘ir darajadagi rinolaliyada nutqni kasalning atrofidagi kishilar, xatto, otonalari ham tushunmasligi mumkin.

Rinolaliyaning yengil darajasida esa tovushlar talaffuzi jihatidan ham, ovoz jihatidan ham normalar nutqi tovushiga yaqin bo‘ladi, lekin talaffuz bir oz manqali tus oladi.

Nutq jarayonida rinolalik bolalar tegishli tovushni bir qadar to‘g‘ri talaffuz etishga harakat qilib burun, artikulyatsion apparatga ortiqcha zrriqish beradilar. Natijada ularning nutqi yuz muskullari, ayniqsa burun muskullarining ortiqcha harakatlari bilan birga davom etib boradi. Rinolalik bolada periferik nutq apparatidagi organik yetishmovchilik bolaning jismoniy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tanglay, lab kemtiklari bilan tug‘ilgan bola ovqatlanishda qattiq qiyinchiliklarga uchraydi. Bunday bola odatda oldin tomizg‘ichdan, qoshiqdan sut berib, ovqatlanrilib boriladi. Shunda ham ovqatlanish vaqtida ko‘pincha sut burun bo‘shlig‘iga o‘tib, bola qalqib ketadi, ba’zan esa sut yuqori nafas yo‘llariga tushib qoladi. Bu esa nafas organlari shilliq qavati yallig‘lanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, tanglay kemtik bolalarda nafasga olinadigan havo yetarli isimay va tozalanmay o‘tgani uchun, ko‘pincha, o‘rta qulqoq yallig‘lanadi.

Shunday qilib, bunday bolalar jismoniy jihatdan ham zaif bo‘lib o‘sadilar. Bu esa bola nutqining rivojlanishiga yana salbiy ta’sir etadi. Ularning nutqlari ancha kech va fonetik tomonidan noto‘g‘ri rivojiana boshlaydi. Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish esa tovushlarni analiz qilishni qiyinlashtiradi.

Tug‘ma manqa bolalar o‘zlarining manqaliklaridan yetarli rivojlanmagan bo‘ladi. Natijada ular so‘zlarning ma’nosini ham buzib noto‘g‘ri idrok etadilar.

Rinolalik bolalarning fonetik rkuvi ham yetarli rivojlanmagan bo‘ladi. Natijada ular o‘xshash so‘zlarni ma’nosini ham buzib noto‘g‘ri idrok etadilar.

Ularning lug‘at boyligi cheklangan bo‘lgani uchun mantiqiy fikrashlari ham qiyinlashadi, logik xotiralari ham birmuncha past bo‘ladi. Rinolalik bolada uchraydigan aql – idrok kamchiligi, odatda, ikkilamchi hodisa bo‘lib, nutq rivojlanishi yo‘liga tushib ketganidan keyin rinolalik aqliy jihatdan o‘z tengdoshlariga yetib oladi.

Biroq rinolaliya ba’zan aqliy qoloqlik bilan birga uchraydi va bolaning rivojlanishida ancha qiyinchilik tug‘diradi. Bunday bolalar yordamchi maktab dasturini ham qiyinchilik bilan o‘zlashtiradilar.

Nutqni rivojlantirish bog‘chasidan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bog‘chaga kelgan 3-4 yasharli rinolalik ham jismoniy, ham ruxiy tomondan rivojlanishda birmuncha orqada qolgan bo‘ladi. Keyinchalik esa tegishli dori-darmon va logopedik yo‘l bilan ko‘rsatiladigan yordam natijasida o‘z tengqurlariga yetib oladi va 7-8 yoshdan ommaviy maktabga borishi mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLOAR

1. Rinolaliya nuqsonini ta’riflab bering.
2. Rinolaliyaning qaysi turlari mavjud?
3. Rinolaliyaning kelib chiqish sabablari nimada?
4. Yopiq rinolaliya
- 5.Ochiq rinolali nima bilan ochiq rinolaliyadan farqlanadi

8.3. RINOLALIYANI BARATARAF ETISH YO‘LLARI

Reja

- 1.Organik yopiq rinolaliya
- 2.Funksional rinolaliya
- 3.Operatsiyagacha olib boriladigan ishlar tizimi
4. Yopiq rinolaliyani bartaraf etish yo‘llari.
5. Ochiq rinolaliyani bartaraf etish va davolash tizimi
6. Operatsiyadan keyin rinolaliklar bilan olib boriladigan ishlar.
- 5.Nafas olishga o‘rgatish mashqlari va ularning axamiyati

Yopiq rinolaliyani barataraf etish yo‘llari. Organik yopiq rinolaliyani bartaraf etish uchun burun yo‘lini to‘sib qo‘ygan sabablarni yo‘qotish, bolani to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish kerak. Bola burun orqali to‘g‘ri nafas oladigan bo‘lganidan keyin manqalik o‘z

– o‘zidan yo‘qolib ketadi. Agar manqalik davom etaversa, nutq mashqlarini o‘tkazish zarur bo‘lib qoladi. Yopiq rinolaliyada o‘tkaziladigan maxsus mashqlardan ba’zi birlarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Nafas olish mashqlari xususan og‘izni yumib turib burun orqali nafas olish va nafas chiqarishni har kuni bir necha minutdan 3-4 hafsta davomida mashq qilishni taqozo qiladi.

1. «M», «N» toyushlarini cho‘zib talaffuz etib, burun bo‘shlig‘ining rezonatorlik faoliyatini kuchaytirib borish. Rezonatorlik faoliyatini burun teshiklari oldida qo‘lni tutib turish yoki unga bog‘langan paxta bo‘lagini osiltirib turish yo‘li bilan tekshirsa bo‘ladi.

2. Kichik yoshdagi bolalar bilan boshqacharoq qilib, ya’ni o‘yin tariqasida o‘tkazish mumkin. Bunda bolalar qo‘l kaftlarini peshona bilan yuqori lab oralig‘iga qo‘yib, burundan chiqayotgan havoni sezib turishlari kerak. Yavo chiqishi ravon-ravonmasligini bilish uchun bolalar kaftini dam o‘zлari, dam tarbiyachi, dam o‘rtoqlarining yuziga qo‘yib ko‘rib havo oqimini taqqoslashlari mumkin. Shu maqsadda «Sigir qanday ma’raydi?» o‘yinidan foydalansa ham bo‘ladi.

3. «M» tovushini unlilar, masalan, «a», «o», «u» bilan birga ma-mo-mu bo‘g‘imlari tariqasida talaffuz etish, bunda «M» tovushi cho‘zib talaffuz ettiriladi. Ayni vaqtida unlilar ham dastlab noaniq burun bilan talaffuz qilinadi. Buni rostlash uchun ularni burun undoshlaridan ajratib, alohida talaffuz ettiriladi, keyin unlilar birikmasi: au-ao-ai xokazolar, undan so‘ng unlilarning jarangli undoshlar bilan birikmasi (ba, bo,bu) va oxirida m-a-ma va hokazolar birikmasi talaffuzi mashqiga o‘tiladi. Ana shunday mashqlar yordamida «M» tovushi talaffuzi yo‘lga olinsa, «N» tovushi talaffuzini o‘zlashtirish birmuncha oson kechadi.

«M», «N» tovushi, shu tovushlar ishtirotkida bo‘g‘inlar to‘la o‘zlashtirilgandan so‘ng, butun-butun so‘zlar va undan nihoyat jumlalar talaffuziga o‘tiladi.

Ochiq rinolaliyani bartaraf etish. Ochiq rinolaliyani bartaraf etish uchun jarrohlik, fizioterapiya va logopediya davolash usullari va vositalaridan foydalilanadi. Yuqori lab kemtigini yo‘qotish uchun hayotning birinchi oyalaridayoq bolaning kemtik joyi operatsiya yo‘li bilan tikiladi. Yumshoq tanglayni tikish operatsiyalarini rus jarroh Pirogov 1844 yildayoq o‘tkaza boshlagandi. Uning shogirdi N. Voronsovskiy esa

operatsiyaning o'zi bilangina rinolaliyani bartaraf etib bo'lmasligini, operatsiyadan so'ng maxsus nutq mashg'ulotlari o'tkazish zarurligini ko'rsatib o'tdi.

Yumshoq tanglay operatsiyalari xususida hozir katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Plastik operatsiyalar ishlab chiqilib, kemtik joyni tikib butlash yoki protez (obturator) qo'yish qo'llaniladi. Lekin operatsiya qaysi yoshda o'tkazilsa yaxshiroq natija beradi, degan masala hali uzil-kesil hal etilgani yo'q. Ba'zi olimlar operatsiyasini bola tilga kirguncha o'tkazishni ma'qul deyishsa, ba'zilari bola kattaroq bo'lib, nutqi to'la takomillashib bo'lganidan keyin, taxminan 9 yoshlarda operatsiya o'tkazish vaqtini rinolalikning umumiy holatiga, kemtik tabiatiga va hajmiga qarab belgilaydilar.

Professor M.Zeyeman, A.A. Ximberglarning fikricha, operatsiya 4-5 yoshlarda qilinadigan ham yordam so'rab kelishadi. Shunda logoped qanday yordam ko'rsatish haqida to'g'ri maslahat bera olishi, operatsiyadan oldin qanday tayyorgarlik ishlari olib borishi, operatsiyadan so'ng nutqni joyga keltirish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini bilishi kerak, chunki operatsiyadan keyin rinolalik nutqi noaniqligicha qolaveradigan bo'lganidan, o'z vaqtida, to'g'ri uyuştirilgan logopedik yordam berilsagina nutqidagi kamchiliklar yo'qolib ketadi.

Operatsiyadan oldingi tayyorgarlik tariqasida olib boriladigan logopedik ishlar quyidagi bo'limlardan iborat:

- 1) burun va og'iz orqali nafas chiqarishni o'rgatish;
- 2) tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish;
- 3) tovushlar avtomatizatsiyasi.

Operatsiyasidan so'nggi rinolalikning artikulyatsion apparati operatsiyasidan oldingi davrdagi artikulyatsion apparatidan farq qiladi. Chunki kemtikni tikish uchun solingen chocklar o'rniда chandiqlar hosil bo'lib, yumshoq tanglay harakatchanligini bir qadar cheklaydi – yumshoq tanglayni passiv holatga tushirib qo'yadi. Shuning uchun operatsiyadan so'nggi ishga endi yumshoq tanglayni aktivlashtirish mashqlari ham kiritiladi.

Operatsiyadan so'nggi logopedik ish quyidagi bo'limlardan iborat:

- 1) yumshoq tanglay va artikulyatsion apparat gimnastikalar;
- 2) nutq paytida to'g'ri nafas olishga o'rgatish;
- 3) tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish;

4) tovushlar avtomatizatsiyasi.

Har ikki davorda ham logoped olib boradigan qo'shimcha ishlar psixoterapiya, eshituv diqqatini rivojlantirish va muskullardagi ortiqcha harakatlarni bartaraf etishdan iborat.

Yumshoq tanglay harakatini aktivlashtirish uchun birinchi galda massaj usulidan foydalaniлади. Buning uchun tanglay oldingi qismidan orqa qismiga va o'ng tomonidan chap tomoniga qarab bosh yoki ko'rsatkich barmoq bilan silab, uqalab chiqiladi, ayni vaqtida choklar o'rnidagi chandiqlar asta-sekin bosib-bosib qo'yiladi. Massaj 3-5 kun kuniga 3-4 marta o'tkazib turiladi. Massajni avval logoped, keyinchalik borib, rinolalikning o'zi o'tkazadi. Massaj natijasida to'qimalarda qon aylanish yaxshilanib, yumshoq tanglay harakatchanligi ancha o'ziga kelib qoladi. Massaj bilan bir qatorda, to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish uchun nafas olish mashqlari qo'llaniladi.

Bunda quyidagi mashqlar qo'llaniladi:

- 1) burun bilan nafas olish- burundan nafas chiqarish;
- 2) og'iz bilan nafas olish – og'zidan nafas chiqarish;
- 3) og'zidan nafas olish – burundan nafas chiqarish.

Kishi so'zlaganda havo oqimi yo og'zidan, yo burundan to'g'ri kirib-chiqib turishini ta'minlaydigan yana bir qancha qo'shimcha vositalar ham bor. Masalan, nafas chiqarish og'iz yoki burunni berkitib turish, yonib turgan gugurtni dam og'izdan chiqayotgan havo bilan, dam burundan chiqayotgan havo bilan o'chirish, paxta bo'lakchagini og'izdan yoki burundan chiqayotgan havo yordamida o'chirish va boshqalar shular jumlasidandir. Tug'ri nafas olish va chiqarish malakasi mustahkamlanganidan so'ng tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish ustida ish olib boriladi. Bunda A.G. Ippolitova tovushlar talaffuzini quyidagi tartibda o'zgartirib borish maqsadga muvosifdir deb hisoblaydi:

- a) unlilar (a,e,o,u,i,ya,ye,yo,yu); b) undosh jarangsiz sirgaluvchilar (f-s-sh-x); v) jarangsiz portlovchilar (p-t-k); g) jarangli sirg'aluvcilar (v-z-j); d) jarangli portilovchilar (b-d-g); ye) affrikatlar (s-ch); yo) sonorlar (l-r-m-n).

Hozirgi tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yishning quyidagi tartibiga amal kilinganida yaxshiroq natijjalarga erishmoqda.

Avvalo «t» tovushi ustida ish olib boriladi, chunki «t» tovushidan k-ch-sh-s-s tovushlarini hosil qilish mumkin. «T» tovushi bo‘lmasa, uni «d» tovushidan hosil qilinadi. Agar «d» tovushi bo‘lmasa, uni «n» tovushidan hosil qilinadi, burunni yopib turib «n» tovushini talaffuz etilsa, «d» tovushi hosil bo‘ladi.

Bunda har bir tovush talaffuzini o‘zlashtirilganidan so‘ng, bu tovushni avval ochiq, keyin yopiq bo‘g‘inlarda, undan keyin so‘zlar va gaplarda talaffuz etishga o‘tiladi. Eshituv diqqatini va fonematik o‘quvni o‘stirish uchun logoped o‘zi talaffuz qilgan bo‘g‘inlarni aytib ko‘rishiň iltimos qiladi. Bir tovush bilan farq qiluvchi so‘zlar ma’nosini so‘raladi, manqalanib va manqalanmasdan aytilgan jumlalarni eshitib, ma’nosini aytib berish so‘raladi va hokazo.

Rinolaliyani bartaraf etishda nafas gimnastikasi kattagina o‘rin tutadi. Bu gymnastika burundan nafas olib, burundan chiqarish, burundan nafas olib, og‘izdan chiqarish, og‘izdan nafas olib, og‘izdan chiqarish mashqlaridan iborat bo‘ladi.

Shunday qilib, hozirgi kunda, rinolaliyani bartaraf etishda logopedik amaliyotda turli xil metodikalar ishlatalmoqda. Biz avtorlardan Ippolitova A.G., Yermakova N.I., Chirkina G.V. larning ishlab chiqqan rinolaliyani bartaraf etish sistemalaridan faqatgina ayrim, umumiy bo‘lgan ish usullari, yo‘llarini ko‘rsatib o‘tdik xolos.

Rinolaliya kabi murakkab nutqiy nuqson faqatgina to‘g‘ri tashkil etilgan kompleks chora-tadbirlar ta’sirida, maxsus sharoitda, mutaxassis logoped-shifokorlar tomonidan bartaraf etishilishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang‘ch sinflarda tarbiyachi va o‘qituvchilar rinolaliya kabi nutqiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarni iloji boricha vaqtliroq mutaxassislarga maslahat uchun yuborishlari darkor. Bunday bolalar maxsus nutqiy bog‘chalarda, sinflarda ta’lim olsalar, ularga tegishli yordam o‘z vaqtida va to‘g‘ri tashkil etilsa, ular keyinchalik o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettiradilar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Organik yopiq rinolaliya nima bilan harakterlanadi?
- 2.Funksional rinolaliyaning farqi nimada?
- 3.Operatsiyagacha olib boriladigan ishlar tizimiga nimalar kiradi?
4. Yopiq rinolaliyani bartaraf etish yo‘llari.
5. Ochiq rinolaliyani bartaraf etish va davolash tizimi
6. Operatsiyadan keyin rinolaliklar bilan olib boriladigan ishlar.

5.Nafas olishga o'rgatish mashqlari va ularning axamiyati

ADABIYOT

1. Logopediya, L.S. Volkova tahriri ostida. – Prosvesheniye, 1989.
2. I.I. Yermakova. Korreksiya rechi pri rinolalii u detey i podrostkov. – M., Prosvesheniye, 1984.
3. Ippolitova A.G. Otkritaya rinolaliya. – M., Prosvesheniye, 1982.
4. Chirkina G.V. Deti s narusheniyami artikulyatsionnogo appara, M., Prosvesheniye, 1969.
5. Filicheva T.B. i dr. Osnovi logopedii. – M., Prosvesheniye, 1989.
- 6 Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya.-T.1993

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Organik yopiq rinolaliya nima bilan harakterlanadi?
- 2.Funksional rinolaliyaning farqi nimada?
- 3.Operatsiyagacha olib boriladigan ishlar tizimiga nimalar kiradi?
4. Yopiq rinolaliyanı bartaraf etish yo'llari.
5. Ochiq rinolaliyanı bartaraf etish va davolash tizimi
6. Operatsiyadan keyin rinolaliklar bilan olib boriladigan ishlar.
- 5.Nafas olishga o'rgatish mashqlari va ularning axamiyati

9 bob Dizartriya va anartriya nuqsonlarining ta'rifi

Reja

- 1.Dizartriya nuqsonining ta'rifi
- 2.Dizartrianing kelib chiqish sabablari
- 3.Dizartrianing turlari
- 4.Dizartriani karakterlovchi klinik belgilari
- 5.Dizartriani bartaraf etish usullari

Dizartriya so'zлarni to'la, ravon talaffuz qila olmaslik, talaffuz nuqsonidir. U nutq apparati innervatsiyasida kamchilik borligiga bog'liq bo'ladi. Dizartriya uchun markaziy hamda periferik nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida artikulatsiya mushaklarining falajlanish tufayli tovushlar talaffuzi va ovozning buzilishi harakterlidir.

Dizartriya lotincha aynish – buzilish, ma'nosinibildiruvchi «dis» yuklamasi, artron – biritirish, ulash degan so'zdan olingan bo'lib, ma'noli, ravon nutqning buzilishi legan ma'noni bildiradi. Biroq, ko'pchilik olimlar, dizartriya atamasini kengroq ma'noda ishlatib, artikulatsiya, ovoz hosil bo'lishi, nutq

sur'ati, maromi, ravonligi, intonatsiyasidagi kamchiliklarni ham dizartriya nuqsonida kuzatiladigan belgilar jumlasiga kiritadilar. Dizartriyaning og'ir anartriya deb ataladi. Bunda bola nutqini tushunib bo'lamaydi. Bola xuddi og'iziga tolqon solib gapirganidek tuyuuladi. Lekin atrofdagilar nutqini bola yaxshi tushunadi, idrok etish qobilyatini nisbatan saqlangan bo'ladi.

Dizartriyani keltirib chiqargan kasallik qanchalik og'ir, qanchalik erta boshlangan bo'lsa, uning oqibatlari ham shunchalik og'rirroq bo'ladi. Bu nuqson mustaqil suratda, hatto fonematik eshitish qobilyatini saqlanib qolgani holida tovush talaffuzining buzilishi tariqsaida namoyon bo'lishi mumkin. Dizartriya vaqtida savod o'rgatish ishlari qiylnashadi. Bu vaqtida bola so'zlarni yaxshi eshita oladigan va o'ziga qaratilgan nutqini muayyan darajada tushuna oladigan, intelektida birlamcha qo'pol o'zgarishlar yo'q bo'lsa ham, so'zlarni buzib atrofdagilarga yaxshi tushunilmaydigan tarzda, yarim-yorti qilib aytadi yoki talaffuz etadi. Nutqdagagi nuqsonning bunday og'ir shakli miya chap yarim sharidagi nutq zonalarining organik kasiddigiga bog'liq bo'lib, bog'chcha yoki matabdag'i kelgan bolalardagi bu nuqsonni aniqlab olish uncha qiyin emas. Bunday hollarda tekshirib ko'rish va maxsus bog'cha yoki maktablarga yuborish masalasini hal etish uchun ularni logoped qabulgi o'za vaqtida yuborish g'oyat muhimdir. Klinik belgilariga ko'ra dizartriyha har xil toifalarga bo'linadi. Logopedik adabiyoti dizartriyaning bulbar, psevdobulbar shakllari, miya po'stlog'i osti, miyacha, miya po'stlog'i aloqador xillari muhokama qilinadi. Dizartriyaning klinik-topik diagnostikasi nevrologik nuqtai nazardan ancha murakkab bo'lgani tufayli, uning shakllarini logopedning o'zi mastaqil holda aniqlay olmaydi. Shunga ko'ra bu vazifani nevropatolog vrach maxsus usullardan foydalananib, logoped bilan birga ancha birga bajaradi. Klinik – topik diagnozi vrach aniqlab bergenidan keyin logopedik xulosani logoped chiqaradi.

Dizartriyaning har bir shakliga uning qanday ifodalanganiga qarab har xil chora ko'rildi. Har bir shaklda tovushlar talaffuzi, ovoz nuqsonlari, artikulyatsion apparatining harakatchanilini, motorikasidagi kamchiliklar o'ziga xosligi bilanajralib turadi. Shuning uchun uni bartaraf etish usullari ham o'ziga xos, har xil bo'ladi.

Dizartriyani keltirib chiqaradigan sabablar xilma-xildir. Dizartriya ko'p xollarda ona qorindagibolaga ichki va tashqi omillarning salbiy ta'siri tufayli vujudga kelishi mumkin. Bunga onaning homiladorlik vaqtida ba'zi yuqumli kassaliklarga yo'liqishi, turli moddalarning zaharli ta'siri - intoksikatsiya, gipoksiya (kislород yetishmasligi), homilaning shikastlanishi, esfiksija bo'lib (kindigi o'talib) tug'ilishi va boshqalar kiradi. Dizartriya ba'zan bolaning go'dakligida (1 yoshga yaqin vaqtida)

kasal bo'lishi (meningit, turli xildagi miningoensefalitlar bilan og'rish) hamda markaziy nerv sistemasining shikastlanishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Ona bilan bola qonlari tarkibining bir-biriga to'g'ri kelmasligi (re Zus faktori) natijasida ham dizartriya kuzatishili mumkin.

Ko'p hollarda dizartriya bolalarda uchraydigan serebral falaj oqibati tariqasi paydo bo'ladi. YE.M. Mastyukova ma'lumolariga ko'ra, bolalar serebral falaji bilan kasallangan kishilarning 65-85 foizida dizartiyada kuzatiladi.

Serebral falaj bilan kasallangan bolalardagi dizartiyani fransuz olimi G. Tardi nutq nuqsonining darajasiga qarab quyidagi xillarga bo'lib o'rghanishni tavsiya etadi: birinchi darajasi eng yengil xili bo'lib, bunda boladagi talaffuz kamchiliklari faqat mutaxassis logoped tomonidan maxsus tekshirishlar natijasida aniqlanishi mumkin. Ikkinci darajasi-bola talaffuzidagi kamchiliklar atrofdagilarga sezilib tursa ham, uning nutqi tushunarli bo'ladi. Uchinchi darajasida bola nutqni faqat uning eng yaqin odamlari tushunadi, xolos. To'rtinchi darajasi – eng og'ir darajadagi nuqson bo'lib, bunda bola nutqini mutlaqo tushunib bo'lmaydi. Anartriya deb shuni aytildi.

Shunday qilib, dizartriya – nerv sistemasining kasalliklari munosabati bilan tegishli markazlarning organik shikastlanishi natijasida tovushlar talaffuzining buzilishidir. Nutq organlarining kam harakatlanishi tufayli nutq tovushlarining artikulatsiyasi buziladi. Shu bilan birga nutq sur'ati, tezligi, maromi, ravnligi, ovoz kuchi ham yomonlashadi. Dizartriyanı harakterlovchi klinik belgilari quyidagilardan iborat: 1) nutq mushaklari tonusining buzilishi; 2) artikulyatsion apparat mushaklari falajlanishi tufayli shartli artikulatsiya harakatlarining cheklanib qolishi; 3) nafas olish harakatlari va ovoz hosil bo'lishining buzilishi.

Eng keng tarqalgan dizartriyaning psevdobulbar shaklida artikulyatsion mushaklar tonusi kuchayib ketadi; lablar, til, ya'ni laq-luq harakatchanligi chegaralangan bo'ladi, ovoz va nafas olish buziladi, bola so'lagi oqib turadi. Bunday bola yaxshi chaynay olmaydi, yuta olmaydi. Nutqi noaniq, dudmal, intonatsion jihatdan sust, manqalangan bo'ladi.

Dizartriya nutq sistemasining barcha komponentlarida qandaydir o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Shunga ko'ra dizartrik bolalar bir necha gruppalarga bo'linadi: fonetik nuqsonli, fonetik-fonetik kamchilikli bolalar; nutqi umuman rivojlanmagan

bolalar. Fonetik harakterdagи dizartriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish choralar ko'rilsa, fonetik – fonetik harakterdagи dizartriyada tovushlarni ajratish, fonematik o'quvni rivojlantirish, o'xshash tovushlarni bir biridan ajratish, so'z lug'atini boyitish, grammatik tuzummi shakllantirib borish ustida ish olib boriladi. Dizartriyani bartaraf etishda, ko'pincha, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, fonetik mashqlar o'tkazish, fonetik o'quvni rivojlantirish, lug'atni boyitish, bog'lanishlurma'noli nutqni o'stirish, yozma nutqdagi kamchiliklarning oldini olish ustida ishlash talab etiladi.

Dizartriklar bilan maxsus logopedik ishlar og'ir nutq kamchiliklari bor, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan nutqiy bog'chalarda, nutqiy maktablarda yoki umumiyligi ta'lil maktab qoshidagi nutqiy sinflarda, harakat-tayanch organlari jarohlangan bolalar uchun tashkil etilgan bog'cha hamda maktab-internatlarda, psixonevrologik shifoxona-larning nutqiy bo'limlarida olib boriladi. Dizartriyaning yengil shakllarini poliklinika qoshidagi logopedik kabinetlar, umumta'lim maktablaridagi logopedik punktlarda bartaraf etish mumkin.

Dizartriya qanchalik barvaqt aniqlansa, uni bartaraf etish, korreksiyalash choralar ham shuncha yaxshi naf beradi. Uzoq muddat ichida sabr-toqat, izchillik bilan logopedik mashg'ulotlar olib borib, yuqori natijalarga erishish mumkin. Faqatgina to'g'ri tashkil etilgan kompleks chora-tadbirlar, logoped bilan nevropatolog yoki psixonevrolog hamda ota-onalarning hamkorlik qilishi, logoped bilan massajist, davolovchi fizkultura mutaxassislarining birgalikda hamjihat bo'lib ishlashi natijasidagina dizartriyani maksimal darajada bartaraf etib, bolaning atrofdagilar bilan to'g'ri aloqa bog'lab, bemalol gaplasha oladigan bo'lishini ta'minlash mumkin.

Ona qortida yoki tug'ruq mahsuda miyasi zarar ko'rgan bolalardagi dizartriyaning oldini olish uchun mamlaktimizda butun bir chora-tadbirlar sistemasi ishlab chiqilgan bo'lib, bola bilan hayotining birinchi onlaridayoq kompleks tibbiy-pedagogik ishlar olib boriladi. Buning uchun perinatal patologiyali bolalarga mo'ljallab maxsus tashkil etilgan nevrologik statcionarlar bor.

A D A B I Y O T

- 1) Filicheva T.B. Cheveleva N.A., Chirkina G.V. Osnovi logopedii. M., Prosvesheniye, 1989.
- 2) Logopediya L.S. Volkova tahriri ostida, m., Prosvesheniye, 1989.
- 3) Osobennosti psixofizicheskogo uchshhixsy spetsialnix shkol dlya detey s narusheniyem oporno-dvigatelnogo apparata. Ippolitova M.V. tahriri ostida. M., 1985.
- 4) Semyonova K.A., Mastyukova YE. M., Smuglin M.YA. Klinika i reabilitatsionnaya terapiya detskix serebalnix paralichey. —M., 1972.
- 5) Muminova L.R. Appova M.YU. Logopediya. —T., O'kituvchi 1993
- 6) K. Shodiyeva Maktabgacha yoshdag'i bolalarni to'g'ri tallaffuzga o'qitish T., 1955.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dizartriya va anartriya nuqsonlarini ta'riflab bering.
2. Dizartriyaning kelib chiqish sabablari va mexanizmlari.
3. Dizartriyaning qaysi shakllari mavjud?
4. Dizartriyaning qaysi darajalarini bilasiz?
5. Bizning mamlakatimizda dizartiklarga qanday yordam beriladi?

10 bob OVOZ FUNKSIYALARINING BUZILISHI

10.1. OVOZ FIZIOLOGIYASI

Reja

- 1.Ovoz xaqida tushuncha
- 2.Ovoz boyqlamlarining faoliyati
- 3.Ovoz kuchi, tembri
- 4.Ovoz diapazoni

Ovoz-o'pkadan chiqayotgan havoninng hinqildoqdagi ovoz boyqlamlarning tebranishidan har xil balandlikda, kuch va tembrda hosil bo'ladi. Ovoz balandligi ovoz boyqlamlarining tebranish takrorligiga bog'liq bo'ladi. Ovoz boyqlamlari qanchalik uzun va tarang tortiladigan bo'lsa, ovoz shunchalik baland chiqadi. Ovoz balandligi hinqildaq mushaklarining ishiga qarab o'zgaradi. Ovoz

kuchi ovoz boylamlarning tebranish tezligiga, bir-biriga nechog'li zikh jipslashuviga, chiqib kelayotgan havo oqimiga bog'liq. Ovoz tembri ovozning asosiy toniga obertonlar (qo'shimcha ton) qo'shilishi va hiqildoqning tuzulishi xususiyatiga bog'liq bo'lib, odamni ovozidan tanish imkonini beradi. Katta yoshli odam ovozning balandligi kattagina darajada o'zgara oladigan bo'lib, 4-5 tonni o'z ichiga oladi. Bolalar ovozining diapozoni ancha kichik. 2-3 yashar bola ovozining balandligi 3 tondan oshmaydi. (Diapazon – kishi ovozi balandligining eng past va eng yuqori chegarasi doirasining hajmi). Diapazonning qanday bo'lishi o'pka hiqildaq artikulyatsion apparatlarning katta – kichikligi, kuchiga bog'liq. Bola yoshi ulg'aygan sayin uning ovozi diapazoni kengayib boradi: 4-5 yoshli bolalarda 4 tonga, 6-8 yoshda 6 tonga, 9-11 yoshda 8 ton, 12-15 yoshda 8-9 tonga yetadi. O'g'il va qiz bolalar ovozining diapazoni bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bolalar balog'atga yetganda ovoz keskin o'zgaradi, bolalar ovozi kattalarga xos ovozga aylanadi. Yosh bolaning hiqildog'i katta odamnikidan ikki baravar kichik bo'ladi. Unda ovoz boylamlarining faqat chetki qismi tebranadi. Bola ulg'aygan sayin 12-15 yoshda – o'g'il bolalarda – baravar, qiz bolalarda esa – 1G+3 hissa kattalashadi. Bu davrga kelib ovoz boylamlari yo'g'onlashadi va uzunligiga qarab o'sib boradi. Ularning faqat chetki qismi emas, balki boshidan-oxirigacha tebranadigan bo'ladi. Bu davrda o'g'il bolalar ovozi o'zgarib, do'rillab qoladi. Rastalik mutatsiya davri deb ataladigan bu davr 3-4 oydan 1-2 yilgacha davom etishi mumkin.

- 1.Ovoz qanday xosil bo'ladi?
- 2.Ovoz boylamlarining faoliyati
- 3.Ovoz kuchi, tembri deganda nimani tushunasiz?
- 4.Ovoz diapazoni nimaga bog'liq bo'ladi?

10.2. OVOZ BUZILISHLARI

Reja

- 1.Ovoz faoliyatini buzilish sabablari
- 2.Organik yoki funksional ovoz buzilishlari.
- 3.Ovoz buzilishlarini aniqlash yo'llari.
- 4.Ovoz nuqsonlarining turlari

So'zlashni hamda qo'shiq aytish vaqtida gigena qoidalariga rioya qilmaslik, ovozining zo'riqishi, quloq og'irligi, hiqildoq kassaliklari, o'pka, broxlar, traxeya, yurak va tomir sistemasi kasalliklari, artikulyatsion apparat faoliyati va tuzilishidagi patologik o'zgarishlar va boshqa sabablarga ko'ra ovoz funksiyalari buzilishi mumkin. Bunda ovozning buzilishi tabiatan organik organik yoki funksional xillarga ajratish shartlidir. Organik ovoz buzilishlarining dastlabki alomati hiqildoq funksiyasining qisman aynishi yengil hiqillash paydo bo'lishidir, lekin bunga uzoq davom etgan boshqa o'zgarishlar qo'shilsa, bu kamchilik yanada ham og'irlashib, ko'payadi. Organik buzilishlarda ovoz hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlarning tuzilishida patologoanatomik o'zgarishlar bo'lgani sababli, maxsus olib borilgan korreksion ishlar ta'sirida ovoz kommunikativlik funksiyasi jihatdan tiklansa-da, kuchi, balandligi va tembri jihatidan normal jarangli ovozdan ozmi-ko'pmi farq qilaveradi.

Funksional ovoz buzilishi ovoz hosil qiluvchi organlar funksiyasining vaqtincha o'zgarib qolgani natijasida paydo bo'ladi, shuning uchun ham bunda logopedik mashqlar yo'li bilan ovozning normal jarangiga erishish mumkin.

Ovoz buzilishlarini shu tariqa organik va funksional xillarga ajratish foniatrik davo va logopedik mashqlarni to'g'ri belgilash, to'g'ri tashkil etish uchun katta ahamiyatga ega.

Ovoz buzulishlarini to'g'ri aniqlab olish uchun bemorni tegishli mutaxassislar klinik (foniatrik, otolaringologik, nevrologik,) logopedik, psixologik tomonidan obdon tekshirib ko'rishlari kerak. Ovoz buzulishlarini tibbiy, logopedik, psixologik jihatidan tahlil qilib, kamchilik tabiatini yanada chuqurroq o'rganish, bularni bataraf etish metodlari va usullarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Ovoz nuqsonlarini aniqlashda: a) nutq apparatining qaysi tomonlari (harakchanligi, idrok etish qobiliyati) buzilgani; b) analizatorning qaysi (markaziy, pereferik) bo'limi ishdan chiqqanini; v) kamchilikning tabiatan qanday (organik, funksional) ekanligini hisobga olish lozim. Bundan tashqari, kamchilikning qachon paydo bo'lganini ham aniqlab olish kerak. Organik va funksional ovoz buzulishlarining ko'pchiligi bola organizmi taraqqiyoti protsessida boshlangan bo'ladi. Lekin ovozning markazga aloqador kamchiliklari borki, bular tug'ma bo'lishi ham orttirilgan bo'lishi ham

mumkin. Ovoz nuqsonlarining ko'pchilik turlari boshqa nutq nuqsonlariga ko'shilib, shular bilan birga davom etib boradi (dizarriya, rinolaliya, qulqoq og'irligi natijasida kuzatiladigan nuqsonlar va boshqalarda). Shunday qilib, ovoz nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra organik va funksional bo'ladi. Qaysi bo'lamda o'zgarishlar borligiga qarab, bu nuqsonlar markaziy yoki periferik bo'lishi mumkin. Funksional ovoz kamchiliklarida ovozning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar tuzulishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Ovozdan noto'g'ri foydalanish, asab kassaliklari ruhiy travmalar funksional ovoz buzilishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Organik ovoz kamchiliklari ovoz hosil qiluvchi organlar markaziy yoki periferik qismalarining ayrim zonalarida struktura o'zgarishlari borligi yoki ular mexanik jihatdan zarrarlangan tufayli yuzaga kelishi mumkin. Periferik harakterga ega bo'lgan ovoz nuqsonlariga, masalan, ovoz boyamlaridagi tugunchalar, hiqildoq papillamatozi (so'gali, o'smalari), hiqildoq stenozi (torayib qolishi), xronik laringit, hiqildoq mushuklarining falaji va prezzi hamda boshqa bir qancha o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Tabiatan har xil br'ladigan ovoz nuqsonlari logopediyada qryidagi terminlar bilan ataladi: afoniya, disfoniya, fonosteniya, rinfoniya, rinolaliya va hokazo.

Afoniya (lotin tilida — inkor etish, grek tilida fonos — ovoz) — bugunlay ovoz chiqmasligi, ovoz yrqpigi. Bunda ovoz hosil qilish apparatining faoliyati yoki tuzulishidagi rzgarishar natijasida ovoz chiqmay qolib, kishi shivirlab gapiradi. Sabablariga kirta afoniya organik va funksional bradi. Hiqildoqning rtkir va xronik kasalliklari, hiqildoq mushuklarining rsmasi va falajida, ovoz boyamlaridagi rzgarishlarda, papillamatoz, hiqildoq stenozi va hokazolarda organik afoniya kuzatiladi. Funksional gipertonusli va gipotonusli afoniya, psixogen afonyalarda hiqildoq ichidagi muskullar funksiyasi buziladi. Afoniyaning ikkala turida ham ovoz boyamlarining butunlay yoki yetarli darajada jipslashmasligi natijasida ovoz hosil br'lmaydi.

Disfoniya (dis — "buzilish"ni bildiruvchi yuklama, fonos — ovoz srzidan) — ovoz kuchi, balandligi va tembrining qisman buzilishi. Disfoniya ham asosan hiqildoqning rtkir va xronik kasalliklari (yallilanish prokssllari, hiqildoq mushuklarining qisman falajlanishi, turli rsmalar va boshqalar) tufayli yuzaga keladi. Disfoniyada afoniyadagidan farq qilib, ovoz saqlansa-da, u zaif, xirillab chiqadigan, titrovchi, uziluvchi brlib qoladi.

Fonosteniya (grechka fonos — ovoz, asteniya — kuchsiz, darmonsiz srzlaridan) — ovoz apparatida organik rzgarishlar brlmagan holda ovoz hosil qilish funksiyasining buzilishi. Bunda ovozning tez kuchsizlanib qolishi, ovoz jarangining susayishi kuzatiladi. Fonasteniya asosan ovoz apparatiga ortiqcha zrr kelganida tarbiyachi, rquituvchi, ashulachi kabi kasb egalarida ovoz gigiyenasiga rioya qilmaslik natijasida kasb kasalligi sifatida yuzaga keladi. BoIcha va maktab yoshidagi bolalarda forasteniya haddan tashqari zrr berib gapirilgan vaqgda, qattiq baqirib ashula, she'r aytganda kripladi.

Mutatsiya tufayli ovoz buzilishi — funksional ovoz nuqsonlarining bir krrinishidir. Bu kamchilikni organik va funksional rzgarishlar chegarasidagi ovoz nuqsonlari gruppasiga kiritish ham mumkin. Mutatsiya — balogatga yetish davrida hqildoqning tez rsishi natijasida ovoz rzgarib qolishidir. Ovoz apparatining ba'zi bir brlimlari nrtasidagi uylun bollanishlarning buzilishi ovoz hosil br'lish jarayonida payvastalik yrqolib ketishiga olib keladi, shunga krta ovozning kuchi, tembri, balandligi aynib, rzgarib qoladi. Natijada bola ovozi goh past, goh baland brlib chiqadi. Mutatsiya davrida bolalar ovozini ehtiyyot qilish, unga zrr keltirmaslik kerak. Ba'zan mutatsiya rz muddatidan oldin barvaqq (10—11 yoshda), ba'zan esa haddan tashqari kechikib (19—20 yoshda) boshlanadi. Patologik mutatsiya krrinishlari maxsus tashkil etilgan logopedik choragadbirlar yordamida bartaraf etilishi kerak.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Ovoz tovushdan nima bilan farq qiladi?
- 2.Ovoz qanday xosil bo'ladi?
- 3.Ovoz kuchi, tembri qanday aniqlanadi?
- 4.Ovoz diapazoni qanday bo'lishi mumkin?

10.3. Bolalarda ovozni tiklash, asliga keltirish

Reja

- 1.Ovoz nuqsonlarini kompleks yondoshgan xolda bartaraf etish
- 2.Korreksion logopedik ishlar tizimi

10. Svetkova L.S.Problemi afazii i vosstanovitelnogo obucheniya .M.1979.
11. Shomaxmudova R.To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish.-T.Uqituvchi 2001.
12. Fayziyeva U YU Nutq ustirish .(Bog'cha yoshidagi zaif eshituvchi bolalar uchun)T.Uqituvchi 2001.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Sistemali nutq nuqsonlariga qaysilari kiradi?
- 2.Afaziya nuqsonini ta'riflab bering.
- 3.Alaliya va afaziyalarning o'xhashh tomonlari va farqlari nimada?
- 4.Sistemali nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar qayerda ta'llim olishlari kerak?

13 bob Yozma nutqdagi kamchiliklar

Reja

- 1.Yozma nutq mexanizmlari
- 2.Disgrafiya va agrafiya
- 3.Disleksiya va aleksiya
- 4.Yozma nutqdagi nuqsonlarni kelib chiqish sabablari
- 5.Yozma nutqdagi nuqsonlarni oldini olish va bartaraf etish

Og'zaki nutq atrofdagilar bilan bevosita aloqa qilishda ishlatsila, yozma nutq boshqa vaziyatda boshqa bir joyda, davrda yashagan kishilar bilan muloqatda bo'tish, ularning fikrini anglash vositasidir. Yozma nutq fikrlarimizda ixtiyoriy ifodalab berishning eng qulay vositasidir. Yozma nutqni o'qish

hamda yozish jarayonlari tashkil etadi. Yozma nutqni tushinish uchun maxsus tartibdagita'lini olmoq, ya'ni savodli bo'lmoq zarur. Yozma nutq og'zaki nutq asosida shakillanadi.

Yozma nutq mexanizmlari murakkab bo'lganligi tufayli uni shakillantirib borishda turli hil qiyinchiliklar kuzatilib turadi. Logopediya yozma nutqdagi nuqsonlar disgrafiya (grekcha dis-buzilish, grafo-yozaman), agrofiya (a-inkor qilish, yo'q grafo-yozaman), dileksiya (grekcha dis-buzilish, lego o'qiyman), aleksiya (grekcha a-inkor qilish, yo'q, lego-o'qimoq) atamalari bilan yuritiladi.

Yozma nutqdagi kamchiliklar haqida korreksion pedagogika nomoyondalari qimmatli nazariyalarni yaratib qoldirganlar. Kusmaul (1877), Berkan (1881) o'zlarining ilomiy asarlarida o'qish va yozishdagi kamchiliklar mustaqil nutq nuqsonlari ekanligini ko'rsatib berdilar. Bunga qadar yozma nutqdagi kamchiliklar aklid aqliy asosiy blgilaridan biri deb hisoblab kelinar edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'qish yozishdagi kamchiliklar камчиликлар ко'rib idrok etishning yuzaki, norizo bo'lishidan kelib chiqadi deb, olimlar yozma nutqdagi kamchiliklarni legoseniya (o'qishning sustligi) va grafosteniya (yozishning sustligi) atamalari bilan nomlashni tavsija ettilar. 1907 yili rus olimi K.N.Monaxov yozma nutqdagi nuqsonlarni sezuvchanlikka aloqador afatik buzilishning sensor harakteri deb hisobladi. Mashxur klinisist-nevropotolog R.A.Tkachev, S.S.Mnuxinlar yozma nutqdagi kamchiliklar bo'g'in obrazlarini esda saqlay olmaslik, tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish oqibatida sodir bo'lган nutq nuqsonlari deb, ularni aleksiya, agrafiya deb atashni taklif etdilar.

Yozma nutqdagi kamchiliklarni olimlardan Xvatsev M.YE., R.YE.Levina, F.A.Rau, R.T.Voskis, S.S.Lyapidevskiy, L.F.Спирова, N.A. Nikashina, O.A.Tokareva, O.V.Pravdina, V.G.Petrova, V.V. Voronkova, A.V.Yastrebova, G.A.Kashe va boshqalar har tomonlama o'rganib bularni og'zaki nutq va fonematik eshitishdagi kamchiliklardan kelib chiqadigan нуқсонлар deb xisobladilar.

Nutqni analiz va sintez, ya'ni tahlil va tarkib qilish qobiliyati bolada og'zaki nutqning shakillanishi bilan birga paydo bo'ladi. Og'zaki nutqdagi kamchiliklar yozma nutqni shakillantirib borishga to'sqinlik qiladi. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, ularni

eshitib turib bir-biridan ajratib olishda qiyalgan bolalarning yozma nutqdagi bir qator nuqsonlar kuzatiladi.

Ular o'qish va yozish vaqtida harflarni tushirib, o'rnini almashtirib yuboradilar.

Yozma nutqdadagi nuqsonlar harflar shaklini noto'g'ri idrok etishga aloqador bo'lishi ham mumkin. Bunda bola yozilishi jihatidan o'xshash harflarni, ularning elementlarini adashtirib yuboradi.

Maktab o'quvchilari orasida yozma nuqsonlardan disgrafiya va disleksiylar tez-tez uchrab turadi. Disgrafiklarning yozma ishlarida kuzatiladigan xatolarni ma'lum guruhlarga ajratib o'rganish tavsiya etiladi. Bular quyidagilardir: 1. Fonetiko-fonematik harakterdagи xatolar-talaffuz (artikulatsiya) va idrok (akustika) jihatidan o'xshash tovushlarni bir-biri bilan almashtirib yuborish, masalan: gul-kul, zina-sina, bog-pox, daftар-taftal va h.k. 2. So'z tuzilishidagi kamchiliklar: a) bo'g'inlar o'rnini almashtirish, masalan: mashina-manashi, randa-radan; b) unlilarni tushirib qoldirib ketish: uzum-uzm, ilon-iln, gilos-glos, kitob-ktob, undoshlarni tushirib qoldirib ketish, masalan: do'stlik-do'slik, mashina-maina, bayram-barm; g) bo'g'in so'zlarni oxirigacha yozmaslik, masalan: bola-bo!, olxo'ri-olri, gilos-gilo, lenta-leta, anor-ano; d) ortiqcha, keraksiz unli yoki undosh harflarni qo'shib yozish, masalan: stul-ustul, doska-dosika, o'rdak-o'ridak, bahor-bahbor, gilam-gigilam. 3. Bir so'zni ikkiga bo'lib yoki ikkita so'zni qo'shib yozish, masalan: Bahor keldi-Ba xorkeldi. 4. Shakli va yozilishi bilan o'xshash harflarni, ularning elementlarini almashtirib yozish, masalan: sh-i, t-p, l-m, i-sh, s-v, b-d, r-l, z-va va boshqalar. Harf элементларининг fazoda оладиган joylarini almashtirish: s-z, v-u, s-e. 5. Qo'shlusligi muskullarining nozik harakatchanligi, motorikasi buzilishi natijasida harflarni noto'g'ri yozish, daftardagi чизикларга chiziqlarga qilmaslik, bo'g'in va so'zlarni сўзларни ustma-ust yozish va hakazo. 6. Grammatik harakterdagи xatolar (morfologik, orfografik, sintaktik, punktuatsion xatolar va boshqalar.) 7. Oynavon xat-xatni xuddi oynada aks etganidek teskari yozish. Bunda bola chap va o'ng tomonlarni chalkashtirganligi tufayli harflar ko'zguda qanday ifodalansa, shunday yoziladi, masalan: s-s, b-b, l-l, d-d.

Yozuvdagи kamchiliklar-disgrafiya, ko'p hollarda o'qishdagi kamchiliklar-disleksiylar bilan birga kuzatiladi. Disleksiyaning alohida o'zi mustaqil nutq nuqsoni sifatida kamdan-kam uchraydi. Disleksiyaning belgilari almashtirib o'qish; harflarni

bo‘g‘inlarga biriktira olmaslik; 2. harf va bo‘g‘inlarni qayta-qayta takrorlash, tushirib ketish, o‘rnini алмаштириш natijasida almashrirish tushunmay, noto‘g‘ri, sekin o‘qish; 3. So‘z qismlarini, bo‘g‘inlarni, qo‘sishchalarini boshqa harf, bo‘g‘in yoki so‘zlar bilan almashtirish 4. Tinish belgilari , pauzalarga rioya qilmaslik, so‘z o‘rtasida to‘xtab, pauzalar qilib, birinchi so‘zning ikkinchi qismini keyingi so‘zning birinchi qismi bilan o‘qib ketish.

O‘qish-bu nutq faoliyatining tovushlar talaffuzi va idroki bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir turidir. Psixologiyaga doir adabiyotda o‘qish mexanizmlariga, birinchidan, so‘zning o‘qilishi, ya’ni grafik tomoni va aytilishi o‘rtasidagi bog‘lanish, ikkinchidan, o‘qilgan so‘zning ma’nosini tushunish, ya’ni ongli o‘qish kiradi, deb takidlanadi. o‘qish malakalari mukammal bo‘lishi uchun o‘qish jarayonining ikkala tomonini ham bir-biriga payvasta qilib, baravar shakkantirib olib borish kerak. Aks holda materialni tushunib, ongli o‘qishni ta’minlab bo‘lmaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan disleksiyaning belgilari ko‘proq o‘qish texnikasi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bularning hammasi ongli o‘qishga ta’sir ko‘rsatadi. Logopediyaga doir adabiyotda disgrafiya, agrafiya, disleksiya, aleksiyani bartaraf etish yollarini, usullari bayon etilgan. L.I. Yefimenkova va I.N.Sadovnikovalar «Ispravleniye i preduprejdeniye disgrafii u detey» kitobida disgrafiyani quyidagi tartibda bartaraf etishni taklif etadilar: 1. Tayyorlov davri. Bu davrda o‘quvchilar o‘qish va yozish malakalarini qay darajada egallab olganliklari aniqlanadi: analiz va sintez malakalari tarbiyalanadi; eshituv va ko‘rvuv analizatorlari, fonematik eshitish, eshituv va ko‘rvuv xotirasi rivojlantirib boriladi. 2. Unli tovush va harflarni bir-biridan ajratish ustida ish olib boriladi. 3. Undosh tovush va harflar bir-biridan ajratilib differensiatsiya qilinadi. 4. So‘z ustida ishlash, so‘zning tuzilishi, tarkibi haqidagi bilimlar berish. 5.Gap ustida ishlash.

Bu logopedik metodika analiz va sintez qilish malakalari fonematik uquv yaxshi rivojlanmaganligi natijasida yozma nutqda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishga mo‘ljallangan.

Logoped O.V.Pravdina yozma nutqdagi kamchiliklarni uch bosqichda bartaraf etishni tavsiya etgan. Birinchi boskichda jarangli va jarangsiz, portlovchi p, t, k tovush va harflar asosida differensiatsiya ishlarini o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu bosqichda sh, j,

Ir kabi artikulatsiyasi murakkab tovushlarni talaffuz etishga o'rgatish uchun tayyorlovchi artikulyatsion mashqlarni o'tkazish, ayrim grammatik tushunchalar ustida ishlash tavsiya etiladi. Ikkinci bosqichda s, z, sh, s, ch, b, g, d, l, r kabi tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish, avtomatizatsiya va differensiatsiya ustida ishlash ko'zda tutiladi. Bu bosqichdagi har bir mashg'ulotda bo'g'in, so'z va gaplarni analiz va sintez qilishga o'rgatish ishlari asosiy o'rinni egallashi kerak. Uchinchi bosqich bir-biriga bog'langan og'zaki xamda yozma nutqni o'stirish yo'li bilan dastlabki bosqichlarda to'g'ri talaffuz etishga o'rgatilgan tovushlarni mastuxkamlash (avtomatizatsiya) va bir-biridan ajratishga (differensiatsiya) o'rgatishga tavsiya etiladi.

Ko'pgina logoped olimlar (M.YE.Xvatsev, R.YE.Levina, F.A.Rau, R.I.Lalayeva, I.K.Sadovnikova L.N. Yefilinkova R.M.Boskis va boshqalar) yozma nutqdagi kamchiliklarni og'zaki nutqning yaxshi rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan nuksон deb bilib, ularni og'zaki nutqni rivojlantirish orqali, butun nutq sistemasi ustida izchillik bilan maxsus ishlarni olib borish orqali bartaraf etish metodikasini tavsiya etganlar. Ushbu metodika bo'yicha mashg'ulotlarda tovush, bo'g'in, so'z, gap va bog'langan nutq ustida ishlash talab etiladi. Biroq bu ishlarning yo'nalishi, mundarijasi yozma nutq nuqsonlariga ega bo'lgan kishilarning umumiyligi bilim doirasini, o'qish va yozma qobiliyatini, o'qish va yozishda nimadan qiynalishini, qanday xatolar qilishini, ularning kelib chiqish sabablarini hisobga olgan holda belgilanadi.

L.F.Spirova va A.V.Yastrebovalar boshlang'ich mакtab o'quvchilarini nutqida kuzatiladigan yozma nutqdagi kamchiliklarni butun nutq sistema ustida uch bosqichda ish olib borish orqali bartaraf etishni tavsiya etadilar. Birinchi bosqichda fonetika – fonematik komponent ustida quyidagi ishlarni o'tkazish ko'zda tutiladi: 1. So'zning tovushlardan tuzilishi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; 2. Fonematik uquv hamda analiz-sintez malakalarini rivojlantirish; 3. Talaffuz kamchiliklarni bartaraf etish. Birinchi bosqichda bolalar diqqati, xotirasini rivojlantirish, ularni o'z-o'zini boshqarish, tekshirib borishga o'rgatish, savollarga aniq, to'liq javob berishga o'rgatish talab etiladi. Ikkinci bosqichda leksiko-grammatik kamchiliklarni bartaraf etish, eshitish idrokini rivojlantirish ishlari olib boriladi. Uchinchi bosqichda o'rgatilgan tovushlarni

mustaxkamlash, ularni bola nutqiga kiritish, analiz qilish malakalarini rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi.

Shunday qilib, yozma nutkdagi kamchiliklar nihoyatda murakkab nutq nuqsonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu kamchiliklarni olidini olish ishlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilishi darkor. Bundan bolaning og'zaki nutqini o'stirish fazoviy idrokini, hotirasi, diqqati, analiz va sintez qilish faoliyati, nutqini tahlil qilish, lug'at ustida ishslash, grammatik komponentini rivojlantirish, og'zaki nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, nozik qo'l harakatlarini rivojlantirish ayniqsa muhimdir.

ADABIYOT

1. Logopediya (Pod red. L.S.Volkovoy. M., Prosvesheniye, 1989.)
2. Filicheva T. B., Cheveleva N.A., Chirkina G.V. Osnovi logopediya. M., Prosvesheniye 1989.
3. Levina R.YE. Osnovi teorii i praktiki logopedii. M., 1968.
4. Lalayeva R.I. Narusheniye protsessa ovladeniya chteniyem u detey. M., Prosvesheniye, 2000 .
5. Sadovnikova I.N. Narusheniye pismennoy rechi u mladshix shkolnikov. M., Prosvesheniye, 2001.
6. Rasstroystva rechi u detey i podrostkov (Pod red. S.S.Lyapidevskogo. M., 1969.)
7. Yefimenkova L.N., Sadovnikova I.N. Isravleniye i preduprejdeniye disgrafii u detey. M., 2000.
8. Kashe G.A. Podgotovka k shkole detey s nedostatkami rechi. M., 1985.
9. Pravdina O. V. Logopediya. M., 1969.

SAVOL VA TOPSHIRIKLAR

1. Yozma nutq og'zaki nutqdan nima bilan farq qiladi?
2. Yozma nutqdagi kamchiliklar qaysi atamalar bilan yuritiladi?
3. Yozma nutqdagi kamchiliklar nimadan kelib chiqadi?
4. Disgrafiklarning yozma nutqda kuzatiladigan xatolarni ta'riflab bering.
5. Disleksiyaning belgilari nimada?
6. Yozma nutqdagi kamchiliklar qanday bartaraf etiladi?

14 BOB. Nutq kamchiliklarini aniqlash va tekshirish metodikasi

Reja

- 1.Logopedik tekshirish shaklari
- 2.Individuall va guruh nutq kartalarining tuzilishi
- 3.Bolaning artikulyatsion apparati tuzilishi va faoliyati
- 4.Nutqning talaffuz tomonini tekshirish usullari
- 5.Fonematisk uquv va uni tekshirish usullari
- 6.Bolaning lug‘at boyligini tekshirish usullari
- 7.Nutqning grammatik tuzimini tekshirish usullari

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari oldiga muhim vazifani-bolalarni mактабда o‘qishga psixologik jihatdan tayyorlash, ya’hi boshlang‘ich sinflarda muvaffaqiyatli o‘qish, boshlang‘ich mактabning dasturini to‘la o‘zlashtirib olish uchun zarur bo‘lgan ruhiy sifatlar, bilim, ko‘nikma va malakalari tarkib toptirish vazifasini qo‘yadi.

Bolaning aqliy rivojlanishida og‘zaki nutqning vujudga kelishi katta ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolaning so‘z boyligini aniqlaydi, boyitib boradi va faollashtiradi, bolalarni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatadi, og‘zaki nutqning turli shakllarigi – monolog (aytib berish, qayta hikoya qilib berish) va dialogga (so‘zlashuv yoki savol – javob nutqiga), so‘zлarni grammatik jihatdan to‘g‘ri o‘zlashtirish va to‘g‘ri tuzishga o‘rgatadi.

Bolalar bog‘chasida ham, mактабда ham olib boriladigan ishlar ta’lim standartlari, dasturida ko‘rsatilgan bilim va malakalarni hosil qilish, shaxsning ba’zi bir xususiyatlarini, hulq-atvorini tarbiyalashga qaratilgan.

Dastur talablarini to‘laqonli bajarish uchun tarbiyachi va o‘qituvchilar o‘z tarbiyalanuvchilarining barcha xususiyatlarini, ayniqsa, nutqiy rivojlanishini har tomonlama tekshirib, kamchiliklarini aniqlashlari, bularni bartaraf etish yoki bolani tegishli mutaxassislarga, ular esa tegishli muassasalarga yuborishlari talab etiladi.

Logopedik tekshirishlar ta’lim-tarbiya usullari va prinsiplari asosida olib boriladi va bunda bo‘la har tomonlama tekshirib ko‘riladi.

Logopedik tekshirishlar ikki shaklda olib boriladi: individual va frontal tekshirishlar. Individual tekshirishlar o'quv yilining boshida tarbiyachi yoki o'qituvchining har bir bolani kamida ikki hafta davomida kuzatib borishidan iborat bo'ladi. Frontal tekshirish vaqtida bolalar bog'cha gruppasi yoki sinfda she'r, hikoya aytib beradilar, savollarga javob qaytaradilar yoki rasmga qarab hikoya tuzadilar. Bu vaqtida bolalar nutqining umumiy holati, artikulatsiyasi, nutq sur'ati, tovushlar talaffuzi, ovoz kuchi, sifati kuzatib borilib, ular nutqidagi kamchiliklar aniqlanadi. Shundan so'ng nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar alohida ro'yxatga olinadi, gruppating nutq kartasi tuziladi. Nutqida kamchiligi bo'lgan har bir bola uchun individual nutq kartasi to'ldiriladi.

Individual va guruh nutq kartalariga quyidagi moddalar kiritiladi: 1) bolaning ismi, familiyasi, 2) yoshi, 3) millati, bog'cha yoki maktabga kelgan vaqt, 4) ota-onasi, tarbiyachisi yoki o'qituvchisining shikoyati, 5) bolaning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar: umumiy, nutqiy rivojlanishi, 6) psixonevrolog xulosasi, 7) eshitish qobiliyati, 8) ko'rish qobiliyati, 9) artikulyatsion apparatining tuzilishi va harakatchanligi, 10) fonematik uquvining holati, 11) tovushlar talaffuzi, 12) lug'at boyligi (impressiv, ekspressiv nutq holati), 13) yozma nutq (o'qish va yozish) malakalari, 14) nutq sur'ati, maromi, ravonligi, 15) Intellektining holati, 16) logopedik xulosa va boshqalar.

Nutq kartalari asosan yuqoridagi moddalardan iborat bo'ladi, biroq muassasalarning turiga qarab (maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasi, boshlang'ich maktab, nutqiy, yordamchi maktab), ularning xili, mazmuni qisman o'zgartirilishi mumkin.

Tarbiyachi va o'qituvchi bolalarning tibbiy kartalarini o'rganib chiqib, otolaringolog, okulist, psixonevrologlarning xulosalari bilan tanishadi va bularni nutq kartasiga kiritib qo'yadi.

Bola intellekti to'g'ri va teskari sinash, bir necha qismrlarga bo'lingan rasmlardan bir butun rasm tiklash, turli xil predmetlarni taqqoslab, solishtirib, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, (masaoan: quyosh-lampa, olma-tarvuz va h.k.); rasmlarni klassifikatsiyalash, (masalan: sabzavot, mevalar va h.k.); ortiqcha predmetni ajratib

olish, masalan: "To'rtinchisi ortiqcha" o'yini; ko'chma ma'noli so'zlarni, maqollarni tushunish qobiliyatini sinab ko'rig orqali tekshiriladi, bunda bolaning yoshiga mos keladigan boshqa tekshirish usullari ham qo'llanishi mumkin.

Bola nutqini tekshirishga qaratilgan har qanday topshiriqlar ham uning intellekti, fikrلash qobiliyatini aniqlashga yordam beradi.

Artikullyatsion apparatning tuzilishida har xil kamchiliklar kuzatilishi mumkin. Tarbiyachi bolaning tishlari, tili, jag'lari, tanglayi, lablarining tuzilishini ko'rib chiqadi. Ularning tuzilishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmay turib, bola nutqida qo'pol kamchiliklar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun artikullyatsion apparatning harakatchanligini ham ko'rib chiqish zarur. Bolaga lablarni cho'chhaytirish, jilmayish, puflash, tilni tepaga ko'tarish, chapga-o'ngga harakatlanish, tanglayni yalash, lablarni yalash singari topshiriqlar beriladi va hokazo.

Artikullyatsion apparatning tuzilishi va harakatchanligi obdon tekshirilib, tahlil qilib chiqiladigan bo'lsa, bolaning nutqi va ayniqsa tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini ko'pincha aniqlab olish mumkin.

Tovushlar talaffuzi har xil darajada buzilgan bo'lishi mumkin. Bolaning aksari taqlidchan bo'lgani tufayli, u barcha tovushlarni tarbiyachi yoki o'qituvchi ketidan to'g'ri talaffuz etadi. Dislaliya mavzusida aytib o'tganimizdek amaliyotda asosan sirg'aluvchi, sonor, yollashgan unlilar ayniqsa ko'p talaffuz etiladi. Shuning uchun bu tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar quyidagi tartibda tekshiriladi: sirg'aluvchi-s,z,sh,ch,s, sonor-m,n,l,r, ng; til orqa-k,g,h; chuqr til orqa-q,g'; frikativ-h; jarangli-jarangsiz tovushlarning almashtirilishi; yollashgan unlilar-ye,yo,yu,ya. Nutq kartsida eslatma uchun joy qoldirilib, bunga boshqa, tipik bo'lмаган kamchiliklar belgilab boriladi. Ko'p hollarda bola tovushni alohida olingan holda to'g'ri talaffuz eta oladi, biroq bo'g'in, so'z va gaplarda uni boshqa tovushlar bilan adashtirib yuboradi. Shuni hisobga olib har bir tovushni tekshirish uchun shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida keladigan sodda va murakkab strukturali so'zlar ifodalangan predmetli va sujetli rasmlar kartochkalari ishlataladi. qulay bo'lishi uchun bu rasmlarni oldindan nutq kartsida yozilgan tartibda albomda joylashtirib olish mumkin. Masalan, s tovushi talaffuzini tekshirish uchun-soat, apelsin, gilos, stakan tasvirlangan, stol ustida turgan

stakan ifodalangan rasmlarni ishlatsa bo'ladi va hokazo. Bitta so'z turli birikmalar tarkibidagi bir necha tovush talaffuzini tekshirishga xizmat qiladi, masalan sholg'om so'zi sh, l, g' tovushlari talaffuzini tekshirishda ishlataladi.

Tovushlar talaffuzini tekshirishda rasmldan tashqari ertak, she'r, hikoya, topishmoq, tez aytishlardan ham foydalanish mumkin.

Fonematik eshitish darajasini tekshirish ishlari bolaning nutqidagi tovushlar-fonemalarni eshitish yo'li bilan ularni bir-biridan ajratish qobiliyatini tekshirishga qaratiladi. Buning uchun: 1) ma'lum bir tovushni boshqa tovushlar orasidan ajratish, masalan: o, a, u, o', i unlilari orasidan u tovushini, undosh m, p, t, k, r tovushlar orasidan t tovushini ajratib olish topshirig'i beriladi. Tarbiyachi bir necha tovushni aytib turganida bola qo'llidagi shartli belgi yoki harfni ko'tarib ko'rsatishi kerak. 2) Bir biriga o'xshab eshitiladigan fonemalarni bir-biridan farqlash, ajratish, masalan tarbiyachi zasa, sa-za, ja-sha, sha-ja, va-fa, fa-va, ga-ka, ka-ga, da-ta, ta-da kabi jarangli va jaragnsiz, juft undosh tovushli bo'g'inlarini talaffuz etadi, bola unga ergashib, bularni qaytaradi. Bu vaqtda tarbiyachi lablarini boladan berkitib turadi, chunki u eshitmagan tovushni lab harakatlaridan ko'rib olishi mumkin. 3) Bir-biriga o'xshash, faqat bir tovush bilan farq qiluvchi paronim so'zlarini eshitib turib, bir-biridan ajratish, masalan, zina-sina, gul-kul, paxta-taxta va hokazo.

Bolada fonematik eshitish qobiliyatining rivojlanishida andak yetishmovchilik bo'lsa ham, bunday bola savod o'zlashtirishda qiynaladi. Shuni hisobga olib, maktabgacha yoshdagи bolalarning fonematik eshitishini vaqt-i-vaqt bilan tekshirib borib, aniqlangan kamchiliklarni vaqtida bartaraf etish muhim.

Bolaning lug'at boyligini tekshirish uchun, predmetli, sujetli rasmlardan foydalaniadi. Rasmlarni mavzular bo'yicha joylashtirish maqsadga muvofiq. Rasmlarni nomlash, hayvonlar va ularning bolachalarini nomlash, antonimlar ustida ishlash, masalan, baland daraxt va past daraxt, katta uy va kichkina uy, keng yo'l va tor yo'llar tasvirlangan rasmlarni nomlash: predmetlarni, masalan, sabzi, pomidor, kartoshka, piyoz-sabzavotlar deb umumlashtirish; sujetli rasmga qarab hikoya tuzish so'zlar ma'nosini tushinib yetish qobiliyakti tekshiriladi va hokozo.

Bola nutqining grammatik qurilishini tekshirish vaqtida uning jumla tuzish qobiliyati, gapda so‘zлarni qanchalik o‘rinli ishlata olishi aniqlanadi. Buning uchun sujetli rasmga qarb hikoya tuzish, gap ichida betartib berilgan so‘zлarni to‘g‘ri tartibda qo‘yib chiqish, tushirib qoldirilgan so‘zni topib gap tuzish; so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar, kelishik qushimchalari, birlik va ko‘plik qo‘shimchalaridan o‘rinli foydalana olishga qaratilgan mashqlar buyriladi.

Maktab yoshidagi bolalarning ham og‘zaki, ham yozma nutqi tekshiriladi, o‘qituvchi yozma ishlarida ko‘p xatolarga yo‘l quyadigan o‘quvchilar ro‘yzatini tuzi, ularning anavnezini (ilgari og‘zaki nutqi qanday rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni) o‘rganadi. So‘nga ush bolalarga ko‘chirib yoshish, diktant yozish topshirig‘i beriladi. Bola topshiriqlarni uddalay olmasa, unga bo‘g‘in yoki harflarni yozdirib ko‘radi. Xarflarni tushirib ketish, o‘rnini almashtirish, o‘xhash eshitiladigan tovushlarni ifodaolvchi harflarni bir-biri bilan adashtirib yozish, so‘zлarni qo‘shib yozib ketish va boshqa hatolar bolaning fonematik eshitishi, analiz va sintez qilish malakalari yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Harf elementlarini teskari yozish chiziqlarga rioya qilmaslik, harflarni ustma-ust yozib ketish kabi xatolar bolaning ko‘rish idroki fazoviy idroki yaxri rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.

O‘qiy olish malakalar har bir bolada alohida-alohida tekshiriladi, bunda bolaning matnni nechog‘li yaxshi o‘qishiga – bo‘g‘inlab yoki sidirg‘asiga o‘qishi, harflab o‘qishiga e‘tibor beriladi, o‘qish vaqtida qaysi xatolarga yo‘l qo‘yishi: harflarni adashtirib yuborishi tushirib ketishi, talaffuzdagi xatolarning o‘qishga ta’siri, o‘qish tezligi, ovoz bilan va ovozsiz o‘qish malakalari tekshiriladi.

Ongli o‘qish malakalarini savol-javob yo‘li bilan qayta so‘zlab berish, bayon etish usullaridan foydalani, tekshirib ko‘rish qo‘lay. O‘qish tezligi ham ongli o‘qishga ta’sir ko‘rsatadi. Ongli o‘zlashtirish ta’milanadigan bo‘lishi uchun bola bir minutda 45-50 so‘zni o‘qiydigan bo‘lishi kerak bunday sekin o‘qiydigan bolalarda so‘zning tovush obrazi va uning ma‘nosini o‘rtasidagi bog‘lanish susayadi.

O‘qish jarayonida kuzatiladigan qiyinchiliklar bolaning og‘zaki nutqi va yozuvidagi kamchiliklar bilan taqqoslanadi va shu yo‘l bilan ularning kelib chiqish sabablari aniqlanadi, bartaraf etish yo‘llari va usullari belgilanadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim hollarda bola nutqidagi kamchiliklar eshitish qobiliyatining zaifligiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyachi va o'qituvchilar bolaning o'z vaqtida otoloringolik tekshiruvidan o'tishiga e'tibor bermog'i lozim. Agarda otoloringolik xulosasi bo'lmasa, tarbiyachi yoki o'qituvchi bolaning eshitish qobiliyatini quyidagi yo'l bilan o'zi aniqlashi mumkin: bola orqasini o'girib turganida so'z va gaplarni har xil masofadan shivirdab gapirib ko'rildi, bola esa, eshitganlarini takrorlashi kerak. Agarda bola 6-7 mert masofada turib shivirlab aytilgan so'z va gaplarni eshitsa, demak uning eshitish qobiliyati yaxshi. 3 metr masofada bola eshitmasa, uni maxsus bog'cha yoki maxsus qulog'i og'ir bolalar uchun tashkil etilgan maktablarda o'qishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar ikkilamchi xodisa sifatida eshitish ko'rish qobiliyati zaif, oligofren bolalarda, ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalarda kuzatilishi mumkin. Tibbiy pedagogik komissiyasiga yuboriladigan bolalarning harakteristikasida bolaning o'qish faoliyati, qiziquvchanligi, ish qobiliyati, diqqati, e'tibori, sind o'kuvchilar bilan munosabati dastur materiallarini o'zlashtirish darajasi keng yoritilishi kerak.

Tekshirishlar natijalari logopedik xulosalarda yakunlanadi. Logopedik xulosalar asosida bola bilan olib borilishi kerak bo'lgan chora -tadbirlar, reja tuziladi. Ta'llim jarayoni ushbu reja to'ldiriladi, kengaytiriladi kerak bo'lsa, bolaning ahvoliga qarab, uning ayrim tomonlari o'zgartirilishi ham mumkin.

ADABIYOTLAR:

- 1.O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 4.06.98 01-278 sonli buyrug'iiga ilova.
2. Respublika tibbiy psixologo-pedagogik maslahat komissiyasi nizomi va instruktiv yo'llanma. RXTV RTM, T 2000.
3. Metodicheskiye rekomendatsii po organizatsii rabot na logopedicheskix punktax pri obsheobrazovatel'nix shkolax -T 1987.
4. Filicheva T.B, Cheveleva N.A Logopedicheskaya robota v spetsialnom detskom sadu. M 1987
5. F.J .Alimxojayeva Zaif eshituvchi bolaning eshitish qobiliyati va talafuzini tekshirish (0-5 sinflar uchun)-T O'qituvchi 1999.

6. K. Shodiyeva Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. T., O‘qituvchi 1995.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Logopedik tekshirish ishlari qaysi shaklda amalga oshiriladi?
- 2.Individul va guruh nutq kartalarining tuzilishi qanday?
- 3.Bolaning artikulyatsion apparati tuzilishi va faoliyati
- 4.Nutqning talaffuz tomonini tekshirish usullari
- 5.Fonematisk uquv va uni tekshirish usullari
- 6.Bolaning lug‘at boyligi qanday tekshiriladi?
- 7.Nutqning grammatik tuzimini qanday tekshirish mumkin?
- 8.O‘qish va yoquv malakaları qanday tekshiriladi?

15 bob O‘zbekistonda aloxida yordamga muhtoj bo‘lganlarga yordam tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 23 moddasiga ko‘ra rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo‘lgan anomal bolalar ta’lim olish huquqiga ega.

Bizning mamlakatimizda anomal bolalarga yordamni tashkil etish – inson haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishining yorqin namunalaridan biridir.

O‘zbekistonda anomal va nogiron bolalarga yordam uch vazirlik qoshidagi muassasalarda tashkil etilgan. Xalq ta’limi vazirligi qoshida ular uchun uzuksiz ta’lim tizimida maktabgacha tarbiya muassasalari, muktab , muktab-internatlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalarida va muktabda aloxida yordamga muxtoj bolalar integratsiyalashgan ta’limga jalb etilmoqdalar. Differensial ta’limni tashkil etish ishlari maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida, jumladan nutqiy, yordamchi, ruxiy rivojlanishi sust, harakat tayanch a’zolarini jaroxatlangan, zaif eshituvchi, zaif ko‘rvuchi bolalar bog‘chalarida amalga oshiriimoqda. Muktab yoshidagi aloxida yordamga muxtoj bolalar uchun barcha turdagи maxsus muktab internatlari, jumladan aqli zaif bolalar uchun mexnat ta’limi muktab-internatlari, zaif eshituvchi bolalar uchun muktab-internat, harakat-tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar

uchun, kar bolalar uchun, ko'zi ojiz bolalar, og'ir nutq nuqsonli bolalar uchun, ruxiy rivojlanishi sust bolalar uchun maktab internatlari; aqlan zaif bolalar uchun kuni uzaytirilgan maktablar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Umumta'lim maktablarida bunday bolalar uchun sinflar xam tashkil etilgan. Boshlang'ich maktabda ruxiy rivojlanishi sust bolalar uchun tenglashtiruvchi sinflar, og'ir nutqiy nuqsonli bolalar uchun nutqiy, aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinflar tashkil etilgan. Uzliksiz ta'lim tizimida aloxida yordamga muxtoj bolalar uchun mexnat maktablari, kasb-xunar kolejlarida aloxida guruxlar faoliyat ko'rsatmoqda. Yengil darajadagi nutqiy nuqsonli bolalar uchun o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida logopedik punktlar ishlab turibdi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida anomal bo'lalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan maxsus psixonevrologiya sanatoriylari, statsionarlar bor, poliklinikalarda surdologik, logopedik kabinetlarda mutaxassis-defektologlar tibbiy xodimlar bilan xamkorlikda tegishli ishlarni olib bormoqdalar. Aqliy jixatdan og'ir nuqsonlari bor (imbetsil, idiot) bolalar tug'ilganidan to to'rt yoshgacha sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi muassasalarda davolnadi va tarbiyalanadi.

Meyehnat va axolini muxofaza qilish vazirligiga qarashli muruvat uyida murakkab nuqsonli anomal bolalar tarbiyalanadilar. Bu uylarga maktabgacha yoshdagagi bolalar (4 yoshdan to 7 yoshgacha), maktab yoshidagi bolalar (7 yoshdan 18 yoshgacha) va kattalar (18 yoshdan umrini oxirigacha) qabul qilinadi,

Uzliksiz ta'lim tizimida xarmma yosh guruhlardagi aloxida yordamga muxtoj bolalar o'qishga jalb qilinadi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanadilar.

Maktab yoshidagi aloxida yordamga muxtoj bolalar, masalan Zaif ko'ruchchi bolalar ko'zi ojiz bolalar maktabida 9 yillik umumiy ta'lim maktab dasturini 11 yilda o'zlashtiradilar. Har bir sinfda 12 tadan bola ta'lim oladi. Ko'rish qobiliyati zaiflashgan aqliy qoloq bolalar uchun maxsus maktab-internat qoshida yordamchi sinflar tashkil etilgan. Ushbu turdag'i muassasada tibbiy oftalmologik hamda korreksion pedagogik kompensansiya ishlari olib boriladi. Ko'rular maktabida umumiy ta'lim maktablarining Brayl sistemasi bo'yicha nashr etilgan darsliklar ishlataladi. Zaif ko'ruchchi bolalar maktablarida umumiy ta'lim maktablarining yirik harflar bilan nashr etilgan darsliklari asosida ish olib boriladi, maxsus chiziqli daftarlari ishlataladi.

Ko'r bolalar uchun tashkil etilgan maktab internatda bolalar 11 yil ichida 9 yillik umumiy ta'lim

maktab dasturini o'zlashtirib, so'ngra xoxlovchilar o'qishini kechki maxsus mактабда davom etтиришлари mumkin. 11 sinf o'quvchilari davlat imtixonlarini topshirgach 9-yillik ma'lumot to'g'risida guvoxnomada oladilar. Ushbu maktablarda xalq xo'jaligi uchun malakali ishchilar tayyorlash, kasbga yo'naltirish ishlari xam olib boriladi. Mexnat ta'lim darslarida 5-7 o'quvchi, umumiy ta'lim darslarida esa tahminan 12 bola qatnashishi kerak. Debil darajasidagi kar bolalar maxsus tashkil etilgan yordamchi sinflarda ta'lim oladilar. Bu sinflarda bolalar soni 7-8 kishidan ortmasligi kerak. Zaif eshituvchi bolalar uchun tashkil etilgan mактаб internat ikki bo'limdan iborat bo'lib, amaliy nutqga ega bo'lgan bolalar, ya'ni gapira oladigan bolalar birinchi bo'limda, juda qiyinchiliklar bilan noaniq gapiradigan bolalar ikkinchi bo'limda ta'lim-tarbiya oladilar. Birinchi bo'limda o'qish muddati 10 yil, ikkinchi bo'limda esa 11, 12 yil. Har bir sinfda 12 tadan bola o'qishi lozim. Aqlan zaif eshituvchi bolalar 7-8 kishidan iborat bo'lgan maxsus sinfda ta'lim oladilar.

Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalar uchun xalq ta'limi qoshida mактабгача yoshdagи bolalarga mo'ljallab, nutqiy bog'chalar yoki bolalar bog'chalari qoshida nutqiy guruxlar tashkil etilgan. Bu turdagи mактабгача tarbiya muassasalarining asosiy vazifasi nutq kamchiliklarini iloji boricha barvaqt aniqlab bularni bartaraf etish va shu yo'il bilan og'ir nutq nuqsonlarining odini olish, ikkilamch asoratni bartaraf etish va bolani me'rda rivojlangan tengxo'rлari orasida mактабда o'qishga tayyorlash.

Mактаб yoshidagi logopat, ya'ni nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ommaviy umumiy ta'lim maktablarda logopedik punktlar tashkil etilgan. Logopedik punktga rayondagi bir necha mактабдан taxminan 25 ta sinf biriktiriladi. Logoped biriktirilgan sinf o'quvchilarini tekshirib, logopedik yordamga muhtoj bolalarni saralab oladi, shuningdek, ularni poliklinika yo'llanmasi bilan yoki mактаб o'qituvchilari, ota-onalar iltimosi asosida tekshirib qabul etadi. Nutq nuqsonlarining turiga qarab guruhli va individual mashhg'ulotlar olib boriladi. Mashhg'ulotlarga bolalar kunora, haftasiga 3 martadan, to nuqson to'liq bartaraf etilmaguncha qatnayveradilar.

Og'ir turdagи nutqiy kamchiliklar tufayli matab dasturini o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar maxsus nutqiy sinf yoki maktablarda ta'lim oladilar.

Bunday bolalar uchun tashkil etilgan maxsus mактаб-internatlar ikki bo'limdan iborat bo'lib, biirinchi bo'limda nutqning rivojlanishi keskin orqada qolgan alalik, afazik, dizartrik, rino'alalik, aleksik, agrafik, tutilib gapiruvchi logopat bolalar, ikkinchi bo'limda esa 9 yil o'qish muddatida nisbatan nutqi y rivojlanishi me'yorda, biroq tutilib gapiruvchi bolalar ta'lim oladilar.

Ushbu maktab-internatga bolalar shifokor-mutaxassi diagnozi xamda tibbiy pedagogik maslaxat komissiyaning yo'llanmasi bilan qabul qilinadi. Maxsus bog'sg'chalarga qatnamagan, nutqi rivojlanmagan bolalar tayyorlov sinflariga qabul etiladilar.

Maxsus mактабда bolalarga umumta'lim 9 yillik mактаб dasturi hajmidagi bilimlar beriladi. Har bir sinfda 12 kishi o'qiydi. Pedagogik kengash qarori bilan nutqiy kamchiliklari bartaraф etilgan o'quvchilar oddiy ommaviy mактабning tegishli sinflariga o'tkaziladi.

Xalq ta'limi vazirligi qoshida aqlan zaif bolalar uchun maxsus yordamchi mактабгача tarbiya muassasi tashkil etilgan bo'lib, bu yerga bolalar 4 yoshdan qabul etiladi va 7 yoshga to'lганларидаги maxsus yordamchi mexnat ta'limi mактабларига yuboriladi. Ushbu bog'chalarni tashkil etishdan maqsad, aqli zaif bolalar bilan vaqliroq korreksion tarbiyaviy ishlarni boshlash va aqli zaiflik natijasida paydo bo'ladigan ikkilamchi psixik qo'shinmalarni oldini olish, bolalarni yordamchi mактаб dasturini o'zlashtirishga tayyorlashdir. Bunday chora-tadbirlar aloxida yordamga muxtoj bolalarni saralab, ommaviy mактаблarda inklyuziv ta'limga jalb etishga ham yordam beradi.

O'quv kuni uzaytirilgan yordamchi mexnat ta'limi mактабларida aqlan zaif bolalarga 9 yil ichida maxsus dastur va darsliklar asosida umumta'lim beriladi hamda kasb-hunarlar o'rgatilib, ularni mustaqil hayotga xamda maxsus mexnat mактабига tayyorlash ishlari olib boriladi. Yordamchi mактаблarda barcha ishlар korreksion yo'nalishda amalga oshiriladi. Ushbu turdagи mактабning o'quv rejasida mehnat darslariga eng ko'p vaqt ajratilgan bo'lib, mehnatning sodda turlari buyicha o'quvchilarga malaka yeriladi. (duradgorlik, slesarlik, tikuvchilik, chorvadorchilik, kartonaj ishlар i bo'yicha mutaxasisi va x.k..)

Mehnat darslarida 8-10 bola, boshqa darslarda esa bir sinfda 12- 16 boladan oshmasligi kerak. Mактабда barcha ishlар maxsus aqli zaif o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini xisobga olgan xolda tuzilgan dastur va darsliklar asosida olib boriladi. Mexnat ta'limi mактабida murakkab fanlar (fizika, ximiya, geometriya, trigonometriya, algebra va x.k.) o'quv rejaga kiritilmagan.

Harakat tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar uchun ham maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan. Bu turdag'i maktablarda o'qo'uvchilar 11 yil ichida o'rta maktab dasturini o'zlashtirib, ma'lum kasb egasi bo'lib chiqadilar. Ushbu maktablarda kompleks ta'sir etish prinsiplariga amal qilgan holda o'qituvchi, shifokor, davolovchi fizkultura metodisti, logoped, uqalovchilar va boshqalar hamkorlikda ishlaydilar. Individual yordamga muxtoj bo'lgan bolalar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mehnat darslariga 7-8, sinflarda 16 o'quvchi ta'lim oladi. Harakat-tayanch organlari jaroxatlangan bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarni, tez charchab qolishini inobatga olib, ushbu maktablarda 40 minutlik darslar 20 minutga bo'linib, orasida 5 minut fizminutlarga vaqt ajratiladi. Aqlan zaif harakt tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar uchun maktab qoshida yordamchi sinflar tashkil etilgan.

Kar-ko'r-soqov bolalar uchun O'zbekistonda maxsus muassasa tashkil etilmagan. Moskva viloyati Zagorsk shaharchasida joylashgan maxsus maktab-internatda bu toifadagi alovida yordamga muxtoj bolalar uchun ta'limtashkil etilgan.. Ta'lim tarbiya ishlari ushbu turdag'i maktab-internatda defektologlardan I. A. Sokolyanskiy va A. I. Meheryakovlar tomonidan yaratilgan metodika buycha olib berilmoqda. Zaruriyat bo'lsa, O'zbekistonda ushbu sinalgan usullari tizimi asosida maxsus siflarda ta'limtarbiya ishlarini tashkil etish mumkin.

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni. Toshkent, 1997y.
- 2.O'zbekistonda «Kadrlarni tayyorlash» milliy dasturi. T. 1997 y.
3. «Salamanka dekloratsiyasi». -Ispaniya. 1994 y
4. Inklyuziv ta'lim. - Tuve Djonson Mejregionalnaya programma po obucheniju invalidov (Opereyshin Mersi) Vsemirniy forum po obrozovaniyu Zaklyuchitelniy doklad Nyu york, 1990
- 5.Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. - O'zbekiston bolalar jamg'armasi.
6. K.K.Mamedov, B.B Shoumarov, V.P.Podobed Ruhiy rivojlanishi sustalashgan bolalar haqida T., 1993
- 7..Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika.-T.,2006
- 8.V.S.Raxmanova Maxsus pedagogika. T., 2004

9. Shoumarov G.B. va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., "Mehnat" 2000.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda maxsus yordamga muxtoj anomal bolalarga yordam qaysi vazirliklar tomonidan tashkil etilmoqda?
2. Uzliksiz ta'lif tizimida alovida yordamga muxtoj bolalar uchun qanday muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda?
3. Analizatorlarda kamchiliklari bo'lgan bolalar uchun qanday muassalar mavjud?
4. Aqlan zaif bolalar uchun qanday muassalar mavjud?
5. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarga qanday yordam tashkil etilmoqda?
6. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar qayerda ta'lif olishlari mumkin?

MUNDARIJA

Kirish

1 bob Korreksion pedagogika va logopediya kursining maqsadi va vazifalari.

1.1. Korreksion pedagogika- fan sifatida.

1.2. O‘zbekistonda «Ta’lim xamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari.

2 bob Aloxida yordamga muhtoj bolalar toifalari

3- bob Ko‘ruv va eshituv idrokida muammosi bo‘lgan bolalar

3.1. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar

3.2. Ko‘rishiда muammosi bo‘lgan bolalar.

4bob Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bołalar.

4.1. Oligofren bolalar.

4.2. Ruriy rivojlanishi sustlashgan bolalar

5 bob. Harakat-tayanch a’zolari jarohatlangan va mujassam nuqsonli bolalar.

5.1. Harakat-tayanch a’zolari jarohatlangan bolalar.

5.2. Mujassam nuqsonli bolalar, ularning ta’rifi

6 bob. Og‘ir nutqiy nuqsonli bolalar.

6.1. Logopediya fani, uning vazifalari

6.2. Nutq nuqsonlari haqida tushuncha

6.3. Me’yorda rivojlangan bolalar nutqining rivojlanishi

6.4. Nutqning anatomo-fiziologik va psixolingistik ta’rifi

7 bob Talaffuzdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari.

7.1. O‘zbek tili fonemalari.

7.2. Dislaliya

7.3. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari.

8 bob . Rinolaliya

8.1. Rinolaliya nuqsonining ta’rifi

8.2. Rinolaliya xillari

8.3. Rinolaliyani barataraf etish yO'llari

9bob. Dizartriya va anartriya nuqsonlarining ta'rifi.

10 bob Ovoz funksiyalarining buzilishi.

10.1. Ovoz fiziologiyasi

10.2. Ovoz buzilishlari

10.3. Bolalar ovozini tiklash, asliga keltirish

11bob. Nutq sur'ati, ravnligining buzilishi.

11.1 So'zlash tezligini buzilishi.

11.2. Tutilib gapirish

12 bob Suz va jumla tuzilishi kamchiliklari

12.1. Alaliya xakida umumiy ma'lumot

12.2. Afaziya, uning ta'rifi, kelib chiqish sabablari.

13 bob. Yozma nutqdag'i kamchiliklar.

14 bob. Nutq nuqsonlarini aniqlash va tekshirish.

15 bob O'zbekistonda aloxida yordamga muhtoj boalarga yordamni tashkil etish.

RAXMONOVA V.S.

Korreksion pedagogika va logopediya

"IQTISOD – MOLIYA"

Raxmanova V.S.

Korreksion pedagogika va logopediya

Muharrir *Bozorov E.*

Bosishga ruhsat etildi 21.10.2007y. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$

Hisob-nashr tabog'i 9,18. adadi 100

Buyyurtma raqami №89

“IQTISOD – MOLIYA” nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent kichik halqa yo’li, 7-uy

Nizomiy nomidagi «TDPU» bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib, 103